

ALISHER NAVOIY

MAHBUB UL-QULUB



Yoshlar nashriyot uyi
Toshkent
2018

UO‘K 821.512.154-31

KBK 84 (5O‘)1

N 14

Navoiy, Alisher

Mahbub ul-qulub. Alisher Navoiy. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – 172 b.

“Mahbub ul-qulub” asari Navoiyning umri davomidagi butun hayotiy kuzatishlari asosida yozilgan. Shu boisdan har bir ijtimoiy tabaqa aniq tasvirlangan.

Ushbu kitob orqali xalqimiz orasida allaqachon maqolga aylanib ulgurgan Navoiyning hikmatli so‘zlaridan bahramand bo‘lasiz.

UO‘K 821.512.154-31

KBK 84 (5O‘)1

ISBN 978-9943-5219-3-3

**© Yoshlar nashriyot
uyi, 2018**

BISMILLAHIR ROHMANIR ROHIM

Hamd angakim, zotig‘a hamd onchakim, sazovordur, aytsa bo‘lmas va sano angakim, ehsonig‘a sano onchakim, yeri bordur bitsa bo‘lmas. Zoti jami‘i kamolot sifoti bila mavsuf, sifotidin majmu‘i kamolot kashf ahlig‘a makshuf. Tanzihi til sharh qilurdin mubarro, taqdisi el vasf etardin muarro. Azamati bog‘ida sipehri davvor bir nilufardin kam va qudrati ollida nujumi sobita va sayyora ul nilufar yuzida bir necha qatral shabnam. Nilufar yuziga shabnam sochquchi ham ul va shabnam suyidin nilufarzor, balki gulistoni Eram ochg‘uchi ham ul. Beniyozlig‘i janbida charxi nighun bir gadoyi niyozmand va choraszlig‘i ollida dahri buqalamun bir bechorayi ajzpayvand. Vujudi mulohazasida ofarinish vujudi nomavjud, zoti mutolaasida avvalin va oxirin budi nobud. Xoni ehsoni tegrasida oliyshon shohlar rizqqa soyil va ilmi bepoyoni taaqqulida oliymakon ogohlar jahnga qoyil. Qahhorlig‘i sarsari uchururg‘a sobit va sayyor, nastaranning sochilg‘on yafrog‘lari jabborlig‘i quyuni sovururg‘a dahri g‘addor. Bayt ul-hazanning to‘kulug‘on tufrog‘lari yo‘qni bor qilmoq va borni yo‘q qilmoq aning qudratig‘a oson, bor-u yo‘q va yo‘q-u bor aning ehsonidin umidvor va qahridin haroson. Bir ovuch tufrog‘ni malakut xaylida xilofat taxtig‘a o‘lturmoq anga yarashur va yillar maloyikayi muqarrabing‘a peshvolik qilg‘onning bo‘ynig‘a la’nat tavqi ul solur.

Qit'a:

*Qodirekim, qudratidin muncha yuz amri g‘arib,
Bo ‘lsa har soatda mayjud andin ermastur ajab,
O‘n sekiz ming olam-u odam yaratib, aylamak
Bir kishini ofarinish daftaridin muntaxab.
Ul qila olur anga keldi musallam bu umur,
Gar o‘zi erdi musabbib, lek bu bo ‘ldi sabab.*

Subhana zi-l-mulki va-l-malakut. Subhana zi-l-qudrati va-l-jabarut. Jallat ilahuhu va ammat nuamouhu va la ilaha g‘ayruhu.

(Mulk va podshohlik egasi (Alloh) pokdir, qudrat va ulug‘lik egasi (Alloh) pokdir, ne’matlari ulug‘ bo‘lgan va ne’matlari barchaga barobar bo‘lgan bir Allohdan o‘zga iloh yo‘qdir.)

Va durudi noma’dud ul mahbubi oqibat Mahmudg‘a-kim¹, Haq taolo anga qurb va manzilat berdikim, olam va odam vujudidin maqsud aning vujudi erdi. Xujasta tiynati ruhi pokdin tohir va farxunda xilqati anosir tarkibidin pok erkani zohir. Anosirining² yeli Masih³ anfosi va tufrog‘i Ya’qub⁴ ko‘zining to‘tiyosi va suyi Xizr⁵ chashmasining zuloli va o‘ti Kalim daraxtining nori ishti’oli. Bu anosirni ruhi pok desa yeri bor va ruhig‘a ruhi fidok demak sa-zovor. Toyiri sidranishin Buroqi⁶ barqgomi va soyiri Ruh ul-amminning⁷ ulvi xiromi. Aflok shabiston ni yuzi bahoridin gulshan va maloyiki uyuni raxshi g‘uboridin ravshan. Kalomi sha’nida:

«Va ma yantiqu anil hava»⁸ va nutqi bayonida «in-hu-va illa vahyun yuha»⁹ asrori Ilohilg‘a zoti amin va inoyat nomutanohidin oti «rahmatan lil-olamin»¹⁰.

M a s n a v i y:

*Iki gisusi iki laylat ul-qadr;
Bu yanglig‘ iki layl ichra yuzi badr;
Laylu badr o‘lub sham‘i shabiston,
Uzoridin xay anda kavkabiston.
Bu kavkablardin aylab Tengri mayjud,
Nubuvvat ma ‘sharig‘a durri maqsud.*

Nubuvvat spehrida quyosh erkoni ma’lum, musohiblari sha’nida as’hobi kan-nujum¹¹.

(Salovatullohi alayhi va alo olihi va as’hobihi ilo yavmid-dini)¹².

Ammo ba’d: fuqaroning gadoyi va g‘aroyib masturala-rining chehrakushoyi al-faqir ul-haqir Alisher al-mulaqqab bin-Navoiy (g‘afara zunubahu va satara uyubahu)¹³ mundoq arz qilur va adosin o‘ziga farz bilurkim, bu xoksori parishon ro‘zgor shabob avonining bidoyatidin kuhulat zamonining nihoyatig‘acha davron voqeotidin va sipehri gardon hodisotidin va dahri fitnaangiz buqalamunlug‘idin va zamonayi rangoz gunogunlig‘idin muddati madid va ahdi baid har nav’ shiq va suratda aqdom urdum va har tavr suluk va kisvatda yugurdum va o‘zumni yaxshi-yamon xizmat va suhbatig‘a yet-kurdim. Goh mazallat va ano vayronida shevan ko‘rguzdum va goh izzat g‘ino bo‘stonida anjuman tuzdum.

M a s n a v i y:

*Gahe topdim falakdin notavonlig‘,
Gohe ko ‘rdim zamondin komronlig‘,
Base issig‘, sovug‘ ko ‘rdum zamonda,
Base achchig‘, chuchuk tottim jahonda.*

Iflos va notavonlig‘ hangomida, ya’ni falokat va nomurodlig‘ ayyomida goh ilm madorisida safi niolda yer tuttum, goh ulamo majlisida ilm nuridin ko‘ngulni yoruttum. Goh atqiyoy masojidida alar qadami yetgan yerga yuz qo‘ydum va sajda kasratidin manglayim terisin so‘ydum. Va goh safo xonaqohi ahli ibriqig‘a suv quymoq bila arjumand bo‘ldum va goh fano dayri xayli sabukashligidin sarbaland bo‘ldum. Va goh laimlar ollida xorlig‘ va goh arzollar olvida bee’tiborlig‘ ko‘rdum. Va goh ishq ko‘yida beboklik va odamiykush parichehralarg‘a haloklik dast berdi. Va goh junun mahallasida arzol bo‘ynumg‘a silliy urdilar va atfol boshimg‘a tosh yog‘durdilar va goh shahrim eli sitamidin g‘urbatqa tushtum va g‘arib xaloyiqqa qo‘shuldum va qovushtum. Va jibol qullasi oromgohim bo‘ldi va goh sahro etogi panohim bo‘ldi. Va goh g‘urbatda alil va g‘arib elga zalil bo‘ldum. Goh bu shiddatlardin azmi vatan qildim. Va hamul zoviyasin nishiman qildim. Va goh azizlar xizmatidin o‘zumni bahramand va so‘zumni dilpisand va arjumand tooptim.

R u b o i y:

*Gardun gah manga jafo-u dunluq qildi,
Baxtim kibi har ishta zabunluq qildi.*

*Gah kom sari rohnamunluq qildi,
Alqissa: base buqalamunluq qildi.*

Ammo shug‘l va komronliq chog‘ida va ko‘ngul mulki xalq hujumi bulg‘og‘ida va goh amorat masnadida o‘lturdum va hukm va hukumat mahkamasida dodxoh so‘rdum va goh podshoh nayobatida taqarrub tuzdum va nazzoragar elga o‘zumni komron ko‘rguzdum. Va goh makramat ayvonini makon qildim va akobir va ashrofni ta’zim yuzidin

mehmon qildim. Va goh nishot bog‘ida bazm tarhi soldim va soqiy va mutrib bazm-u simoidin bahra oldim. Va goh salotin muxolafatlarida arog‘a kirdim va munozaatlarin muvofaqat-g‘a qaror berdim. Goh harb ma’rakasig‘a o‘zumni soldim va jahl va nodonliq tuhmatin bo‘ynumga oldim. Va goh xayrot ahlig‘a o‘zumni qottim va har nav’ xayr buq’alari tuzattim, andoqli, sa’yimdin rabotlar bo‘ldi va andin musofirlarg‘a nishotlar bo‘ldi.

Bayt:

*Dimog ‘ima tushubon ko ‘p tasavvur-u pindor,
O ‘zumni joh-u ulug‘luqqa ayladim izhor.*

Bu muqaddimotdin maqsud bukim, har ko‘y va ko‘chada yugurubmen va olam ahlidin har nav’ elga o‘zumni yet-kurubmen va yaxshi-yamonning af’olin bilibmen va yamon-u yaxshi xislatlarin tajriba qilibmen. Xayr va sharrdin no‘sh va nish ko‘ksumga yetibdur va laim va karim zaxm va marhamin ko‘nglum dark etibdur. Va zamon ahlidin ba’zi as’hob va davoron xaylidin ba’zi ahbobki, bu hollardin xabarsiz va ko‘ngullari bu xayr va sharrdin asarsizdur.

Q i t ’ a:

*Ne bilgay ul kishikim, shahd-u mayni totmaydur
Ki, vasl-u hajr kibi ul chuchuk durur, bu achig‘.
Bilur zalil musofirki, po ‘ya aylarda erur
Qum-u to ‘zong yumshog‘, tog ‘-u xoradur qatig‘.*

Bu nav’ as’hob va ahbobja intiboh qilmoq va alarni bu nav’ holatdin ogoh qilmoq vojib ko‘rundiki, har toifa xisolidin vu-quflari va har tabaqa ahvoldinin shuurlari bo‘lgayki, munosib el xizmatig‘a shitob qilg‘aylar va nomunosib el suhbatidin ijtinob

vojib bilgaylar va bori el bila maxfiy rozlarin so‘z demagaylar va shayotin va ins makr-u firibidin boziy yemagaylar. Va har nav’ el suhbat va xususiyatiki, alarga havas bo‘lg‘ay, bu fa-qir-ning tajribasi alarg‘a bas bo‘lg‘ay.

Chun bu maqolatning qulubg‘a mahbublug‘i ma’lum bo‘ldi, anga «Mahbub ul-qulub» ot qo‘yuldi. Va bu bitilgan favoyidning kayfiyati chun bilildi, ani uch qism qilildi.

Avvalg‘i qism: soir un-nosning af’ol va ahvolining kayfiyati¹⁴.

Ikkinchchi qism: hamida af’ol va zamima xisol xosiyati¹⁵.

Uchinchi qism: mutafarriqa favoyid va amsol va surati¹⁶.

Umid ulkim, chun o‘qug‘uvchilar diqqat va e’tibor ko‘zi bila nazar solg‘aylar va har qaysi o‘z fahm-u idroklarig‘a ko‘ra bahra olg‘aylar, bitguchiga ham bir duo bila bahra yetkurgaylar va ruhini ul duo futuhi bila sevundurgaylar.



Avvalg‘i qism

XALOYIQ AHVOL VA AF’OL VA AQVOLINING KAYFIYATI

Ul qirq fasldur

A v v a l g ‘ i f a s l

ODIL SALOTIN ZIKRIDA

Odil-u oqil podshoh ibodullohg‘a zillulloh. Xilofat mulki aning farmonida «Inni joilun fil arz xalifatun»¹ aning sha’nda. Bukim odil podshoh rif’ati ta’rifdin biyikroq erur «Vulidtu fi-zamon us-sulton ul-odil»² andin xabar berur. Ulki aning zoti bila mubohidur xojayi kavnayn³ debdurkim, «Adlu soatin xay-run min ibodat us-saqalayn»⁴.

Odil podshoh Haq taolodin xaloyiqqa rahmatdur va mamlikka mujibi amniyat va rafohiyat. Quyosh bila abri bahordek qaro tufrog‘din gullar ochar va mulk ahli boshig‘a oltun bila durlar sochar. Fuqaro va notavonlar aning rifq va madorosidin osuda, zalama va avonlar aning tig‘i siyosatidin farsuda. Harosatidin qo‘y-u qo‘zi bo‘ri xavfidin emin va siyosatidin musofir ko‘ngli qaroqchi vahmidin mutmain. Rif’atidin har maktabda atfol g‘avg‘osi va muhofazatidin zuafo hammomida alarning alolosi, haybatidin yo‘llar qaroqchidin xoli va qo‘llar to‘la ulus moli va zabtidin amaldorlar qalami sinuq va sitamkorlar alami yiquq. Jiddidin masojid jamoat ahlidin mamlu va madoris bahs va jadal xaylidin g‘uluv. Qisosi tig‘idin o‘g‘ri ilgi el molidin ko‘toh, intiqomi biyminidin qoti‘i tariq holi adam biyobonida taboh. Tunning ko‘pi do‘konlarda savdo uchun sham’ va avbosh ko‘cha gashtidin ko‘ngullari jam’. Shomdin to sahar xonaqohlar eshigi ochuq va xilvatlar ibodat nuridin yoruq. Shahrda qo‘ylar posboni ul, yozida qo‘ylar shuboni ul.

Raiyatg‘a saro va bog‘ andin ma’mur va sipohig‘a kom va farog‘ andin mavfur.

Andin kechalar atrok zuafosi ishi urg‘ushtak va atfol varzishi oq so‘ngak. Ajuzlar charx uni maddi bila aning duosig‘a nag‘masoz va kanizaklar momuq sabamoq uni bila aning olqishig‘a nag‘mapardoz. Fuqaro ishi anga ham duo va ham nozish, aning da’bi fuqarog‘a ham saxo va ham navozish.

Ochlar g‘izosi bazl va atosi xonidin, yalang‘ochlar libo-si xizonayi lutf va ehsonidin. Mulk bog‘in ma’mur qilurg‘a abri serob va mulk ahli ko‘zin yoruturg‘a mehri jahontob. O‘zga mulkning raoyo va xalqi aning orzusida va yana kishvar mazlumlari aning adli duosi go‘ftugo‘sida. Yaxshi otig‘a ulamo ishi rasoil tartibi va yaxshi sifotig‘a shuar ovari qasoyid tarkibi, mug‘anniylar ishtig‘oli sanosi uchun surud tuzmak va musanniflar maqoli duosi ohangida nag‘ma ko‘rguzmak.

Xalq rizosidin Haq rizosig‘a tolib va dodxoh so‘rarda so‘rug‘ kuni vahmi ko‘nglig‘a g‘olib.

M a s n a v i y:

*Ulus podshohi-yu darveshvash,
Anga shohliqdin kelib faqr xush,*

*Jahondorlarg‘a sipehr intiboh,
Vale ahli faqr ollida xoki roh,*

*Jahon mulki ollinda xoshokcha,
Vale bir ko‘ngul mulki aftokcha.*

*Bori benavolar navosozi ul,
Hamul nav’kim, Shoh Abulg‘ozis ul,*

*Kelib ayni inson-u insoni ayn,
Jahon vorisi Shoh Sulton Husayn*

*Ki, to bo 'lsa gardung 'a davorliq,
Anga boqiy o 'lsun jahondorliq.*

*Xaloyiqqa bu shahdin o 'lsun nishot,
Dame bo 'lmasun xoli andin bisot.*

Ikkinchifi fasl

ISLOMPANOH BEKLAR ZIKRIDA

Mundoq shohg‘a musulmon bek nabiy xizmatida to‘rt yordin biridek. Nomurodlarning panohi va podshohning davlatxohi. Shohg‘a dunyoda chin so‘z deguvchi va aning oxirati g‘amin yeguvchi. Yomonlar andin haroson va yaxshilar dushvorlig‘i oson. El moli tama‘i ko‘nglida nobud va ayoli xayoli zamirida nomavjud. Murodi raoyo amniyati va maqsudi baroyo jam‘iyati. Ul musulmonlarga rizojo‘y va musulmonlar anga duogo‘y. O‘zining zoti tuzuk va sa‘yi shoh eshidiga tuzukluk.

Shoh eshigi mundoq bekin xoli bo‘lmasun va davlatning andin o‘zga intiqoli bo‘lmasun.

Uchinchifi fasl

NOMUNOSIB NOIBLAR ZIKRIDA

Yolg‘onchi xudnamo noib nisbati Musaylamai kazzob millati, nubuvvat tuhmatin o‘ziga solg‘on va Jabroil⁶ vahy-din degoni bori yolg‘on. Munga ham shoh xususiyati izhori g‘ayri voqe‘ yolg‘on bori. Yolg‘on hukm yetkururiga bois tama‘i shum va o‘truk parvona yetkururiga sabab hirsi mazlum. Nima olurda yolg‘on anga chin o‘rnig‘a va musulmonlarga nuqson anga din o‘rnig‘a, yolg‘on borida chin demagi mahol va rishvat olurda o‘zga so‘z deb, ammo ko‘nglida o‘zga xayol. Mundoq noibki, bir bo‘limg‘ay fe’li-yu qavli, shoh eshidigin gum bo‘lg‘oni avli.

ZOLIM VA JOHIL VA FOSIQ PODSHOHLAR ZIKRIDA

Odil podshoh ko‘zgu va bu aning uchasisidur. Ul yoruq subh, bu aning qorong‘u kechasisidur. Zulm aning ko‘nglig‘a marg‘ub va fisq aning xotirig‘a mahbub. Mulk buzug‘lig‘idin zamiriga jam’iyat va ulus parishonlig‘idin xotirig‘a ammiyat. Obodlar aning zulmidin vayrona, kabutar toqchalari boyqushg‘a oshiyona. Boda seli chun bazmida to‘g‘yon qilib, ul sel mulk ma’muralarin vayron qilib. Suvchi xonasig‘a farsh masjid ravoqi to‘kulgonidin va ko‘plari boshig‘a xisht mehrob toqi yemrulgondin. Agar qon to‘kmak anga pesha, kimki joni bor anga andesha. Agar shurbg‘a mash’uf – ko‘y va ko‘cha musulmonlarrg‘a maxuf. Agar fosiq bo‘lsa va badaf’ol – el irzi va ayolig‘a andin biymu nakol. Va sitezaro‘y bo‘lsa va xudroy – mushfiq Navoiy jonig‘a voy!

O‘z noshoyisti o‘z ollida xo‘b va el ma‘quli anga mardud va ma‘yub. Ko‘p xizmat oz sahv bila ollida nobud va ko‘p haq va rost oz xato bila ilayida nomavjud. Xato royi o‘ng kelmasa, daxlsizlarga shirkat, balki naqiz tutqonlarrg‘a ziyoda tuhmat. Nosavob xayoli tuz chiqmasa, shirkati yo‘qlarg‘a itob va balki xabari yo‘qlarga aroda azob. Hayot suyin og‘u desa, musallam tutmog‘on gunahkor va quyosh nurin qorong‘u desa, tahsin qilmog‘on tiyraro‘zg‘or.

O‘z jonibidin qatraning daryocha hurmati va zarraning bayzocha qiymati. El tarafidin moli olam bir qaro puldin kam va fido qilg‘on joni aziz, oncha yo‘qkim, bir pashiz. Qora quzg‘unni oq tuyg‘un desa, qozni yaxshi olur demagan muqassir. Yoruq kunni tiyra tun desa, Suho ko‘runadur demagan mudbir.

Chin der elga – jon xatari, xayrg‘a dalolat qilg‘uvchig‘a o‘lum zarari. Haq aning qoshida botil, xiradmand aning aqidasida johil.

Eldin ko‘nglida kinasi – maxfiy xazinasining dafinasi. Qatl uchun jon bermak shiori, el mol-u jonig‘a qasd – shikori.

Bu yomon podshohki, bo‘lg‘ay vaziri ham yomon, andoqki, Fir‘avn nayobatida Homon⁷.

Bayt:

*Uylakim shah morg‘a bo ‘lg‘ay mumid ham ja ’fariy,
Yo vaboyi xalqqa toun ham o ‘lg‘ay bir sari.*

Tengri mundoq balolarni adam chohidin vujud taxtgo-hig‘a kelturmasun va yo‘qluq zindonidin borlig‘ shahristonig‘a yetkurmasun.

B e s h i n c h i f a s l

VUZARO ZIKRIDA

Vazir vizrdin mushtaqdur va bu fe‘l aning zotig‘a ahaq va alyaqdur. Bu ishni pisandida qilg‘on Osaf⁸ ermishkim, nigin naqshi «qad rahimallohu man an safा»⁹ ermish. Hamonoki, Osaf bordi, insofin olib bordi va insof gavharin bu noinsoflar orasidin chiqordi. Kishi agarchi o‘zin yeldek har yon solg‘ay, Osafni bu xokdonda qayda topa olg‘ay. Dahr elida birovki osafnihoddur, bilgaykim, Sulaymon taxti barboddur.

Bu zolimlar – mulkni barbod berguvchilardur va mulk ahli yig‘ishturg‘onlarin bitirguvchilardur. Avlo ulkim, bular zikrida kishi xoma surmagay va bu xomadek qaro yuzluklar otin qalam tiliga kelturmagay. Zahr berib bemor o‘lturguvchi tabib, bularning holig‘a mushobehdur va qarib.

Bu ikki xayldin har biri bir af'i, shohg'a vojibdur bularning daf'i. Bular, jumlesi chiyonlar, xaloyiqqa yetkurur ziyonlar. Kilkлari no'gi aqrab nishi, raiyat jonig'a ul nish tashvishi. Necha bu nish mazlumlarg'a sanchilg'ay, umid ulki, boshlari ajal toshi bila yanchilg'ay.

M a s n a v i y:

*Bulardin gar a'lo gar adno durur
Kim, andin xaloyiqqa izo durur.
Shah o 'lturmak avlodur ul elni bot
Ki, debdur nabiy «uqtulul-mu'ziyot»¹⁰*

O l t i n c h i f a s l

NOQOBIL SADRLAR ZIKRIDA

Bediyonat sudur bid'ati sayyiadur bilozarur. Bu nokas agar omiydur fisq-u fujur aning komidur. Majlisida nag'manavozliq ilm va taqvo azosig'a – navhasozliq. Ulamo kelturgan gulob shishalariki xoli qolib, boda solurg'a ani mulozimlari olib. Bu kelturgan nabot gazak uchun ushalib, vazifa vajhlari o'zga asbob uchun sayg'olib. Badkirdor anda g'alaba va poykor anda talaba. Navkarlariga osh xonaqoh rotibasidin va chuhralarig'a maosh shayx va mudarris vazifasidin. Bazmig'a may kelturgali muhtasib rozi va mayg'a bodapolo rishi qozi, kishvarki, anda manohiy mundoq behisob bo'lg'ay, islom va shariatg'a ne izzat va ne hisob bo'lg'ay.

Sadr kerak ulamog'a dastyor bo'lsa va mashoyixqa ko'rguzor va xizmatkor va sodotg'a mumid va fuqaro xizmatida mujid. Zulm rishtasin uzguvchi va avqof buzug'in tuzguvchi va ziroat kasratida sa'y ko'ruguaychisi.

M a s n a v i y:

*Yo ‘q ulkim fosiq-u xammor-u zukka
Ki, buzg ‘ay garchi bo ‘lg ‘ay xoja dukka.
Rikobi naqshi kimsonlig ‘ sarosar,
To ‘nida ortiq ondin zeb-u zevar.*

Qit’ a:

*Kerakki boshig ‘a qo ‘ysa aloqalik dastor,
Yana rido ham aning egnida mavoliydek.*

*Yo ‘q ulki, markabi bo ‘ynig ‘a bog ‘lab ossa qo ‘tos,
Osilg ‘ay o ‘zining o ‘z bo ‘g ‘zidin saqolidek.*

Y e t t i n c h i f a s l

FOSIQ VA BADMAOSH, BAHODIRLIQ LOFIN URG‘ONLAR ZIKRIDA

Shoh eshigida yormoqni zoye’ qilg‘uvchi jamoatkim, alardin ne Tengrig‘a toatdur va ne shahg‘a itoat.

Tariqlari – xudnamoliq va rasmlari – xudorolinq. Ishlari – mastlig‘, varzishlari – xudparastlig‘. Chin demaklari lof, ma’nilis o‘zlari gazof. Jur’akashlik – dinlari va kofirvashlik – o‘yinlari. Ko‘ngullari to‘bichoq sekreturdin orom topmoq va so‘zlari bosh yalang yuzga chopmoq. Bazmda da’volari hotamliq¹¹, razmda taloshlari rustamliq¹². O‘tag‘alaridin Nasri Toyirg‘a ram, nayzalaridin Simoki Romih yuzi darham. Tavrlaridin oshuftaroq alarg‘a dastor va dastor aloqasidin uchalarida ozor.

Mulk dushmani daf‘i shuhratlari, shohga mulk asrar minnatlari. Bu da’vo boshig‘a yetguncha nechasini may o‘lturub,

nechasini o‘zga fisq do‘zaxga yetkurub. Yuzdin biriki ma’rakag‘a yetib va yo‘rtoq chopish bilan o‘zin zoye’ etib. Muborizafganliklari o‘z holig‘a, safshikanliklari o‘z yasolig‘a. Bu nav’ bahodir hech ma’rakada bo‘lmasun va hech saf buzarda aning qoni to‘kulmasun. Shohg‘a sipoh-darvishlar duosidur – fuqaro himmati va Tengri rizosidur. Shohkim, anga Haq inoyati sipoh bo‘lg‘ay, livo-sining ziynati «nasrun min Alloh» bo‘lg‘ay. Shohg‘a to davlat bor – dushman erur xor va xoksor. Davlatga yet-kurguvchi Tengri, ham olg‘uvchi, ham berguvchi Tengri. Ul bersa, kishi ola olmas, ul yetkursa, kishi yiroq sola olmas. Shohki, Haq amrin bajo kelturgay, bu davlat ko‘p xavflarg‘a rajo yetkurgay.

Qit’a:

*Shaheki, sidqi aning Tengri birla tuz bo ‘lg‘ay,
Ne g‘am aduvsi aning bir yo‘q ersa yuz bo ‘lg‘ay.
Kishiga Tengri berur fath, yo‘qli xaylu sipoh,
Pas e’timod anga aylamak ne so ‘z bo ‘lg‘ay.*

Bayt:

*Cherik bo ‘lsa-yu bo ‘lmasa baxt yor,
Sipahg‘a aduv xaylining hukmi bor.*

S e k k i z i n c h i f a s l

YASOVUL GURUHI ZIKRIDA

Yasovulki, bir mazlum ishi keynicha borg‘ay va ul mazlumni zolimdin qutqorg‘ay. Agar muzd tilamagi maqdurdin ortuqroqdur, ul zolimga ulug‘roq o‘rtoqdur.

Agar sa'yig'a yarasha olur xayoli bo'lg'ay, ota merosi va ona sutidek haloli bo'lg'ay. Va agar tama'i haqq us-sa'yidin kamdur, erlik va muruvvat anga musallamdu. Va agar sa'y qilg'ay va olmag'ay, muzdkim anga haqdur, ani desa bo'lg'aykim, valiyi mutlaqdur.

Ko'p eranlar bu ishni shior etibdurlar va bu suluk bila ullayi maqosidg'a yetibdurlar.

M a s n a v i y:

*Avliyoullohki, har suratda bor,
Ba'zi etmish bu ravishni ixtiyor,
Chun erurlar qubbalar ichra nihon,
Haqdin o'zga kimsaga ermas ayon.*

T o‘ q q u z i n c h i f a s l

YASOG'LIQ VA QARO CHERIK ZIKRIDA

Yasog'liq degan qaro cherik, Ya'juj va Ma'juj xaylig'a sherik. Emgakdin alarg'a orom yo'q, yasoq tortardin bir nafas kom yo'q. Ishlari talay olg'onni talamoq, yot yurtda chugurtkadek sabza va yafrog'ni yalamoq.

Insonliq bila alar orasida muboyanat, musulmonliq bila alar o'rtasida munozaat. Fahm-u idrok din alar zoti oriy, aql-u insofsiz bi-z-zot bori. Qayong'akim yuzlandilar, alarg'a yonmoq yo'q, kecha va kunduz tag'oful uyqusidin uyg'onmoq yo'q. Isig' va sovuq tanlariga tafovut qilmay va ochlig'-yalang'ochliq zararini jismlari bilmay. Odamiy-sizliqda maxluqtdin mumtoz, hayvonliqlari ko'p-u mar-dumliqlari oz.

R u b o i y:

*Ul qavmdin a'juba xaloyiq bo 'lmas
Kim, me'dalari harom yerdin to 'lmas.
O'lguncha balo chekib erurlar mavjud,
Chin bo 'ldi bu da 'voki, yasog 'liq o 'lmas.*

Turfa bukim, chun Haqning har nav' elga inoyati pinhoni bor, bular orasida ham yashurun eranlarning imkonи bor. O'rdu bozori o'zin yasog 'liqqa qotg 'uvchi, o'ngay ham ulush olmay og 'ir sotg 'uvchi. Cherik ulushidin har bor alar shatalxor, andoqkim mulk ahlidin amaldor.

B a y t:

*Sipohiy molin ul xayli tabohi,
Tun-u kun muft olib xohi-naxohi.*

Mumkin yo'qkim, odamizod alarg 'a sazo bergay, magar Tengri alarg 'a balo birla jazo bergay.

O' n u n c h i f a s l

SHOH ULUSI O'ZIGA MUSHOBİH BO'LUR ZIKRIDA

Shohg 'a har kimki, mulozim va tobi' bo 'lg 'ay, ishi va tavri shoh ishig 'a mushobih voqe' bo 'lg 'ay. Agar shohg 'a adolat shior, ulusi shiorida ham adolatdin osor. Agar shohg 'a zulmpesha – elida ham zulmidin andesha. Agar ul islomoyin, xalq shiori ham islom bila din. Agar ul kufrxisol – elga dog 'i kufr tariyqi af 'ol. Hukamo shohni debdurlar: daryoyi zaxxor va qavm-u xaylin daryo tegrasidag 'i anhor. Daryo suyg 'a ne kayfiyat va ne xosiyat, anhorg 'a ham ul xosiyat va kayfiyat. Ul achchig – bu achchig; ul chuchuk – bu chuchuk; ul tiyra – bu tiyra; ul suzuk – bu suzuk.

M a s n a v i y:

*Arig'larki, ul bahrdin ayrilur,
Biliklik alarning suyin ham bilur,
Chu birdur suv daryo bila nahr aro,
Emas ta'mida hojati mojaro.*

O' n b i r i n c h i f a s l

SHAYX UL-ISLOM ZIKRIDA

Shayx ul-islom musulmonlar peshvosidin iboratdур va islom muqtadosida ishoratdур. Mundoq kishi olime kerak islompanoh va orife kerak muqarrabi dargoh, xiradmandi shariatshior va faqrg'a xursand va tariqatosor. Yaxshi-yamong'a shafqati fayzi om va ulug'-kichikka irshodi naf'i molokalom. Komili shar' bo'lg'ay qonunig'a rosix va barcha mutbade'lar bid'atig'a nosix. Angakim, bu nav' bo'lg'ay oyini islom shayx ul-islom desa bo'lur vassalom.

B a y t:

*Mundin o'ldi muqarrabi Boriy,
Shayx ul-islom piri Ansoriy.*

O' n i k k i n c h i f a s l

QUZOT ZIKRIDA

Qozi islom binosig'a arkondur va musulmonlar xayr va sharrig'anofizi farmondur.

Ulumi diniyadin ko'ngli mulki ma'mur kerak va ya-qiniy farosatdin xotiri jamiyatni befutur. Mayli shaxsiy zamiri kishvaridin mutavoriy va mudohana tarrowi muloyamatidin sof ko'ngli oriy. Mahkamasi maxzani ulumu shar'iya va

hukm qilurida oshno-yu begona anga alas-saviya¹³. Ilm-u taqvosidin ko‘ngullarda shukuh va diqqat, farosatidin bediyonatlar ko‘nglida anduh. Ko‘ngli Kalomulloh ahkomidin qavyi va hukmida muqtado ahodisi mustafaviy.

Shar’iy hiylalar girihidin ko‘ngli ochuq, fuqaho tazvirlari tiyraligidin zamiri yoruq. Rishvaxo‘r muftilar – qoshida mankub va hiylakor vakillar – olida ma’yub.

Omiy qoziki may ichkay – o‘lturgulukdur va do‘zax o‘tiga yetmasdin burun kuydurgulukdur.

Qoziyi rishvaxo‘r – islom hisorig‘a raxnagar. Ulki rishvat berib qazo ola olg‘ay, rishvat olib ham shar’ni buza olg‘ay. Qoziy kerakkim, jodai shar’din qadam chiqarmag‘ay va siroti mustaqimdin tashqari bormag‘ay. Mustaqim xat har qayonkim, mayl qildi egri bo‘ldi. Soz toridekkim, e’tidoldin tajovuz qildi, tuzuki buzuldi. Ulki hukmi el moli va jo-nig‘a joriy bo‘lg‘ay, kerakkim, da’bi muqmir shiori bo‘lg‘ay. Ayog‘ikim, siroti mustaqimdin toyildi Vayl chohi tubin maqom qildi. Bu ishni o‘zi qilurmen degan bebok-u kozib, kozibi bebokka payg‘ambar shar‘i hokimlig‘ig‘a ne munosib.

Qit’a:

*Muxbiri sodiq shahekim qildi din-u shar’ni,
Bori adyon nosihi andoqki, mumkin erdi tuz.
Kozib ul yo ‘lni nechuk tuzgayki, bir kazzob ham,
Qildi ko‘p da ’vo, vale qo ‘ydi jahannam sori yuz.*

O‘n uchunchi fasl

MUFTIYI FAQIHLAR ZIKRIDA

Muftiyi faqihe kerak mutadayyin va olime kerak mo‘min, islom ilmida mohir va diyonat nuri jabinida zohir. Mayldin ko‘ngli bequsur va hiyladin zamiri befutur. Qalami

rivoyotda sodiq, raqami mujtahid so‘zi bila muvofiq; yo‘qki fosiqe bo‘lg‘ay mayxor va johile bo‘lg‘ay badkirdor va g‘addor. Bir dirham uchun yuz haqni nohaq etguvchi va oz karam uchun ko‘p «lo»ni «naam»¹⁴ bitguvchi. Bir sabat uzum uchun bir bog‘ni kuydurmakdin g‘ami yo‘q va bir botmon bug‘doy uchun xirmonni sovurmoqdin alami yo‘q. Muftiyki, hiyla bila fatvo tuzar, qalami no‘gi bila shariat yuzin buzar. Muzd uchun siym olibki, molig‘a qotar – dinini dunyog‘a sotar. Mundoq mufti odamiykush tabibdur, biriga islom qatli, biriga musulmonlar qatli nasibdur.

R u b o i y:

*Muftikim, ishiga muzd olib qilsa raqam,
Muzd ortuq esa, mayl kerak qilg‘ay kam,
Fatvoda chu bo‘ldi muzd uchun «lo»vu «naam».
Qilmoq kerak ul qalamzan ilgini qalam.*

O‘n to‘rtinchchi fasl

MUDARRISLAR ZIKRIDA

Mudarrisning, kerakki, g‘arazi mansab bo‘lmasa va bilmas ilmni ayturg‘a murtakib bo‘lmasa va xudnamolig‘ uchun dars havzasin tuzmasa va xudsitonlig‘ uchun takallum va g‘avg‘o ko‘rguzmasa. Jahldin dastori uluv va aloqasi uzun bo‘lmasa va mubohot uchun madrasa ayvoni boshi anga o‘run bo‘lmasa. Diniy ulum bilsa va yaqiniy masoil elga ta‘lim qilsa. Bebekliklardin haroson va nopliliklardin gurezon bo‘lsa, yo‘qki o‘zin olim bilgay necha majhulg‘a anvoi fisqni muboh, balki halol qilg‘ay, qilmas ishlarni qilmoq andin ma’lum bo‘lg‘ay va qilur ishlar tarki andin qoida va rusum

bo‘lg‘ay. Bu mudarris emasdurkim, muttade’dur va mun-daq kishi suhbati islom ahlidin mumtane’dur.

Olim kerakkim, muttaqiy bo‘lsa va ogoh va ayturi qola Alloh va qola Rasululloh.

Qit'a:

*Har ne aytur bo ‘lsa Xudovu Rasuldin
Andin so ‘ng o ‘lsa mujtahid-u avliyo so ‘zi.
Andin kishi ne kim eshitur va yoki o ‘rganur
Bo ‘lsa Xudo so ‘zi, yo ‘q esa, Mustafo so ‘zi.*

O‘n b e s h i n c h i f a s l

ATIBBO ZIKRIDA

Tabibg‘a o‘z fanida hazoqat kerak va bemorlar holi-g‘a shafqat va marhamat kerak. Va nafsi tibg‘a tab‘i muloyim va hukamo qavlig‘a payrav va mulozim. So‘zida rifq-u diljo‘yluq va o‘zida ozarm-u xushxo‘yluq.

Hoziq tabibki, shafqati bo‘lg‘ay – Iso Ruhullohg‘a¹⁵ nisbati bo‘lg‘ay. Iso ishi chiqqon jonne tang‘a kivurmak duo bila, munung tandin chiqadurg‘on jong‘a mone’ bo‘lmoq davo bila.

Mundoq tabibning yuzi mariz ko‘ngliga mahbubdur va so‘zi bemor jonig‘a marg‘ubdur. Dami alillarg‘a davo va qadami xastalarg‘a shifo. Xizri najot aning tal‘ati va obi hayot aning sharbati.

Agar fanida mohir bo‘lsa, ammo badxo‘y va beparvo va durushtgo‘y, marizga, agarchi, bir jonibdin iloj yet-kurur, ammo necha jonibdin tag‘yiri mijoz yetkurur va lekin omiy tabibkim, erur shogirdi jallod, ul tig‘ bila, bu zahr bila qilg‘uvchi bedod. Ul mundin yaxshiroqdur. Beishtibohkim, aning qatili gunahkordur va munung –

begunahki, hech gunahkor, anga zalil bo‘lmasun va hech begunah munga alil bo‘lmasun.

Bayt:

*Hoziq tabibi xushgo ‘y tan ranjig ‘a shifodur,
Omiy-u tund-u badxo ‘y el jonig ‘a balodur.*

O‘n oltinchi fasl

NAZM GULISTONINING XUSHNAG‘MA QUSHLARI ZIKRIDA

Ul necha tabaqadur: avvalg‘i jamoat – nuqudi kunuzi ma’rifati ilohiydin g‘aniylar va xalq ta’rifidin mustag‘niylardur. Ishlari maoniy xazoinidin ma’rifat javharin termak va el fayzi uchun vazn silkida nazm bermak. Nazm adosi bag‘oyat arjumand va benihoyat sharif va dilpisand o‘ldug‘i uchun oyoti kalomda nozil bor va hadisi mu’jizni-zomda tilagan topar, chun maal – qasd¹⁶ emas, el hurmati ji-hatidin ani she’r demas.

Ammo bu aziz qavmnинг peshvo va muqtadosi va bu shafif xaylning sardaftar va sarxayli valoyat bahrining gavhari va karomat avjining munir axtari Amir ul-mo‘minin Ali¹⁷ (raziallohu anhu va karramallohu vajhahu)¹⁸ durkim, nazm devonlari mavjuddur va anda asror va nukta noma’dud.

Bu mazhari ajoyibqa guruhekim tobe’dur, ba’zini arz qiloliki, kimlar voqe’dur; forsiy iboratda ul jumladin, nozimi javohiri asror Shayx Fariduddin Attordur¹⁹. Yana qoyili «Masnaviyi ma’naviy», g‘avvosi bahri yaqin Mavlono Jaloluddin, ya’ni Mavlaviy Rumiydurki²⁰, maqsadlari nazmdin asrori ilohiy adosi va ma’rifati nomutanohiy imlosidin o‘zga yo‘qtur.

Yana ham avliyoi ogoh va mashoyix va ahlulloh borkim, bularg‘a tatabbu’ qilibdurlar va bular kalomi adosin va haqoyiqi ma’nosin mustahsan bilibdurlar. Bu xayldur haqiqat tariqining suxanvari, balki kimiyyogari va kibriti ahmari.

Yana bir jamoatdurlarkim, haqiqat asrorig‘a majoz tariqin maxlut qilibdurlar va kalomlari bu uslubda marbut etibdurlar. Andoqki, maoniy ahlining nuktapardozi Shayx Muslihuddin Sa’diy Sheroziy²¹ va ishq ahli guruhining pokbozi va pokravi Amir Xusrav Dehlaviy²² va tasavvuf va diqqat mushkilotining girihkushoyi Shayx Zahiruddin Sanoiy²³ va faridi ahli yaqin Shayx Avhaduddin²⁴ va maoniy adosig‘a hofiz Shamsuddin Muhammad ul-Hofiz²⁵.

Yana jam’e bordurlarki, majoz tariqi adosi alar nazmig‘a g‘olib va alar bu shevaga ko‘prak rog‘ibdurlar. Andoqkim, Kamol Isfahoniy²⁶ va Xoqoniy Shervoniy²⁷ va Xojuyi Kirmoniy²⁸ va Mavlono Jaloluddin²⁹ va Xoja Kamol³⁰ va Anvariy³¹ va Zahir³², va Abdulvosi³³ va Asir³⁴ va Salmon Sovajiy³⁵ va Nosir Buxoriy³⁶ va Kotibiy Nishopuriy³⁷ va Shohiy Sabzavoriy³⁸.

Yana haqiqat va majoz tariyqida komil va ilmi ikkalasi tariqida vofiy va shomil, nazm ahlining muqtado va imomi hazrati shayxulislom Mavlono nur ul-millati va-d-din Abdurahmon al-Jomiy (navvarallohu marqadahu va quddisa sirrahu)³⁹ durkim, avvalg‘i tabaqa ravishi va kalomida ham sharifmaqol va so‘ngg‘i tabaqaning ham adosi latoyifida sohibkamoldurkim, olamda zavq-u hol ahli bular latoyifi bila masrurdurlar va bular maorifi bila huzur qilurlar.

Yana adno tabaqasi jamoatedurlarkim, nazm bila ko‘ngullar xushnud va xursand va rozi-yu bahramanddurlar. Va yuz mashaqqat bila bir baytkim bog‘lashturg‘aylar, da’vo ovozasin yetti falakdin oshurg‘aylar. So‘zlarida ne haqoyiq va maorif no‘shidin halovat va nazmlarida ne shavq va ishq o‘tidin harorat. Ne shoirona tarkiblari ahsan va ne oshiqona so‘z-u dardlari

shu'laafgan. Ba'zidin agar gohi birar yaxshi bayt voqe' bo'lur, ammo o'n oncha yamon da'vo zohir bo'lurki, u ham zoye' bo'lur.

Agar biri bir nozuk ma'nida pisandida pech qilur, ammo o'n oncha napisand da'vo bila ani ham hech qilur. Go'yo o'zlariga aqidada muvofiqdurlar va so'zlariga e'tiqodda muttafiq. Turfaroq bukim, har birining so'zida ma'no ozroq va o'zida da'vo ko'proq (nauzu billohi min shururi anfusino va min sayyioti a'molino)⁴⁰.

R u b o i y:

*A'lolaridur nedinki dersen a'lo,
Adnolari ham barcha danidin adno.
Avsatlarikim, hech nimaga yaramas,
Bilkim, nafas urmamoq alardin avlo.*

O 'n y e t t i n c h i f a s l

KOTIBLAR ZIKRIDA

Kotib shuaro so'zining varaqnigoridur va so'z maxzanining xazonadori. Xozin hunari amonat bo'lur va tasarrufi xiyonat bo'lur.

Aminki, xiyonatg'a mansub bo'lg'ay va o'z hunarida ma'yub bo'lg'ay, andoqning ilgi qat'i xo'b bo'lg'ay. Yaxshi xat va nuqtadin safhag'a jamol, andoqli, yaxshi yuz safhasig'a xattu xol. Xushnavis kotib so'zga oroyish berur va so'zlaguvchiga osoyish yetkurur. Roqimki, raqami rostdur, rostlar ko'ngliga qabuliyati bexost. Muharrirki, tahriri tuz – pisandidadur, agar bir bayt bitir, agar yuz. Agar xat surati noxushdur, ma'ni xayli andin mushavvashdur.

Xushnavis hamkim, sahvi ko‘p bo‘lg‘ay – ilgi falaj il-latig‘a jo‘b bo‘lg‘ay. Ulki, bejo nuqta bila «habib»ni «habis» qilg‘ay va «muhabbat»ni «mehnat» – aningdek habisi mehnatzadag‘a yuz la’nat. Yamon xatg‘a g‘alati behisob, qarriyi masxara soqolig‘a xizob. Ul xatni qirqib mabrazg‘a tashlag‘oli yaxshi va iyasini moliki do‘zax jahannamg‘a boshlag‘oli.

Mahbubdin maktubkim, ham xati xo‘b bo‘lg‘ay va ham mazmuni xo‘b – jong‘a uldur marg‘ub va ko‘ngulga uldur matlub. Xati yamon ham bo‘lsa yamon emas, muhib mahbub xatini yamon demas.

Yamon kotib manzili qalamdonidek choh aro bo‘lsun, qalamidek boshi yaro va yuzi qaro bo‘lsun.

B a y t:

*Qaysi bir kotibki, ul so‘zga qalam surgay xilof,
Ul qaro yuzluk boshi bo‘lsun qalam yanglig‘ shikof.*

O ‘ n s a k k i z i n c h i f a s l

DABIRISTON AHLI ZIKRIDA

Maktabdor begunoh ma’sumlarg‘a jafokor. Atfol azobig‘a roq‘ib va alar ta‘dibig‘a murtakib. Zoti bemadoro, dimog‘i po‘lod va ko‘ngli – xoro. G‘azabdin qoshida chin, gunahsizlar bila oyini xashu kin. Ko‘pragida tab’ g‘ilzati va tama’ illati padidor va aql qillatig‘a giriftor. Ammo tavsanı atfol ta‘bini jafo bila rom qilg‘uvchi va nohamvor sig‘or tavrig‘a siyosat bila andom berguvchi. Agarchi xo‘ylari durushtluqda namoyondur, ammo atfol nohamvorlig‘i islohig‘a irik suhondur.

Aning ishi odamdin kelmas, qaysi odamki, dev qila olmas, har qattig‘ kishini bir tifl muhofazati ojiz etar, ul bir surukka ilm va adab o‘rgatgay, ko‘rkim anga ne yetgay?

Oncha borkim, ul qavmning idrok-u fahmi oz tushar, andoq kishiga yuz muncha mashaqqat ne bushar. Har taqdir bila atfolg‘a haqqi ko‘pdur, agar podshohliqqa yetsa va anga qulluq qilsa xo‘bdur. Shogird agar shayx ul-islom, agar qozidur, agar andin ustod rozidur – Tangri rozidur.

B a y t:

*Haq yo ‘lida kim senga bir harf o ‘qutmisht ranj ila,
Aylamak bo ‘lmas ado oning haqin yuz gajn ila.*

O‘n t o‘q q u z u n c h i f a s l

IMOMLAR ZIKRIDA

Imomat qilg‘uvchi o‘z qiroatining sheftasidur va o‘z namozining fireftasidur. Kishilikdin xayolida tasavvurlar va yaxshilikdin zamirida takabburlar. O‘z namozin maqbul taxayyul qilg‘on jamoat namozi qabuliyatini ham takafful qilg‘on. Biyik qiroati mahzi ra’noliq va anoniyat jamoatdin ilgari chiqmag‘ay ayni rasvoliq va nafsoniyat xayoli xalqqa peshvoliq va tasavvuri elga muqtadoliq. Namozg‘a imomat komil imom ishidur va o‘zni munndoq tasavvur qilg‘on johil va notamom kishidur. Imomat munosibdur pirdin murid xaylig‘a tafhim uchun yo muallimdin suruki tifli norasidag‘a ta’lim uchun yo olimdin juhholg‘a shafqat uchun. Yo komildin tavobe’ va iyolg‘a tarbiyat uchun. Odobi ibodat talqinig‘a kamohi va ta’limi shariat oyinig‘a nokohi nokomin din munosibdur, zaruratdin tajviz qilsa bo‘lur. Ammo vazifa va ulufa yemak va o‘zin muqtado va imom demak odamiy ishi emas. Va andoq kishini odamiylar kishi demas.

Q i t' a:

*Valoyat ahliga⁴¹ jam'i malomatig 'a boq
Ki, xalq ko 'zidin aylar namozini yashurun.*

*Bu turfaroqki, namozida mu'jibi nodon,
Tutar imomat uchun xayl qiblasida o'run.*

Y i g i r m a n c h i f a s l

MUQRIYLAR ZIKRIDA

Muazzineki, Haq ibodatig 'a nido qilg 'ay, jon anga fido, agar yaxshi savt bila ado qilg 'ay. Agar poklik va niyoz bu ishga mulhaqdur, omu xos ko 'ngliga maqbuli mutlaqdur. Bu nido yomonlarni fisq kunjidin masjid sori boshqarur, andoqki, fusungar yilonni tarona bila tushukdin chiqarur. Agar muqriy lavanddur, bad ovoz-u kulg 'undidur, lahni no-soz, badani vuzu' qaydidin nopok va hushi vaqt rioyeridin bebok. Ruhi toat zavqidin bexabar va uni savt ul-hamirdin ankar. Man va nahya tufrog 'in og 'zig 'a urmoq avlo, balki toq yo minordin uchurmoq avlo.

R u b o i y:

*Muqriyki, erur pokro ' va zohidvash,
Alhonni xush va husni adosi dilkash.
Jon anga fidoki, ruh etar andin g 'ash,
Gar bo 'lsa munung aksi nafas urmasa xush.*

Y i g i r m a b i r i n c h i f a s l

HUFFOZ ZIKRIDA

Hofizg‘aki, yaxshi mahzaj va ado bila tilovat bo‘lg‘ay, mustame’larning ruhiga andin osoyish va jonig‘a halovat bo‘lg‘ay. Agar husni savt bularg‘a yordur, eshitkuvchi sohibhol bo‘lsa, ishi dushvordur. Agar badlahja bo‘lsa va bad ado, surma aning g‘izosi qilsin Xudo. Agar fosiqdur, badmaosh surma ham hayfdur, bo‘g‘zig‘a munosibdur tosh. Agar bovujudi bu hollar bila ko‘p o‘qug‘ay umid ulkim, og‘zi sadaf og‘zidek va tili savsan tilidek qurug‘ay.

B a y t:

*Yo Rabki, hech bazmda ul nag‘ma qilmag‘ay,
Og‘zi g‘izodin o‘zga nimaga ochilmag‘ay.*

Y i g i r m a i k k i n c h i f a s l

MUTRIB VA MUG‘ANNIYLAR ZIKRIDA

Mutribi tarabafzo, mug‘anniyi g‘amzudo – ikkalasiga dard-u hol ahli jon qilurlar fido.

Ulki ko‘rguzgay muloyim tarona-u nag‘am, agar eshit-guvchining hayoti naqdi anga fido bo‘lsa ne g‘am. Ko‘ngul quvvati – xushnavozdin, ruh quti – xushovozdin. Xushxon mug‘anniydin dard ahlining o‘ti tezdur, agar malohati bo‘lsa, hol ahlig‘a rustoxezdur. Har mug‘anniyki, dardman-donaroq nag‘ma chekar, aning nag‘masi zaxmliq yurakka korgarroq tegar. Otashin yuzluk mug‘anniyki, halqidin muloyim surud chiqorg‘ay, hol ahlining kuygan bag‘ridin dud chiqorg‘ay. Muloyim mutribki, tab’ va fahm anga yor

bo‘lg‘ay, odami ko‘ngli toshdin bo‘lsa anga zor bo‘lg‘ay, xususanki, ham aytg‘ay va cholg‘ay, ko‘ngul mulkiga ne qo‘zg‘olonlarki solg‘ay.

Suluk ahlig‘a bir maxuf yer bu manzildurkim, anda ham nuqson-u ham kamol hosildur. Solik bu yerda bir muhlik oh bila ham maqsudg‘a yetubdur va bir na’ra’i jonkoh bila yillar qozg‘ong‘oni ham ilgidin ketibdur.

Shibliy⁴² va Nuriy⁴³ (quddissa sirrihum) ⁴⁴ samo’da kettilar va bu yo‘l suluki bila maqsud sarmanzilig‘a yettilar. Baso ahlullohki, arg‘anun unidin dayrg‘a kirdi va din va islom naqdin mug‘bachalarg‘a boy berdi.

Mayxonada kimki maydin ibo qilg‘ay, nay uni bir dilkash navo bila ani rasvo qilg‘ay. Agar kishi may havosin boshidin chiqorur, g‘ijjak maddi nay nolasi bila yolborur. Va tanbur pardadag‘i fitnadin halok etar va ofiyat pardasin chok etar va chang zorlig‘ bila bo‘g‘zin tortar va ud lisoni nag‘masining targ‘ibi changidin ham ortar. Andakim rubob boshin yerga qo‘yub niyoz ko‘rguzgay va qo‘buz qulqututub ayshg‘a targ‘ib ohangni tuzg‘ay. Chun qonun va chag‘ona nolasi qulqutta tushgay va mahvash soqiy yukanub, may ayoqiqg‘a tushgay, ul vaqt zuhd-u taqvog‘a ne e’tibor va hush-u xiradg‘a ne ixtiyor. Agarchi ishq faqr ahlini rasvo qilurda bulardin farog‘dur va lekin ul o‘tni yoruturg‘a nay damidin yel-u maydin yog‘dur. Arab tevasi «hudiy»⁴⁵ lahni bila bodiya qat’ida tez bo‘lur, bulut buxtisi ra’d sadosidin soiqaangiz. Insong‘a mahzi g‘alat xayoldur va odamiyg‘a bu ofatdin qurtulmoqliq maholdur.

Ammo bu toifaning soyiri ham agarchi taraboyin va mehnatzadadurlar va lekin filhaqiqat, laimsiyrat va gadodurlar. Aytquvchi va cholg‘uvchi zorlig‘ va iynalmak bila olg‘uvchi. To buyurg‘uvchida sila va in‘om bor, alar mulozimdurlar va xizmatkor. To suhbatda ne’mat ko‘p, alarga barcha amr-u nahying jo‘b. Chun bazmda tana’um oz bo‘ldi, alar ishi istig‘no-u

noz bo‘ldi. Ne’mat degan nimaki tamom yo‘q bo‘ldi, alarning ko‘ngli sendin tamom to‘q bo‘ldi. Agar yillar bahra olibdurlar ehsoningdin, oshnolig‘ bermay o‘tarlar yoningdin. Oz olsalar nosipos, ko‘p olsalar haqnoshunos. Aksari fosiq va badxo‘y va qolg‘oni kajtab‘u durushtgo‘y. Harakotlari tuzuksiz so‘zlaridek va kalimotlari hashv va mahalsiz nozlaridek. Vafo alar tab‘idin maslub, vafo ahli alar ollida mardud va mankub. Mug‘anniy vafosiz, kungir hayosiz. Agar yillar rioyat qilibsen va hamxonadur, bir qatlaki nima bermadning – begonadur.

Er suratida shohidedur tannoz va muloyim kisvati-da mufsidedur xonabarandoz. Xavosqa dilfirebedur savti⁴⁶ nag‘am⁴⁷ bila, avomg‘a rohzanedur tabl-u alam bila.

N a z m:

*Kishiga bo ‘lmasun bu fitna duchor
Ki, unidin najoti tayri uchor.
Yonsa qo ‘nmoqqa tabl urar har dam,
Kim o ‘shul qushqa ko ‘prak o ‘lg ‘ay ram.*

Y i g i r m a u c h u n c h i f a s l

QISSASOZ VA QISSAXONLAR ZIKRIDA

Qissasoz – bekor va qissaxon – harzaguftor; har kim ma’junnok yo bangi, ko‘nglida aning ma’rakasi ohangi. Bi-yik un bila ovuch qoqmog‘i har dam, xirad va ozarm qushlari topmoq uchun ram. Harakotidin zohir telbalar atvori va kalimotidin bohir usruklar shiori. Teva qumalog‘in sotarda qand deguvchi, ma’rakasidag‘i mu’taqidlari ani sotqun olib yeguvchi.

B a y t:

*Kishikim bo 'lmaq 'ay ma 'jun-u qandining xaridori,
Oning hangomasi birla tuzalmas hech bozori.*

Y i g i r m a t o ' r t u n c h i f a s l

NASIHAT AHLI VA VOIZLAR ZIKRIDA

Voiz kerakki, «qolalloh»⁴⁸ so‘z aytsa va «qola rasululloh»⁴⁹ muxolafatidin qaytsa, Xudo va rasul yo‘lig‘a qadam ursa. O‘zi kirgondin so‘ngra nasihat bila elni ham kivursa. Yurumagon yo‘lga elni boshqarmoq – musofirni yo‘ldin chiqormoqdur va biyobong‘a keturmak va bodiyada iturmakdur. Usrukki, elga buyurg‘ay xushyorliq – uyquvchidekdurki, elga buyurg‘ay bedorliq. Uyqusida so‘z degan jevligon bo‘lur va degondek qilmoq ne degon bo‘lur.

Va‘z bir murshid va ogoh ishidur va bir komil ahlulloh varzishidur va aning nasihatini qabul etgan maqbul kishidur. Avval bir yo‘lni bormoq kerak, andin so‘ngra elni boshqarmoq kerak. Yo‘lni yurmay kirgan itar va g‘ayri maqsud yerga yetar.

Voiz uldurki, majlisig‘a xoli kirgan to‘lg‘ay va to‘la kirgan xoli bo‘lg‘ay. Voizkim, bo‘lg‘ay olim va muttaqiy – aning nasihatidin chiqqan shaqiy. Ulki, buyurub o‘zi qilmag‘ay, hech kimga foyda va asar aning so‘zi qilmag‘ay. Nazoirxon bila surgvuchi maqol – dastyor bila yirlag‘uvchi qavvol.

Q i t’ a:

*Voizki, dastyorsiz o 'lmas suxanguzor,
Anga yorod-u⁵⁰ munga ayolg‘uchi⁵¹ hukmi bor.
Tengri so 'zin ayolg‘uchi bo 'lmay dey olmag‘ay,
Bir soz bo 'lsa ham kerak ul qilg‘ay ixtiyor.*

Y i g i r m a b e s h i n c h i f a s l

AHLI NUJUM ZIKRIDA

Munajjimki, savobit va sayyor nazarotidin hukm surar, rammoldekdurki, nuqtalari hisobi bila lof urar. Ziji⁵² – hech va tafhim va tavqimi – g‘alat taqsim; va usturlobi vojib ul-ijtinob⁵³ va rif‘at ul-qamari⁵⁴ befoyda va besamar. G‘ofiledur bu asbob bila hangoma tutg‘on va Haq taolo qazo va taqdiri so‘zin unutqon. O‘z ilgida bir anor bo‘lsa bilmaski, necha parda va necha xonasi bor va har parda va har xonasida necha donasi bor va ul dona achchig‘mudur yo zumuxtvash yo chuchukmudur va yo mayxush; borlar ani kesib yebdur va xosiyat va kayfiyatini bilib, elga ham sharh bila debdur.

Falaki mudavvar va nujum va burjidin afsona der va alarning sa’d va nahsi hukmin surub tarona der. Bovujudi ulki, o‘n so‘zidin ittifoqe biri ham rost kelmas, munung qabohatin yo bilmas va yo bilib ko‘ziga ilmas. «Kazib al-munajjimun»⁵⁵ mazmuni bila aning so‘zi yolg‘ondur va o‘zi rostlig‘ kishvaridin yiroq qolg‘ondur va basirat ko‘ziga g‘aflat pardasin solg‘ondur.

B a y t:

*Emas aflok-u anjum holi benaf‘-u zarar, lekin
Ani Tengri bilur, ermas munajjim bilmagi mumkin.*

Y i g i r m a o l t i n c h i f a s l

TIJORAT AHLI ZIKRIDA

Tujjori sayohatshior aqolim va buldon holidin xabardor, ajoyibdin afsonaguzor va g‘aroyibdin nodiraguftor.

Jibol toshi va dasht qumig‘a noqa surgan, bihor amvoji

talotumidin naf' va zarar ko'rgan. Halol ro'zi kasbiga masofatlar qat' etgan, jamiyati zohir tilabu botin parishonlig'lari anga yetgan.

Biri yuz bo'lurdin boshida ming savdo, bo'zi katon bo'lurdin ko'nglida necha tamanno. Mundoq kishining maqsudi tamom asig' bo'lmasa va bu asig' husuli uchun ranji qatig' bo'lmasa, savdo uchun tengizga kema surmasa, dur uchun nahang komig'a qadam urmasa, mol va diramni azamatig'a sabab qilmasa, xadam va hashamni hashamatig'a jihat bilmasa, nafis ajnosni⁵⁶ ayab chopon kiymasa, laziz ag'ziyani isirkab qurug' non yemasa, ranji maosh suhulati uchun bo'lsa bo'lmasa va sudi ko'ngul farog'ati uchun bo'lsa, safardin azizlar suhbatig'a yetmak murodi bo'lsa va rioyeratidin nomurodlari ishi kushodi bo'lsa, shar'iy zakot bo'ynida qolmasa, fuqaro haqin o'z bo'ynig'a olmasa, yo'qli, molin aziz asrab, o'zini xor etgay va o'z molin tamg'odin o'g'urlab o'ziga mazallat yetgay, yo vorissipor uchun yig'ing'ay, yo hodisa qo'zg'ar uchun qozg'ong'ay. Mundoq kishi xoja emas, muzdurdur va o'z laim va razil-lig'idin hamisha ranjurdur.

B a y t:

*Mundoq kishida yo'q xirad va hushdin nishon,
Bilgil gado, agarchi erur Xojai Jahon.*

Y i g i r m a y e t t i n c h i f a s l

SHAHARDA OLIB SOTQUVCHILAR ZIKRIDA

Shahr savdogari g'adrkesh o'ziga sud va musulmonlар'a qahtandesh. Elga ziyon aning sudi, o'ngoy olib og'ir sotmoq aning maqsudi. Olurda katonni bo'z deb, sotarda

bo‘z vasfida katondin ortug‘ yuz so‘z deb. Sholni to‘rqa o‘rnig‘a o‘tkara olur bo‘lsa, ta’xir yo‘q, bo‘ryoni zarbaft yerida sota olur bo‘lsa, taqsir yo‘q. Do‘konida barcha mato’ mavjud, g‘ayri insof. Noinsofliq‘idin barcha jins hosil g‘ayri taqsirg‘a e’tirof. Tojiri musofir ul kadbonug‘a hamzonu, balki ani cherikchi desa bo‘lur, muni kadbonu. Anga sud – olg‘uvchig‘a nuqsoni mol, ikki jonibdin yolg‘on ont ichguvchi dalol.

B a y t:

*Bu xayl odam emaslar, yaxshi boq san,
Erur suding alardin gar yiroqsan.*

Y i g i r m a s a k k i z i n c h i f a s l

BOZOR KOSIBLARI ZIKRIDA

Bozorda savdogar kosib – Tengrig‘a xoin va va’dag‘a kozib. Birga arzirin yuzga sotmoqdin alarg‘a ming mubohot, mingga tegarni yuzga olmoqdin alarg‘a yo‘q bir zarra uyot. Rostliq bila savdo alarg‘a ziyonkorlik va va’dag‘a vafo alarg‘a badkirdorliq. Oxirat ilmi savdosidin e’rozlari va amal mezoniadolatig‘a e’tirozlari. O‘g‘ul atog‘a boziy bermak peshalari, dag‘aliliklarin kirom ul-kotibayndin⁵⁷ yoshurmoq andeshalari.

B a y t:

*Bulardin kimki der o‘zni valiydur,
Agar bilsang yaqin, bir dog ‘ulidur.*

Yigirma to‘qquzinchি fasl

SOYIR HUNARVAR VA SAN’ATPARDOZ ZIKRIDA

Hunarvar va san’atpardozi yolg‘onlari ko‘pdin – ko‘p-u chinlari ozdin – oz. Ishlarida dag‘allik maqdur va haddidin nari, va’dalarida xilof xayol va gumondin tashqari. Chin so‘zkim, erga ulug‘ hunardur, alar qoshida aybi tamom, yalg‘onki, xaloyiqqa ulug‘ aybdur, alar olida hunari molokalom.

M a s n a v i y:

*Tongdin oqshomg‘a ishda san’atsoz,
Hunar atvorida fusunpardoz,
Aylabon bu tariyqni varzish
Ki, birovga yugurtgaylar ish,
Gar muaddiy g‘aniy, yo‘q ersa faqir,
Anga bozi berurda yo‘q taqsir.*

O‘ttuzinchি fasl

SHAHNA VA ZINDONIYLAR VA ASASLAR ZIKRIDA

Dorug‘a va shahna va asas o‘g‘ri va xuniyg‘a mu-mid va faryodras. Zindon ahli – do‘zax ahli va asaslar maloyikayi azob, shahna moliki do‘zaxdek hukmron va olivjanob. Gunoh ahli tavq-u zanjirg‘a giriftor, bu zanjir-u tavqlari salosil va ag‘oldin namudor. Kissabur bila muqammir asaslaridin bozor va qimorxonag‘a musta’jir. Zindon chohidin o‘g‘rilar ko‘ngli tiyraligi ma’lum, jurm ahlig‘a anda parishon ko‘ngulda xavotir-dek hujum. Gunahkorg‘a anda umiddin biym ko‘prak va badkirdorg‘a anda inoddin taslim ko‘prak. Har qatlakim, birovni tortib chiqorg‘aylar, anda qolg‘onlar o‘zlaridin borg‘aylar.

Qaytib kelganlarning naqllari muvahhish va xabar kel-turganlarning mojarolari mushavvish.

Biri debki: Dorg'a chekarda yaxshi turdi va biri debki: Bo'ynin choparda yaxshi o'lturdi. Biri maqtulning yigitligidin tahassurda, biri yatimning ruboiy o'qug'onidin tahayyurda. Bu nav'sa'b hol behaddur va mundoq g'arib ahvol beadaddur.

Amal hirsi chog'i asas mujrimming tutulmog'ig'a so'iy, ammo o'z matlubini hosil qilg'onidin so'ngra qutulmog'ig'a doiy. Dunyoda bu manzil qiyomatkirdor va mahsharda do'zax-din namudor. Band-u zanjirliq gunahkorlar shahar zindonida, andoqli, ishq muqayyadlari baytul-ahzonida. Tengri barchani bu yerga kelturur af'oldin yiroq tutsun va manzilg'a tushurur ahvoldin qiroq.

B a y t:

*Bir manzil erur anda base ranj-u uqubat.
Tushgan kishiga anda o'kush dard-u suubat.
Vale ul haram ichra bo 'lg'ong'a xos,
Umid ulki ham Tengri bergay xalos.*

O 'ttuz birinchি fasl

DEHQONLIK ZIKRIDA

Dehqonki, dona sochar, yerni yormoq bila rizq yo'lin ochar. Agar rostliq va salohi bordur, o'yi Solih noqasidin namudordur. Qo'shi ham ikki zo'r pahlavon, yukiga bo'yun sunub olida ravon; ish qilurda hamdam va hamqadam, dehqon alarni suradi andoqli Odam⁵⁸. Olam ma'murlig'i alardin, olam ahli masrurlig'i alardin. Har qayon qilsalar harakat, elga ham qut yetkurur, ham barakat.

Dehqonki, tuzluk bila dona sochar, Haq biriga yetti yuz eshigin ochar. Sochqon dona ko'karguncha, o'rub xirmon

qilib, mahsulin ko‘targuncha qurt-u qush andin bahramand va dasht vahshilari aning bila xursand. Mo‘rlar uyi andin obod va go‘rlar xotiri aning bila shod. Kabutarlarg‘a andin mastliq, to‘rg‘aylarga andin nishotg‘a hamdastliq. O‘roqchig‘a andin ro‘zi, boshqchingning yorub andin ko‘zi.

Barzagarg‘a andin kom hosil, pushtakashg‘a andin murod vosil. Gado andin to‘q, kadxudo to‘qlug‘i ham andin-o‘q. Musofirg‘a andin taom, mujovirg‘a andin kom. Et-makchi tanuri andin qiziq, allof bozori andin issiq. Fuqaro rizqi andin yofiy, g‘urabo quti andin kofiy. Zohidg‘a andin huzuri toat, obidg‘a andin lofi qanoat. Soyil xaritasida andin muhayyo aqtoyi, shoh xizonasida andin bahr-u kon matoyi.

Dehqonning bir dona socharida bu holdur, o‘zga ishlari ta’rifi maholdur.

Bog‘i jannatdin namudor, polizida ruh quti padidor. Ashjorining har biri charxi axzar, ul shajar va rayohin va favokih nujum va axtar. Fuqaro sirka va dushobi andin, ag‘niyo nuqlu mayi nobi andin.

Gunogun favokih bilakim bog‘da tazyin, chaman mulkida bog‘lanib ta’biya va oyin.

Mundoq kishi kerakki, buxldin muarro bo‘lsa va kizb-u imsoqdin mubarro. Shoh molin berurdin ibo qilmasa va zabun sharikka jafo qilmasa, to donasi durri saodat bar bergay va tuxm sochib, anjumi uluvvi rif‘at tergay. Mundoq dehqon Odamning farzandi xalafidur, balki marzuqlar anga farzand va ul Odami safiydur.

Q i t’ a:

*Kimki dehqonlig‘ ayladi pesha,
Dag‘i non bermak o‘ldi anga shior.
Bo‘yla kimsa uluvvi rif‘atdin,
Odam o‘lmasa, odamiy xud bor.*

O‘ttuz ikkinchi fasl

YATIM VA LAIMLAR ZIKRIDA

Avbosh bila arzol musulmonlardek alarg‘a ne maosh va ne xisol. Insoniyat tab’laridin oriy, hayvoniyat balki sabuiyat alarning shiori. Yatimki pichoq urmoq aning ishi bo‘lg‘ay, o‘zi telba it, pichoq aning tishi bo‘lg‘ay. Sog‘lig‘ida qutuz it va usrukligida andin qochib yuz it. Panjalari nishi ajal qullobi, nechukkim dasht siboi, o‘lturur kun uchun iymon duosidek o‘rganib ruboiy. Yaxshi-yamon so‘kunj yetkurub, aqrabdekk har nechaki yetsa nish urub. Ne aql alarda ne din, ne hayo alarda va ne tamkin. Ishlari noe‘timodlig‘ va nopoklik, varzishlari bemuruvvatlig‘ va beboklik. Shahrning soir arzoli hasharot ul-arz, xaloyiqg‘a alardin ehtiroy vojib, balki farz.

B a y t:

*Xaloyiqqa iyzo alarg‘a sifot,
Nabiy dedikim: «Uqtul ul-mu‘ziyot»⁵⁹.*

O‘ttuz uchunchi fasl

G‘ARIB VA BENAVALAR ZIKRIDA

Jut va lo‘lining ko‘pragi muzhik harakoti va tuz usuli. Muallaq urmoqlarida xoksorlig‘ oshkor, sarnigun turmog‘-larida bee‘tiborlig‘ padidor. Anoniyatlari yuziga tezak solib chamanvar va insoniyatlig‘lari doirasi maymunlarig‘a chanbar. Kishilikdin sekrimoqlar bila qochib, yaxshilig‘din masxaralig‘lar bila malomat eshigin yuzlariga ochib. Bukun topqonni yeb, tongla g‘amin yemay, tilab nima bermagan-din shikoyatdin o‘zga so‘z demay. Vatan va maskanlari xorlig‘ vayronasi, manzil va ma‘manlari xoksorlig‘ kosh-

nasi. Tong otqoch er va xotuni kasb uchun tarqashib, o‘g‘ul va qizlari ko‘y va ko‘chada butrashib. Har qaysi har nekim hosil qilib, oqshom barcha bir yerga yig‘ilib, topqonlarin tugatmaguncha uyqu mayli qilmay, tongla ne yegumizdur demak so‘zin bilmay. Tongla ishlari o‘tgan burung‘i kun ishi, bu ham bir ishdur agar qila olsa kishi. Bu razolat kishilik takabburidin xo‘broq va bu zalolat yaxshiliq tasavvuridin marg‘ubroq.

B a y t:

*Kishi agar kishi o‘lsa, o‘zin kishi demagay,
Qilurda hech ishini ham kishi ishi demagay.*

O‘ttuz to‘rtinch i fasl

MUBRIM GADOLAR ZIKRIDA

Tilanchi va gado ko‘pragi beg‘ayrat va behayo. Kunduz kezmaklari ibrom bila eldin nima olmoq uchun, kecha kelib o‘g‘urlarg‘a el jihotig‘a ko‘z solmoq uchun. Ne ne’mat olib mun’imdin shokir, ne in’om topib mukrim uzrig‘a tillari zokir. Yemak bila ju’ ahlidek me’dalarig‘a to‘lmoq yo‘q, tilamak bila mustasqiydek suvdin serob bo‘lmoq yo‘q. Kad-u va kachkuli maml-u bangilar xotiridek mutanavvi’ xayolotidin. Xaritasi to‘la riyoiy sufiyalar zamiridek mutalavvin xavotir holotidin. Har diramki tugub, g‘assoldin o‘zga kishi ochmoq mahol, har siymkim yerga ko‘mub, tufrog‘din o‘zga birov ani yemakka yo‘q ehtimol.

Ko‘zlari hirsning «sod»ⁱ⁶⁰ va tama’ning «ayn»ⁱ⁶¹ va bu hirs va tama’din jon-u ko‘ngullarida mahrumluq shayni. Bular orasida o‘ziga qalandar ot qo‘yg‘on mal’un, odamiylig‘din mag‘bun va dev va shayton ollida mat’un. Insoni-

yat va musulmonliqdin yiroq, to‘nguz va ayig‘ odamiy-
lig‘da alardin yaxshiroq. Shakl tag‘yiri bila odamiyliq‘din
karona, po‘stun evura kiymaklari hayvonlig‘ va sabuiyatdin
nishona. Ulug‘-kichikdin har turlukda gadoyi muvahhish,
fosid xavotiridek sofiy ko‘ngulga mushavvish.

N a z m:

*Bermak bo ‘lmas alarg‘a inson hukmi,
Yo odam-u mo ‘min-u musulmon hukmi.
Fosid axlotig‘ aki vojibdur daf’.
Bo ‘lg‘aymu kishi beray desa jon hukmi.*

O‘ttuz beshinchil fasl

QUSHCHI VA SAYYOD ZIKRIDA

Qushchi sayyodlarga muqtado va hukmron va bu ja-
moat anga raiyyat va ma’muri farmonkim, ilgida qush ke-
cha-kunduz ranj va mashaqqatg‘a tush. Kecha uyqusi harom
va emgakdin yo‘q anga orom. Nafsi hazzi uchun bir gunah-
siz ayog‘iga solib band va uzun tunlar aning azobi bila xur-
sand. Amal rishtasin tama‘ ignasiga chekib, ul bezabonning
ko‘rar ko‘zin ham tikib. Maqsudi ani sayyod qilmoq va o‘zga
jonlig‘lar qasdig‘a jallod qilmoq. Kunduz dasht-u vodiy-
g‘a chopib, bir necha zabun g‘ofl topib, yuz makr-u hiy-
la bila qushin alarg‘a solib va ul solg‘oni ul mazlumni olib.
Oldurg‘ondin so‘ngra ul sayd boshi ustida tutib o‘run, qoni
to‘lg‘on zabunni bismil qilmasdin burun, ne deyki qano-
tin suvirib, qo‘ltig‘inm-u yoradur va o‘zi ul qotil shogir-
din shaaf bila to‘yg‘oradur. Necha mundoqningkim, qonin
to‘kti va qo‘ltug‘in yorib, qanotin so‘kti. Fitrokiga bog‘lab
uyiga yondi, o‘zi va qushi qilg‘onlarg‘a quvondi. Shum

nafs hazzig‘a bir-ikki ayog‘larig‘a irtikob qilg‘ay va uyi-da shirolg‘asin kabob qilg‘ay. Ba’ziniki, tongla begiga eltid tortqay, aning iltifotidin ko‘ngliga juldu tama’ ortg‘ay.

Qush ta’rifida degani barcha lof, o‘z tahsinida so‘zlagani bori gazof. Muncha mazmun amrig‘a bois nafs komi, xoh emgagi, xoh tamoshosi, xoh kabobi, xoh bek in’omi.

M a s n a v i y:

*Bular boisi barcha nafsoniyat
Ki, anda emas doxil insoniyat.
Qo ‘nolg‘a olib qayda qo ‘nsa diram,
Ot arpasi ham, qushig‘a tu ‘ma ham.*

O‘ttuz oltinchı fasıl

TARBIYAT TOPIB, HAROMNAMAKLIK QILG‘ON NAVKARLAR ZIKRIDA

Navkarki, valine’matidin riyorat ko‘rgay va bek va maxdumidin tarbiyat va inoyat ko‘rgay, erlik va insoniyat uldurkim, muqobalasida qulluq va xidmatkorlik, balki yakjihatliq va jonsiporliq qilg‘ay va tilagaykim, anga jon fido etgay to shafqati huquqin ado etgay. Hamiyat ul emaski, maxdum yana birovga ko‘prak multafit bo‘lg‘onidin shikoyat izhor qilg‘ay va gilamandlig‘ go‘ft-u guzori, to ish anga yetgaykim, ne’mat kufroni arog‘a tushgay va haqnoshinosliq tug‘yoni mojarog‘a surushgay va bu odamiyiszliq qochmoqqa munjar bo‘lg‘ay va aduv eshigiga borurg‘a muqarrar bo‘lg‘ay. O‘zin birovga qul deb sotqon dodaktur, balki dodakdin yuz qatla kamrakdurdur. Bataxsiski, mufrit tarbiyat ko‘rmish bo‘lg‘ay va muqobalada beandom loflar urmish bo‘lg‘ay. Erki, bir yerdin yana bir yerga qoch-

qay, nomardliq tufrog‘in yigitlik boshig‘a sochqay. Chun mundoq kishi erlik sonidin naridur va yigitlik doirasidin tashqaridur. Hokimekim, kiyosati bor, aning qoshida mundoq kishiga qachon eranlar siyosati bor. Eranlardin mardona gunoh vujudqa kelsa, bo‘ynig‘a yuklangandin so‘ng bo‘ynin urarlar, qizil yuzluk qilur uchun bo‘ynig‘a tig‘ surrarlar. Ammo aning so‘rxro‘lug‘ig‘a gulguna sazovordur va yuz oqlig‘ig‘a munosib sapida bordurkim, qari muxannas mabhut va aning xolazodasi kaftori fartut shirkat bila mashshotaliq tuzgaylar va bu kelin zeb-u ziynatida sehrlar ko‘rguzgaylor va qoshin olib, vusmag‘a shoyista qilg‘aylar, ammo vusmalarini payvasta qilg‘aylar. Saqolin qirqib, ikki quloq tuzig‘a zulflar oshuftahol qo‘yg‘aylar. Ammo ikki uzori tarafidin chap va rost ikki xol qo‘yg‘aylar. Oriyati dastorin boshig‘a burunjak qilg‘aylarki, arusi masturadur va gardizi nomasturdur kashidalig‘ yog‘liq farfig‘a lachak solg‘aylarki, javoni muxaddara va hulla nozukligi nomaqdurdur. Bu nav’ orasta qilg‘ondin so‘ngra chanbarshoh yo‘rg‘a o‘yga teskari mindurgaylor va shahrning ko‘y va mahallotig‘a kezdurgaylor va nazzoragar el ta’n-u tashni’ bilakim, «chor dong sipohgari gov mish toxtan ast»,⁶² – deb faryod qilg‘aylar. Va agar yuz qarolig‘idin uyot va qaro tillik bo‘lurdin hijob bo‘lmasa anga munosib hariflar mastur va anga muvofiq oshiqlar mazkur bo‘lgay erdi va aysh-u nishot bazmi qurulg‘ay erdi. Ammo andoq siyohro‘yning tafzihи ul nav’ qaro yuzlukning taqbibi har nechakim olam ahliga multamas bo‘lg‘usidir muncha-o‘q bas bo‘lg‘usidir.

B a y t:

*Bu nav’ masxaraliq elga bas durur hayrat
Ki, o ‘lg‘ay eshitibon kimga bor esa g ‘ayrat.*

KADXUDOLIG‘ SIFATI VA XOTUNLAR ZIKRIDA

Kadxudoliq, qutula olmas balog‘a mubtaloliq. Davosiz ranjg‘a xor-u zor bo‘lmoq va ilojsiz emgakka giriftor bo‘lmoq. Agarchi bu shu boshdin-ayoq alam va ozordur, ammo aning kayfiyatida tavofutlar bordur. Muvofig tushsa kadbonu, davlat va jamiyatg‘a bo‘lmoqdurur hamzonu. Uyning oroyishi andin va uylukning osoyishi andin.

Jamoli bo‘lsa ko‘ngilga marg‘ub va salohi bo‘lsa jong‘a matlub. Oqila bo‘lsa, ro‘zgorg‘a andin intizom va maosh asbobic‘a andin tartib va saranjom.

Bu nav’ juft kishiga qovushsa, balki mundoq komgorliq ilikka tushsa, nihoniy g‘am-u mehnatda hamroz va hamdamming bo‘lg‘ay va maxfiy va pinhon dard-u mashaqqatg‘a damsoz va mahramming bo‘lg‘ay. Ro‘zgordin har jafo yetsa, anising ul va charxi davvordin har ibtilo kelsa, jalising ul. Ko‘nglung g‘amidin ul g‘amnok va badaning za‘f malolatidin ul halok.

Agar husn-u jamoli o‘rta chog‘lig‘dur va muvofaqati rishtasi muxolifatqa bog‘luqdur, xavf-u rajo bila tirilmakdur va hikmat va mador bila maoshini bilmakdur. Kadxudoning ba’zi mushkili bo‘lsa osondur. Ammo ko‘prak holida ko‘ngul harosondur. Bu nav’ ne ham nofarjomliq va nokomliq bila tahammul qilg‘ay va har nechuk bo‘lsa o‘tkarilg‘ay. Ammo, nauzu billoh, nosoz juft evga muhlik marazdur oshkor va nuhuft. Salita bo‘lsa, ko‘ngul andin ranja va qabiha bo‘lsa – ruhga andin shikanja. Yamon tillik bo‘lsa, abushqa ko‘ngli andin yarolig‘, yamon ishlik bo‘lsa – erga andin yuzqaroliq. Mayxo‘ra bo‘lsa – uydin obodliq bartaraf, badkora bo‘lsa – uy andin baytul-lataf.

Ulki avval mazkur bo‘ldi va yuqoriroq mastur bo‘ldi, ro‘zgor anosidin yuz yilda bir tug‘mas va yuz mingdin bir

yo‘liqmas. Yo‘luqqan kishiga toji torak bo‘lsun va bu saodat anga muborak bo‘lsun. Ammo bu toifani Haq taolo noqis-u chap yaratibdur va kamol-u rostlig‘ni zotlaridin havoratibdur. Va fe’llarin noxush qilibdur va ko‘prak eranlarni alarg‘a zabun va borkash qilibdur. Fitna va makr alarg‘a pesha, afsun va g‘adr alarg‘a andesha. Haq taolo ne’matlarig‘a nosipos, xalq yaxshiliqlarig‘a haqnoshunos. Nohuffozliq dinlari, noinsoftiq oyinlari. Xudnamoliq alarg‘a sheva, xudpisandliq alarg‘a meva. Dinlarig‘a aql yo‘qidin qusur, aqlarig‘a din yo‘qidin futur. Liboslarida nafs lavsidin nopoliklik, libosotlarida zot xabosatidin beboklik. Hushyorlari jahl mayidin mast, usrukleri may-u ma’shuqparast. Aybbinliq – nazarlari, aybjo‘yliq – hunarlari. Kayd-u fribda fusunsoz, makr-u hiylada sehrpardozi. Bejurmlarg‘a qasd-u g‘iybatlari qatl-payvand va begunahlarg‘a kizb-u tuhmatlari rostmonand. Haq tarafin tutmoqlari mutaassir, botil jonibidin o‘tmaklari mutaazzir. Itiklik bila yuz qizartmoq alarg‘a tazyin, so‘z asnosida yuziga qaro tilamak alarg‘a oyin. Shahzodayi parisurat abushqag‘a ishlari – g‘adr-u bedod, zangiyi devsirat o‘ynashqa rasmlari – muhabbat-u ittihod. Pardada o‘lturmoqlari hiylasozliq, yasanib otlanmoqlari asbakbozliq. Hiylalari ankabut torini pardapo‘s sh bo‘lg‘ay, kishining bu nav’ pardadori kerakkim, eski sanochg‘a g‘oza surtqay va titraydurg‘on boshg‘a titraguch sanchqay – avlo uldurkim, falak boshini ajal toshi bila yanchg‘ay. Bu toifadin agar qari dodakdurki, yasalurg‘a rog‘ibdur va agar arpa yey olmas eshakdur, naqshin afsor va jullg‘a tolidur. Bularning zabun eranlari yuk tortar eshaklari va ojiz qaltabonlari va qullari, balki dodaklari. Andoqliki, xaloyiqda tafovut bor, bularning ham tafovutlari behisobdur va beshumor. Bu tafovut uch qismidur: biri avomdur, biri xavosdur, biri xosul-xosdur. Avomlari bahoyim va sibo’monand – ichmak-u yemak-u uyqug‘a xursand. Toatlari zeb-u oroyish, ibodatlari ziynat-u namoyish, shiorlari islomdin g‘aflat va murod-u komlari

fisqda shuhrat. Xavoslari iblisshior va devoyin, shevalari makr-u peshalari kin. Savob-u roylari – rayb-u makkorliq, saloh-u taqvolari – sitam-u g‘addorliq. G‘adr-u makrda dev alar qoshida g‘ul, fasod-u hiylada shayton alar ollida go‘l. Maloyik alar qoshida balohat bila ma'yub, shayotin alar ollida hamoqatqa mansub. Xonavodalar buzmoq – alarg‘a masjid yasardek fan, nohaq qon – alarg‘a o‘luk turguzgancha mustahsan. Yuz yaxshiliqqa ming yamonliq ishlari, no‘s sh yetkurganga nish urmoq osoyishlari. Iffat-u saloh uyi alardin buzuq, ofiyat-u zuhd binosi alardin yiquq. Alar makri ta’rifida ko‘p ulumda dono va ko‘p diqqatlig‘ hukamo kitoblar tasnif etibdurlar va mujalladlar bitibdurlar va mubolag‘alar bila bastlar qilibdurlar. Va hanuz o‘zlarini ojiz va muqassir bilibdurlar. Bu bir necha parishon kalmot birla ne nav’ ta’riflarin aytsa bo‘lg‘ay va tavsiflari ning yuzdin biriga yetsa bo‘lg‘ay. Ammo xos ul-xoslari bularg‘a aksi mutlaq haqgo‘y va haqshunos va tillarida Haq va ko‘ngullarida dag‘i Haq. Ulamoyi islomg‘a alardin foyidayi umid, avliyoyi izom alar anfosidin mustafid, anbiyo mursalinni alarga modih bilg‘il, maloyikayi muqarrabin alarg‘a egachi-singil. Iffat toridin boshlarida muqna’ va ismat hullasidin yuzlarida burqa’, bu burqa’ni ul yuzdin Haq yiroq qilmasun va futur yelidin bu parda ul vajhdin ochilmasun.

O‘ttuz sakkizinchি fasl

RIYOIY SHAYXLAR ZIKRIDA

Shayxi riyoiy – ra’noliq jilvanamoyi. Misedur, oltun bila ro‘kash, tashi xushnamo va ichi noxush. Surati darveshvash va ma’nisi sarosar g‘ash. Orostalig‘i barcha qayd va karomati tamom shayd. Amomasi riyosat yuki, boshida bir fosid xayol har tuki. Egnidag‘i muraqqa’ – rangomezlig‘ bila mulamma’.

Ridosi uyubining pardadori va riyo charxi igirgan har tori. Misvoki tama' tishin elturga suhon; shonadonida rishxand olati nihon. Muhrabozliq tasbihin evurmak va uzunroq namozdin g'arazi el ko'rmak. Kulohi davlat ul davlatmandg'a dastor va uzunroq aloqasi tulku quyruqidin namudor. Mahalsiz sayhasi bag'oyat sovuq, andoqli, vaqtsiz un tortqon tovuq. G'aflatdin avrodida alolo, nechukkim mastlar bazmida «dirno talolo»⁶³. Barcha kalimoti hiylatangez va majmu'i harakoti g'arazomez. Voqeasi bari yasalg'on. Uyg'oqlig'ida degani barcha yolg'on. Simoi usuldin tashqari, vajdu sa'qasi ta'rif ohangidin nari. Suratida muncha pech dar pech, ma'nisi xud boshdin-ayooq hech.

Bu xabis zotg'a muncha oroyish, eranlar holidin anda namoyish.

Hayhot-hayhot, uyat, yuz ming uyat. Turfa bukim, bu mazharg'a muridlar ham bor, xizmatida barcha sheftau qaror. Ul bu do'konni yurutib tadbir bila va ma'rakan qurub tazvir bilakim, shayoting'a mahalli hayratdur va devi laing'a mujibi ibrat va nafratdur.

N a z m:

*Faqr ismi birla muncha zarqu shaydu bu riyo,
Sultanatdekdurki, qilg'ay podshohi bo'ryo.
Bu agar darvesh o'zin qilsa gumon, ul podsho,
Yo'q ajab, chun ikkisida yo'q turur aql-u hayo.*

O' ttuz t o' q q i z i n c h i f a s l

XAROBOT AHLI ZIKRIDA

Rindi⁶⁴ xarobotiyki, may ichmak bila o'tar avqoti, hubobdek boda havosi boshida, surohidek bosh qo'yar yeri sog'ar qoshida. Dayrda⁶⁵ har qayonki bazme ko'rub, sabu-

kashlik vasilasi bila o‘zin yetkurub. Nomus dastorin boshidin olib, bir jur‘a uchun mayfurush oyog‘ig‘a solib. Mayxona taraddudidin bexonomonlig‘i, paymona taalluqidin besar-u somonlig‘i. Har mug‘bacha ilgidinki, jome tortib, Jamsheddin⁶⁶ istig‘no va shavkati ortib. Mug‘bachalar yuzi ollida butparast, dayr piri ayog‘ida boshi tufroqqa past.

Yoqasi mayxora sho‘xlar ilgidin chok, ko‘ngli ham alar ishqil tig‘idin zaxmnok. Dayrda may gadolig‘ig‘a ashg‘oli, ilgida mayxonaning sinuq safoli. Rasvoliq ko‘yida ayog‘i yalang, boshi xam va badmastlar dastburdidin manglayi zaxmliq, qoshi ham. Vujud shaxsin qilur uchun pomol, majolisda yeri safi niol. Boshig‘a amoma mehnatin ortmay, bo‘ynida rido minnatin tortmay. Nafsi garchi tufroqqa hamdast, himmati ollida falak past. Zamon navoyibidin ko‘ngli g‘amsiz, falak havosidin xotiri alamsiz. Vujud va adamdin bo‘lmay haroson, bor-u yo‘q himmati ollida yakson. Surohidek talx yig‘lamoqdin nishoti, maydek ayoqg‘a tushmakdin inbisoti.

Mug‘ dayridek bir dam sog‘olmay, dahr xayr-u sharrig‘a ko‘z solmay. Zamon yaxshi-yamoni bila ishi yo‘q, desa bo‘lg‘ayki, olamda mundoq kishi yo‘q. Dahr ahli zulmidin mundoq maosh muhiq, Haq avf va rahmatig‘a mustahiq. Vujud maykadasi tufrog‘ida fonyi, umidi Haq karamidin baqoyi jovidoni. Rind va gadog‘akim yetib bu iqbol va davlat, shohlarg‘a aning holdin orzu va hasrat.

R u b o i y:

*Rindeki, fano jomini tortar payvast,
Dunyo bila oxiratqa ermas pobast.
Haq rahmati umidi bila tun-kun mast,
Ko ‘p ortuqroqki, zohidi zarqparast.*

Umid ulki, bori nomurodlarg‘a Haq bu fano davlatin qarib qilg‘ay va tavba saodati bila baqoyi jovid nasib etgay.

Qirqinchifasl

DARVESHLAR ZIKRIDA

Darvesh⁶⁷ uldurkim, bo‘lg‘ay rizoandesh, agar ichida bo‘lsa yuz nesh, toshi bo‘lg‘ay marhamoyin va malomat kesh. Darvesh kerakkim, sidq-u fano tariqin tuzgay, o‘zin nechukki, bor andoq ko‘rguzgay. Anoniyat g‘ilzatig‘a qotiq riyozatlar bila safo bermish bo‘lg‘ay va nafsoniyat shiddatidin azim mujohadalar bila chiqib, faqr tariqig‘a kirmish bo‘lg‘ay va fano dor ul-amoni jamoatxonasiq‘a yetmish bo‘lg‘ay. Himmati nazarig‘a mosivollohi nomavjud, balki Vujudi Mutlaqdin o‘zga barcha nobud. Ichi toshi bila muvofig, balki ortig‘roq, botini zohiri bila musoviy, balki yorug‘roq. Agar zohirida botin ixfosi uchun ko‘runsa andin murode bo‘lsa malomatkashliq. Botini sofi zohir tiyraligi koni munofiy. Darvesh to‘ni yirtuq andoq tururkim, ganji makoni buzuq. Safo ahli jahonda andoqdururukim, Faridun⁶⁸ ganji vayronda. Ma‘ni ahli haqiqati maxfiy va surat ahlining haqiqati da‘vi va da‘vi haqiqatda bema‘ni. Eranlar hol-lari suratin yoshurubturlar va malomat suratida na‘li bozguna urubturlar va zohirlari binosin buzubturlar va botinlari asosin tuzubturlar. Qazodin ne kelsa o‘zlarin rizog‘a yasab-turlar va olam ahlining qotig‘ ranj va irik malomatig‘a chiddabdurlar. Yemak-ichmakdin kechibdurlar, haq rizosin istarda g‘am yeb va qon ichibdurlar. Rizovu taslim zoviyasi – maqomlari, fano bodiyasida – oromlari. Adab-u tavoze’ alarg‘a kesh, dushman va do‘stig‘a nekandesh. Bu sifat va oyin bila bo‘lg‘on erur darvesh.

Rubo iy:

*Yo Rabki, fano qushin romim ayla,
Romim demayinki, saydi domim ayla.
Ham faqr tariqida xiromim ayla,
Ham zoviyayi fano maqomim ayla.*

Ikkinchı qism

HAMIDA AF'OL VA ZAMIMA XISOL XOSIYATI

Ul o'n bobdur

Avvalgi bob

TAVBA ZIKRIDA

Tavbayi¹ haqiqiy mazmum af'ol qabohatig'a mutalle' bo'lmoqdur va tavfiq rafiq bo'lub, ul af'oldin ijtinob qilmoqdur. Tavba mujrim bandaning ko'ngli ko'zgusin isyon zangidan oritur va niyoz musqili bila ul ko'zgu yuzin yoritur. Shaqovat tariqining nihoyatidur, hidoyat jodasining bidoyatidur, anoniyat g'afflatidin seskanmakdur va bashariyat uyqusidin uyg'onmaqdur va noshoyist ahvolin anglamoqdur va noboyist af'olin tonglamoq va yaramas maxfiylarg'a koshif bo'lmoqdur va kerakmas da'viylarig'a voqif bo'lmoq va a'mol qaboyihidin sharmandalig'dur va af'ol fazoyihidin sarafkandalig' va ogahlig'dur, bashariyat inodig'a voqiflig'dur, nafsi ammora fasodig'a va ko'ngulga nofarmonlig'idin mutag'ayyir bo'lmoqdur va ruhg'a nofarjomlig'idin mutanaffir bo'lmoqdur. Va Haqdin najot vaqtı yetmakdur va banda nafs mutobaatin tark etmakdur. Bu gavhari shabchirog' har tiyra ro'zgor loyiqi emas

va bu sham’i tavfiqni hodiyi inoyat har kimga bermas. To qaysi orig‘ tiynatlig‘ yo‘ldin ozmis bo‘lg‘ay va qayu pok xilqat-lig‘ jodadin chiqib, qilur ishin yozmish bo‘lg‘aykim, anga g‘arib, holot hodis bo‘lmish bo‘lg‘ay va ul holotqa shum nafs bois bo‘lmish bo‘lg‘ay va hodiyi tavfiq yetgay va ani ul holotin ogah etgay. Chun ogah bo‘ldi hayotidin toriqqay va uyot dudi dimog‘idin chiqqay va e’tizor bila qiladurg‘onidin ibo qilg‘ay va istig‘for bila qiladurg‘on jurmidin iste’fo qilg‘ay va nohamvor af‘olig‘a andom bergay va berohlig‘idin chiqib, haqiqat yo‘lig‘a kirgay. Bu martaba tariqat ahlining avvalg‘i gomidur va maqsad vodiyisining avvalgi manzilig‘a xiromidur. Bu saodat kishiga o‘zlugidin yetmak «hosho zolika fazlulloh yu’tihi man yasha»². Har sohibdavlatga bu ogahlig‘ bir vasila bila yetibdur va har saodatmand bu iqbolni bir vosita bila kasb etibdur.

R u b o i y:

*Haqdin angakim, yetti inoyat vaqtি,
Ko‘ngliga yomon fe’li siroyat vaqtি.
Isyonig‘a fosh o‘lur nihoyat vaqtি.
Bu bo‘ldi hidoyatqa bidoyat vaqtি.*

Hikoyat: Mazhari sun’i Haq taborak Shayx Abdulloh Muborak³ qaddasallohu sirrahuning tavbasining bidoyati va tuz yo‘lg‘a kirarning hidoyati bu ermishkim, hol avoyilida bir parivash ishqig‘a giriftor erdi va xalq arosida majnunshior, ko‘ngli bir sho‘x husnig‘a mubtalo va hush va xirad ko‘ngli mulkidin jalo. Bir qish kechasi ma’shuqi devori tubida vasli umidi bila pobast va yuzi xayolidin andoq bexud va mast erdikim, bovujudi ulkim bulut havodin zamharirbor va tun mushki ul zamharirdin kofurkirdor erdi va day sarsaridin qor ko‘ngli mulkiga ishq sipohi chopqunidin nisho-

na ko'rguzur erdi va burudat shiddatidin ashjor yafrog'lari sovug' eltgan, lol tillar holdin afsona aytur erdi. Ul ishq o'ti haroratidin bu holdin xabarsiz va yolang a'zosi qor va zamharir burudati shiddatidin asarsiz turub erdi. Anga tegrukim, tong qushi nola tuzdi va sahar muazzini nag'ma ko'rguzdi. Ul eshitgach, sog'indikim, xuftan namozining nidosidur va isho salotining adosi ibtidosi. Chun tong yovushti quyoshdek ichiga iztirob va oshub tushti. Va subhi sodiq nuridin ko'ngliga yorug'liq yetti va mulhimi hidoyat ani ogoh etti. O'ziga dedikim, ey Muborakning nomuborak o'g'li va ey Tengrining qochqon va beadab quli! Xuftan namozi qiroatida agar imom uzunroq sura o'qusa malomat tutar va yuz fosid xayol ko'nglungga o'tar, qishning bir uzun tunini andoq shum nafsing havosig'a mash'uf va mazmum tabiating komi xayolig'a mag'lub o'tkarursenkim, xuftan-din vuqufung va sahar yetgandin shuuring bo'lmas. Bu holatdin aning ichiga qo'zg'olon tushti va uyotdin ruhi badandin muforaqat qilg'ali yovushti. Inoyati Ilohiy qo'ldadi va tavba hidoyatig'a yo'ldadikim, andoq riyozat va sulukka rosix bo'lilikim, oz vaqtda Makka va Madinada shayx ul-mashoyix bo'ldi. Umid ulkim, Haq subhonahu va taolo barcha yo'ldin ozg'onlarni ogohlilq bila arjumand qilg'ay.

Q i t' a:

*Tavbayekim, aning saodatidin,
Bir qul o'g'li bu poya kasb etgay
Kim, anga shohlar qul o'lg'aylar
Munga o'zluk bila nechuk yetgay?!*

Ikkinchı bob

ZUHD ZIKRIDA

Zuhd⁴ dunyo orzularidin kechmakdur va nafs alarning mavti zahrin ichmakdur. Va mol-u joh xayoli rishtasin ko'nguldin uzmakdur va nang-u nomus butlarin ushaturg'a o'zin tuzmakdur va qabul umidig'a riyozat tariqin tutmoqdur. Va nafsining barcha muddaolarin unutmoqdur. Va shariat jodasida mardona turmoqdur. Va tariqat vodiysig'a pardardmandona qadam urmoqdur. Va boshni riyoyi sajdag'a indurmamakdur, balki andoq toatni xayolg'a kechurmakdur. Ko'zni asramoqdur barcha nomahram yuzdin va tilni tutmoqdur barcha nomashru' so'zdin. Quloq karligidur molo, ya'ni mas'mu'otdin ilik tortmog'lig'dur barcha nomashru'otdin. Ayog' langligidur xaloyiq taraddudidin va nutq gunligidur so'zda el tashaddudidin. Og'izga savm muhridur nedinki, nafs tamannosi bo'lg'ay va nafsg'a ya's kofuridur har shay'dinki tabiat taqozosi bo'lg'ay. Taom qillatidur onchakim, tuyassar va aning jibillati riyatidur onchakim, maqdur. Xilvatta ulfatdур alad-davom, uzlatga mudovamatdур molokalom. Va layl qiyomig'a muvozabatdур va zikr davomig'a mudovamatdур. Har solikkakim, bu maqom dorig'ay, xilqati riyozat nuri bila nafsoniyat lavsiddin orig'ay. Ko'ngli uyig'a oshnolig' sham'idin nur yetgay va ul nur partavi aning ko'ngluni masrur etgay. Ibodat natoyiji yeta boshlag'ay va riyozat favoyidi bahramand eta boshlag'ay. Ul soatan fasoatan ishida isig'roq bo'lg'ay va lahzatan falahzatan qilmishida qiriqroq bo'lgay. Bu fayz sog'arlaridin ichib qonmag'ay va bu zavq qadahlaridin lojur'a tortardin o'sonmag'ay. Yo Rab, aning jur'ayi jomidin mahrum tashnalablarni komyob qilg'il va bu vodiyda og'zi qurug'onlarni serob etgil, yo Karim, yo Rahim!

B a y t:

*Bu talabda kimki bo 'lsa anga ro 'zi etma hirmon,
Bu taabda kimki bo 'lsa anga qil vasl ila darmon.*

Hikoyat: Qudvayi ahli yaqin Mavlono Shamsuddin Muiddi Ucha⁵ (quddisa sirruhu) Jom viloyatida mazkur bo'lgan kentda bo'lur erdi, O'tuz yil erdikim, jami'i zohir tana'ummotidin bebahra erdikim, qoyim ul-layl⁶, soyim ud-dahr⁷ erdi. Bir masjidda munzaviy erdikim, g'ayri tajdidi vuzu' uchun mazkur muddatda andin chiqmaydur erdi. Va jinsi bashardin nima qabul qilmaydur erdi. Va hazrati Risolat (sallallohu alayhi vasallam) mutoba'atig'akim, Uhud g'azvasida⁸ muborak tishlari shahid bo'lib erdi, o'tuz iki tishin ushotib erdi va bu o'tuz yilda yoni ostida bir bo'ryo va boshi ostida bir xisht bila o'tkarib erdi. Kichik Mirzo⁹ (alayhir rahmah)¹⁰ ul viloyatdin o'tarda bu azizning, mazkur bo'lg'an sifotin eshitib, aning ziyyoratig'a yetti. Mavlono hamul masjidg'a kirganda egnidagi xirqa va boshidagi eski bo'rk bila erdi va taalluq rangi itloqi anga qilsa bo'lmas erdi. Mazkur Mirzoning ko'ngliga riqqat kelib bir ovuch diram kelturub iltimos qilibdurkim, bu niyozmandlig'ni qabul qilg'ay. Mavlono debdurkim, chun men bu tariq bila odat qilibmen, hech nimaga ehtiyojim yo'qtur. Agar Sizning xotiringiz uchun olsam ham manga ta'lim qilingkim, oni ne qilay va qo'yay. Sizning bir mulozimingizning bir juzviy vasilasig'a o'llturmen, minnatdor bo'ldum. Siz karam qilib, meni ma'zur tutung. Kichik Mirzo bu so'zga javob topa olmay, yig'lab, qulqoq tutib, yer o'pub chiqibdur, O'zi rahmatulloh bu faqirg'a mundoq taqrir qildi. Bir necha vaqtdin so'ngra bu faqir ham Mavlono xizmatig'a musharraf bo'lub, siyratini ham bu tariq bila muvofiq tooptim, balki ortuqroq ham. Haq subhonahu va taolo barcha tolibi niyoz-

mandlarg‘a bu tariq orzumandlarg‘a ul guliston din nafhaye va ul rayohindin shammaye nasib qilsun.

B a y t:

*Kimki ko 'nglidin aning faqr orzusi ketmagay,
Budurur ummedkim, Haq oni navmid etmagay.*

U c h u n c h i b o b

TAVAKKUL ZIKRIDA

Tavakkul¹¹ Haq yo‘lida vosita asbobin raf’ qilmoqdur va vasila hijobin daf’ qilmoq. Va sabtlarg‘a miyonchiliq-din uzr qo‘lmoqdur va sabab va uzsiz musabbibqa banda bo‘lmoqdur. Taqdir quti bozusi ollida sabab rishtasi churuk va qazo mash’ali partavi qoshida vosita uchquni o‘chuk. Tavakkul ahlikim, maqsud vodiysig‘a qadam qo‘yubdurlar yo‘l zodi Haq xoni ehsonidin bilibdurlar. Tavakkuli durust elning yemagi Haq xoni in’omidin va ichmaki aning sharbatxonasi jomidin va kiymagi aning xizonai ehsoni ikromidin. Bas bular mavjud ko‘rungandin ul necha xushhol bo‘lg‘ay va nobud ekandin anga malol. Daryodin o‘targ‘a kemani sabab desang toboni nam bo‘lmay o‘tguvchilarg‘a ne so‘zung bor va biyobon qat’ etarga markabni vosita guomon qilsang tayyi arz bila borg‘uchilar ollida markab ne e’tibor. Andoqli, sening nasibangni yana birov yemas, aning ham nasibin sen yemak mumkin emas. Sening ro‘zing sangadur, aning qismati angadur. Tilamasang ham yetkurur, yemasang ham yedirur. Muni anglag‘anlar qutulubturlar ro‘zi uchun mehnat chekardin va tinibdurlar farog‘at uchun dona ekardin. Ro‘zi uchun kasbda ihtmomin tavakkul qusuridin bo‘lg‘ay va maishat uchun sa’yi molokalom yaqin futuridin bo‘lg‘ay. Tengri razzoqlig‘in bilgan ro‘zi uchun

g‘am yemagay va qassomlig‘in bilgan rizq oz-u ko‘pida so‘z demagay. Ulki vahshu tayr rizqig‘a zomindur, sanga yetkurmagaymu? Va ulki mo‘r-u malaxka ro‘zi berur, sanga bermagaymu? Sa'y bila azal qismatin orturay degan yog‘in rishtasig‘a gireh uray der. Va jid bila qalam yozg‘on qazoni qaytaray degan quruq yerda kema suray der. Bu ishlar ko‘ngli uyi yaqin nuridin tiyralar ishidur va botiniy ko‘zi haqiqat quyoshidin xiralar odat va varzishidur. Tavakkul ahli barcha asbob vositasidin ko‘z yumubdurlar va «Falyatavakkal alalloh»¹² daryosig‘a cho‘mubdurlar va ro‘zi yetkurguchi Haqni bilibdurlar. Ani yeydurguchi ham ani aqida qilibdurlar. Va shak va taraddudi qote‘i tariqlaridin e’roz etibdurlar. Va vositasiz tavakkul bodiyasig‘a qadam urub maqsud ka’basig‘a yetubdurlar.

B a y t:

*Kimki qat’etsa tavakkul qadami birla tariq,
Yog‘in-u sel anga muziy emas va barq-hariq.*

Hikoyat: Shayx Ibrohim Sitnabah¹³ bir muridi bila (quddisa sirrahumo) tavakkul qadami bila Ka’ba azimati qildilar. Shayx janobi muridg‘a ayttikim, senda hech ma’lum bormu? Murid Shayxg‘a dedikim, yo‘q, men tavakkul qadami bila bu yo‘lg‘a qo‘yubmen, amin va ma’lumni ne qilay? Yana bir necha qadam borg‘ondin so‘ngra Shayx muridg‘a yana ayttikim: – sen o‘zungni yaxshi ehtiyot qil, ma’lumung bo‘lsa tashlag‘ilkim, mening ayog‘im og‘irlik qiladur. Yana murid dedikim: bir-ikki na’layn shiroki borki, bodiya qat’ida na’laynim shiroki uzulsa oni tortarg‘a olibmen. Shayx muridg‘a dedikim: Holo xud na’layning shiroki butundur, uzulmaydur. Dedi: bale. Shayx dedi: Bas, ortuq shirokni tashla. Murid debdurkim, tashlamay choram yo‘q edi, zaruratdin tashladim va gireh bila borur erdim, yo‘lda

nogoh na'laynim shiroki uzuldi, turub ilik urdumkim, ani na'layndin surub tashlag'aymen va Shayxni ul amrda ta'n qilg'aymen. Ko'rdumkim, na'layn yonida bir shirok tushub yotur. Men taajjub yuzidin ul shirokni na'layng'a torttim va Shayxqa erishtim, har qachonkim, na'layn shirokig'a ehtiyoj voqe' bo'lsa erdi, hamul dastur bila muhayyo shirok zohir bo'lur erdi. Bu ishda mening tavakkulim durust bo'ldi.

Tavakkul ahli Haq yo'lin bu nav' yorutubdurlar va aning g'ayrig'a tavassul xayolin ko'nguldin chiqoribdurlar.

Q i t' a:

*Tavakkul chun durust ermas muxaldur,
Anga na'laynning ortug' shiroki.
Durust o'lg'ach yig'ilsa ganji Qorun,
Yo'q ul dam rohravning hech boki.*

T o‘ r t i n c h i b o b

QANOAT ZIKRIDA

Qanoat¹⁴ ibodat quvvati hosil bo'lg'oncha qut bila o'tkarmakdur va andin ortug' barcha nimaning havasin xayoldin ko'tarmakdur. Va benavolig' bila nafsni ozurda tutmoqdur va mahrumlig' bila quvoyi shahvoniyni pajmurga qilmoqdur.

Qanoat chashmayedurkim, suvi olmoq bila qurumas va maxzanedurkim, naqdi sepamoq bila o'ksumas va mazrayedurkim, tuxmi izzat va shavkat bar berur va shajaredurkim, shoxi istig'no va hurmat samar kelturur.

Ko'ngulga andin ochug'luq foydasi yetar va ko'z andin yorug'luq natijasi kasb etar.

Qone' darveshning quruq noni, tome' shohning xi-toyi xonidin xo'broqdur. Va forig'i faqrandishning yovg'on umochi olg'uvchi g'aniyning naboliy kulochidin marg'ubroq. Shoh uldurkim, olmag'ay va bergay. Gado uldurkim, sochmag'ay va tergay.

Ulkim qanoatqa mu'tod bo'ldi – shoh va gado taraddudidin ozod bo'ldi. Maosh uyi garchi bo'lur tor, ammo har necha mubolag'a qilsang yeri bor. Hisoredurkim, anda kirsang, nafs sharridin qutulursen va ko'hsoredurkim, anda chiqsang, dushman va do'stdin mustag'niy bo'lursen. Af-todalig'edurki, natija sarafrozliq va niyozmandlig'edur; foydasi beniyozlig'dur – tuxmi bari g'ino va shajaredur samari istig'no; mayedur – achchig' na nash'asi tarabangiz; yo'ledur – qattig', ammo manzili farahomez.

Qanoatda nechakim, farog'bol, aksi, tama'da razolat va nakol.

Xasis ta'bg'a do'stedur laimvash, gadoshevalik va razolat aning tavriga xush. Muvofaqatig'a asar xorlig', munosabatig'a bahra sabukborlig'. Har tab'dakim, ul mavjud bo'ldi, ul kishi ulus tab'ig'a mardud bo'ldi. Laimliq va razolatqa kamol andin, odamiylik va insoniyatqa zavol andin. O'tedur nomus uyin kuydurguvchi, yeledur izzat xirmaninsovurguvchi va viqor sham'in o'churguvchi. Tama' in'omg'a andoqdurki, sharih taomg'a, ul biri dunlar harakoti, bu biri bahoyim sifoti.

Qanoat javharedurkim, elni mundoq ikki balodin o'tkarur va mundoq ikki ibtilodin qutqarur. Bu ikki zamima fe'lki, yomondur, go'yo ikki noxush tav'amondur, ul mundin yomon va bu andin yomon, ikkalasi yomondin-yomon. Biri laim va biri mudbir ikkalasining haqiqati bir. Muxbiri sodiq¹⁵ (sallollohu alayha vassallam) munga mundoq debtur: «Qone'ni azizg'a, tome'ni zalilg'a nisbat beribdur».

R u b o i y:

*Har kimki, qanoat tarafi nisbati bor,
Borcha el aro tavoze-u izzati bor,
Ulkim tama-u hirs bila ulfati bor,
Yaxshi-yamon ichra zillat-u nakbati bor.*

Hikoyat: Koshifi asrori ilohiy Shayx Shoh Ziyoratgohiy¹⁶ (qaddasallohu sirrahu) ibodat farog‘ati uchun qanoat shior qildi va Ziyoratgoh qasabasida maskan ixtiyor qildi. Va ulus nazr va hadiyasin parvo qilmadi, va salotin in’om va suyurg‘olin ko‘zga ilmadi. Muhaqqar Mavrusi muhavvatasig‘a ashjor tiki va ekin ekti. O‘z muborak iliki bila ekin suvorurg‘a bel urar erdi va ashjor tarbiyatig‘a tesha va arra surar erdi. Bu nav’ qanoat bila maosh tuzub Tengri ibodatig‘a ishtig‘ol ko‘rguzur erdi. Bu qanoat natijasi «azza man qanaa»¹⁷ hukmi bila ul yerga yettim, Hirendor us-saltanasidin salotini masnadnishin va ulamoyi din va mashoyixi ahli yaqin uch shar‘iy yo‘lni ul buzurgvor xizmatig‘a borur erdilar va ostoni tufrog‘in o‘pmak bila tafoxur boshin falakdin o‘tkarur erdilar va ul zirot nonidin va ul favokih xonidin har ne iliklarig‘a tushsa ko‘zlarig‘a surtub, qo‘yunlarig‘a solib, tabarruk uchun shahrg‘a ayol va atfollari uchun kelturur erdilar va andin yeganlar oxirat na-jotig‘a ham umidvor bo‘lur erdilar. Qanoat natijasi mundin komilroq oz zuhur qilib erkin va xursandlig‘ bog‘chasining rayohini mundin tarovatliroq kam ochilib erkin.

Q i t’ a:

*Jahon ichra ko ‘p sun’ ko ‘rguzdi Sone’,
Emasdur kishi turfa andoqki, qone’.*

*Kishidin talabsiz g‘ino hosil etmak,
Yana judg‘a bo‘lmamoq hech mone’.*

B e s h i n c h i b o b

SABR ZIKRIDA

Sabr o‘zni chiqarmoqdur huzuzi nafsonidin va tana’ umoti jismonidin va nafsini habs qilmoqdur ibodat mehnatida va qadamni sobit qo‘ymoqdur riyozi suubatida. Haq yo‘lida qotig‘ irikka tuzmakdur va yaxshi-yomondin har ne eshitgan va ko‘rganga tahammul ko‘rguzmakdur. Achchig‘dur, ammo sudmand; qattig‘dur, ammo dofei gazand. Qaysi nomurod ilik sabr etagiga urdikim, murod topmadi? Va qaysi giriftor ko‘ngul sabr bandig‘a qo‘ydikim, kushod topmadi? Farahlar miftohidur va bandlar fattohidur.

Rafiqedur suhbati mumill, ammo oqibati murodqa qarinliq va harifedur umidi uzun ammo nihoyati matlubqa hamnishinliq. Samandedur kohilxirom ammo manzilg‘a yetkurguvchi va buxtiyedur saqilgom, lekin ma’mang‘a tushurguvchi.

Nosihi talxguftordek tab’ andin ozurda va lekin zimnida maqsud hosil, tabibi batiy ul-ilojdek,¹⁸ mariz andin pajmurga, ammo so‘ng‘ida sihhat vosil.

Ishq ahli zikridin mutag‘ayyir va lekin g‘oyati vaslg‘a umidvorliq, hajr eli yodidin mutanaffir va lekin nihoyati ittisolg‘a komgorlik.

Qafasida jon bulbulig‘a ne xamushluq sud etib, ne navo va ilhon, majlisida ruh to‘tisig‘a ne sukut naf’ yetkurub, ne faryod va fig‘on sahrosida farog‘at hamon-u iztirob hamon, biyobonida darang hamon-u shitob hamon. So‘xtayi firoq o‘lmakdin anga g‘am yo‘q, anduxtayi ishtiyoq kuymakdin

anga alam yo‘q. Hajr shomidek tiyra uzun, ammo g‘oyati subhi visol, haj yo‘lidek qattig‘ va yiroq, ammo nihoyati Ka’bayi iqbol.

Har giriftorg‘akim, ul nobud hayoti andin bariy va har umidvorg‘akim, ul nomavjud ruhi andin sipariy.

Oshiqlarg‘a marazedur va bemorlarg‘a zahredur halohil. Sahih aning suubatidin bemor, havoss aning uqubatidin nokor. Ruh ishi ani tortarda taallul, ko‘ngul aning qattig‘lig‘idin betoqat-u tahammul. Yo‘li bodiyasida zulmoti ofot, Xizrdek ani qat’ qilg‘ong‘a bahra zuloli hayot. Shiddati yukiga homillaridin biri Ayyubi¹⁹ nabiy va suubati hamlig‘a komillaridin biri Muhammadi arabi.

B a y t:

*Ajab ranjeki andin sa ‘b yo ‘q ranj,
Vale chekkan kishining bahrasi ganj.*

Hikoyat: Bir notavon ko‘nglida bir gul’uzor xorxori bo‘ldi va ul tuhmat bila zindon giriftori bo‘ldi. Ul ish iqrori uchun anga qilmag‘an azob qolmadi, ammo ul maxfiy sиррин ko‘nguldin tilga solmadi. Oqibat bir kun asaslar bordilar va ani zindondin band bila sudrab chiqordilar. Va bosh-ayog‘idin tortib uzottilar va bir quchoq yig‘och aning a’zosig‘a ushottilar. Andoqkim, boshdin-ayog‘i jarohat bo‘ldi va bari a’zosining terisi so‘yuldi. Tayoq a’zosini andoq afgor qildikim, qon ul ma’rakani lolazor qildi. Mazzum mutlaqo dam urmadi va iqror takallumin tiliga surmadni. Chun ta’zib shiddatidin hordilar, ul majma’din sudrab chiqordilar va navmidlig‘din qo‘yaberdilar va insof olamida muhiq erdilar. Chun jafopeshalar yiroq bordi, jafokash og‘zidin bir usholg‘on diram chiqordi. Ja’miki ani ko‘rdilar. Ul ish kayfiyatni so‘rdilar, ulcha javobidin mafhum bo‘ldi,

bu holat ma'lum bo'ldikim, siyosatining hangomasida manzuri hozir ermish va bir go'shadin aning holiga nozir ermish. Anga yetarda ul bedod-u sitam tishi ostida ermish ul diram. Azob e'tidoldin o'tarda diramg'a tishin berkitur ermish va tish zaxmidin ul diramni pora-pora ushotur ermish va manzur nozir ollida sabr-u tahammul qilur ermish va aning nazzoragar erkanin bilur ermish. Manzur chun bu holni bildi, mehr va shafqat bila boshig'a keldi, yumshoq so'z bila yaralarig'a marham yetkurdy va chuchuk til bila majruh tanig'a jon kivurdi. Va xayolig'a kechmas davlatg'a sazovor bo'ldi va gumonig'a o'tmas odatg'a komgor bo'ldi. Bu barcha shiddatdag'i sabr-u shikebolig' natijasi erdi va ul suubat va shiddatda tahammuldin anga dast berdi.

B a y t:

*Kimki har shiddat aro sabr-u tahammul ayladi,
Baxt aning nishini no 'sh-u xorini gul ayladi.*

O l t i n c h i b o b

TAVOZU' VA ADAB ZIKRIDA

Tavozu' xalqni kishi muhabbatig'a shefta qilur va ulusni foil mavaddatig'a firefta qilur. Do'stslug' gulshanida nazorat gullari ochar va ul gulshandin uns va ulfat bazmida turluk gullar sochar. Mutakabbir dushmang'a muloyamat sari yo'l ko'rguzur va mu'jib xasm xotirig'a insoniyat zav-qin o'lturg'uzur. Takrori hayosiz muddaiyni uyat sarhad-dig'a boshqarur va te'dodi insofsiz aduvni yamonlikdin o'tkarur.

Agarchi borchas eldin xo'bdur va bari xaloyiqdin marg'ub, ammo sarafrozlardin xo'broqdur va beniyozlardin

marg‘ubroqdur. Abnoyi jinsdin bir-biriga mustahsan, akobirdin asog‘irg‘a ahsan. Saxo qilmay elni shod qilur va atoko‘rguzmay kishini g‘amdin ozod qilur.

Adab kichik yoshlig‘larni ulug‘lar duosig‘a sazovor etar va ul duo barakati bila umrdin barxurdor. Kichiklar mehrin ulug‘lar ko‘nglig‘a solur va ul muhabbat ko‘ngulda muabbad qolur.

Ushog‘larni ko‘zga ulug‘ qilur atvordin xalq ulug‘liq bilur. Xalq jonibidin behurmatliq eshigin bog‘lar va kishini hazl va istixfofdin saxlar. Tabiatg‘a insoniyat tariyqida andom berur va mijozg‘a odamiyliq manzilida orom yetkurur. Kichiklarga akim, andin muncha bo‘lg‘ay, ulug‘larg‘a ko‘rkim, necha muncha bo‘lg‘ay.

Muhabbatg‘a zeb-u piroya adabdin yetar va muvaddatg‘a ravnaq va baho tarkidin ketar. Adab va tavozu ko‘zgusig‘a jilo berur, ikki jonibdin yorug‘luq yetkurur.

Tavozu’ va adab ahlig‘a ta’zim va hurmat yetar ul donani ekkan javohir bu mahsulni jam’ etar. Xalq ixtilotida hamida axloq ibtidosi bu xisoldur va bu rusux topsa muhabbat ixtiloli maholdur. Ikki jonibdin agar xulqi karim bo‘lg‘ay, adab va tavozu’ muqobalasida izzat va ta’zim, bo‘lg‘ay. Xusho, bu nav’ ahbob arosida suhbat va bu tavr as’hob arosida mavaddat. Mundoq ahli muhabbat va vadod va xayli mavaddat va ittihog.

Agar zohirda do‘sslug‘ safosi uchundur dunyoda komgorlig‘dur. Va agar ma’noda Tengri rizosi uchun oxiratda umidi rastagorliqdur. Va agar tengrilik uchun bo‘lsa, «At-ta’zim-u li amrilloh»²⁰ saodati hosil va agar xalq do‘sslug‘i uchun bo‘lsa, «Ash-shafqat-u alo xalqillahi»²¹ davlati vosil.

Bu oliv martabag‘a shoyista va loyiq muvaffaqedurki, zoti faqr davlatig‘a muloyim va muvofiq, yo‘qli, mutakab-biri xudpisand va johili noxiradmand.

B a y t:

*Aql-u hikmat ishidur buyla maosh-u oyin,
Qayda topqay muni har nafsparast-u xudbin.*

Hikoyat: Axbor roviylari va osor hoviyulari mundoq rivoyat qilibdurlarkim, bir ov hangomasi g‘avg‘osida va chopmoq va otmoq arosida Xusrav Parvezning sarafrozliq tojidin gavhari obdor va durri shahvor uzulub yerga tushti. Va ov ishtig‘olidin anga hech kishiga xabar bo‘lmadi. Ovdin Madoying‘a qayttilar. Chun ul ishni bildilar, xaloyiqni munodi bila chaqirdilar va ul gavhari noyobni tilay bordilar.

Chun ul zebi toj mulk xiroji erdi, topqong‘a ko‘p nima va kiromand sila va’da bo‘ldi. Xalq ul biyobonda justujo‘yida va sila orzusi guftugo‘yida.

Ittifoqo ikki hamroh: biri g‘ofil va biri ogoh. G‘ofil jahl yuzidin xudpisand, ogoh tavozu’ va adab zevaridin arjumand. Birining ismi Mudbiri jahongard va birining oti Muqbili javonmard. Ul biyobondog‘i yo‘lg‘a ozim va shahr sari borurg‘a jozim. Po‘yanamo va dashtpaymo erdilar. Chun duralab elga yovushtilar. Ul xalqni boshlab chiqqon kishiga yo‘luqushtilar. Mudbir takabbur bila anga boqmay o‘tti. Muqbil insoniyat tariyqin ilgari tutti. Ul solorg‘a adab va tavozu’ bila bosh indurdi, ayog‘i ostida gavhar xud tushgan ermish, ko‘rub olib, o‘pub ul solorg‘a tuta berdi, ul xud mav‘ud silaning vakili erdi. Muqbilning iligin tutub shahrg‘a qaytti va o‘tgan holatni Xusrav qoshida sharh bila aytti. Xusrav xushhol va munbasit bo‘ldi. Va aning uzrin degandin ortuq ehson bila qo‘ldi. Mudbir takabbur natijasidin shahar gulxanida maqom tutub, Muqbil adab va tavozu’ foydasidin gavhari maqsud topib, shoh gulshanida orom topti.

B a y t:

*Mutakabbir kezibon shahrda xor-u mardud,
Mutavozi'ni g'aniy ayladi durri maqsud.*

Y e t t i n c h i b o b

ZIKR SHARHIDA

Zikr ko'ngul bila Haq yodi ishtig'olidur va til bila dag'i hamul takallum maqolidur. Va ba'zi tilga ul amrdin ma'zul luq debdurlar va ko'ngulga mudovamat va mashg'ulluq. Ko'ngul bila Haq yodi bila bo'lmoqdur va aning g'ayri xaylidin xoli bo'lmoqdur. Va ul mashg'ulluq «Ma xalaqal-loh»²² fanosidur va «mo xalaqalloh»²³ Xoliqining baqosidur. Nafy kalimasi bilakim, «lo iloha» bo'lg'ay, mosivol-lohni unutmoqdur va isbot kalimasi bilakim, «Illalloh» bo'lg'ay ko'ngulni ovutmoqdur va mashg'ul tutmoqdur. Va aning nihoyat martabasi zokir mazkurda nobud va yo'q bo'lmoqdur. Va anda tilga kogal yo'q va taqrir-u bayong'a madxal yo'q. Ne lisong'a takallumdin xabar va ne bayong'a tarannumdin asar. Bu haramg'a kulli mahram bo'lmos'liq nafyi xotirdur va ifnoyi mavjud va nomavjud. Va g'oyib, va hozir o'zni budu nobud xayolidin qochurmoqdur va maqsudi asliy talabida qadam urmoq o'zu yottin begona bo'limg'uncha u mahbub bila oshno bo'lsa bo'lmas. Va bud-u nobuddin xoli bo'limg'uncha va bu hayot zulolidin to'lsa bo'lmas. Bu daryog'a kirgan gavhari maqsud tilasa dam asramoq kerak va bu haramg'a yo'l topqon mahramliq tilasa dam urmamoq kerak. Shoh rozin asramoqda tilin tiymag'anning boshi boribdur va g'ayrat va siyosat tig'i aning nihodidin dimor chiqoribdur. Bu may ichgandin kayfiyat izhori ko'ngli betoblig'idindur va bu boda mastlig'i-ning sharoblig'idindur.

R u b o i y:

*Mayxonada jam 'iki erur bodaparast,
Zohir may ichgandin o 'lurlar badmast.
Mingdin bir emas bu haqiqat mayidin,
Ichgan ani oxsum o 'lsa tong yo 'q payvast.*

Hikoyat: Muqarrabi Hazrati boriy Xoja Abdulloh Ansoriy²⁴ (quddisa sirruhu) dedikim, ul takallumg‘akim Mansur²⁵ dam urdi, men ham urdum. Ul oshkor etti va men yoshurdum. Menkim yoshurdum, tojdorlig‘ manqarib bo‘ldi. Ul oshkor etti, dorg‘a toj bo‘lmoqlik nasib bo‘ldi. Ul hanuz xom erdi va bu ma’nidin xurush qiluri behangom erdi. Eshitguvchi ibo etti va anga yetti va ulcha yetti. Men ul so‘zni anjumanda izhor etarmen va izhorida isror va takror etarmen hech kishi manga nima dey olmas va demaskim, so‘zumning agarchi ma’nisi uldur, ammo suvrati ul emaskim, suvrat ahli suvratga nazar solurlar va ma’ni ahli ma’nidin bahra olurlar.

Ilohiy, bu ogohlar ayog‘i tufrog‘idin biz gumrohlar tiyra ko‘ngliga ochug‘liq yetkur va qororg‘on ko‘zlariga yorug‘lug‘ yetkur.

B a y t:

*Hamul kuhlul-javohirni ko ‘zumga to ‘tiyo ayla,
Ul iksiri saodatdin vujudim kimiyo ayla.*

S a k k i z i n c h i b o b

TAVAJJUH ZIKRIDA

Tavajjuh²⁶ Haq subhonahu taolog‘a yuzlanmakdur va ul yon aylanmoqdur. Va xalqdin taalluq torin uzub anga

ulanmoqdur. Jami'yi orzudin chiqmoqli, Haqning g'ayrig'a aylandurg'ay va mosivolloh ishtig'olig'a chirmondurg'ay. Andoqkim, dunyo va oxirat saodatin arza qilsalar va siddiqlar va payg'ambarlar marotibin jilva bersalar, solik ul yon nazar o'qin otmag'ay va ko'ngliga alarning raddu qabulin mutlaqo yo'latmag'ay. Agar tavajjuhda yuziga o'qlar kelsa, ko'z yummoqni unutqay, agar bir ko'zini ul o'qlar zoye' qilsa, yana birni ilgari tutqay. Agar ul nazazorada tosh yog'sa boshin yosurmag'ay va ani muhofazat qalqonig'a qochurmag'ay. Agar ollida sheri jayon yuzlansa, anga mo'rcha kelmagay yomon va agar pili damon uchrasa, ul hamon bo'lg'ay va pashsha hamon. Seli balodin tavajjuhig'a nam yetmagay va sarsari ofat bir tori mo'yin xam etmagay. Charxi g'addir fitnaliq nujumi bila anga bir zaratfalon varaqi moviy va barqi havodis anga yel uchurg'on bir sariq gul yafrog'i bila musoviy. Mehri munir ollida zarradin haqir va xoksor, bahri zaxxor nazarida bir qatradin bemiqdor, ya'ni ul tavajjuhiga mone' mumkin bo'limg'ay va ul nazzorasi shu'lesi daryolar suyi bila sokin bo'limg'ay. Va bu maqom solikning sidqiga doldur va ixlosig'a guvohi holdur. Va oshiqlig'ida yakdillig'ig'a dalili beishtiboh va yakro'y, yakjihatlig'ig'a guvoh va shavqi g'oyatsiz erkaniga guvohi sodiq va muhabbati nihoyatsiz erkaniga dalili muvofiq.

M a s n a v i y:

*Tavajjuh birla hindu sa'y etar chog',
Tushurur ko'k yog'ochdin toza yafrog'.
Kashf aylab tavajjuh bayzasig'a,
Yorar ko'z birla bosmay kosasig'a.*

Hikoyat: Bir gulxaniyi mehnatkash ko'ngliga bir shahzodayi xurshedvash ishqisi harorati tushti va ul harorat

tobidin qoni qurushti va ruhi muforaqat qilurg‘a yovush-ti. Xirad matoyi ilgidin bordi va junun shaydoliqqa bosh chiqordi. Atfol qavub tosh urarlar erdi. Ko‘chadin ko‘chaga surarlar erdi. Aning og‘zida shahzoda oti mazkur va ko‘ng-li aning zikri bila masrur. Chun atfol toshidin to‘yar erdi, qochib gulxang‘a yuz qo‘yar erdi. Chun gulxaniyi majnun-ni shahzoda ishq mashhur etti, bu so‘z shahzoda qulog‘ig‘a ham yetti. Andoqliki, pok ishq bil-xosiyat ma’shuq ko‘ngli-ga jo-zib bo‘ldi. Shahzodayi parivash devonasin ko‘rarga roq‘ib bo‘ldi. Sayr asnosida markabni ul gulxan sori sur-di, chun devonayi nomurod bu murodni ko‘rdi, nazzora va tavajjuhi andoq bexudluqqa ulashtikim, gulxan o‘ti bosh-tin ayog‘ig‘a tutashti. Ul nazzoradin bexabar el yetib o‘tun o‘churguncha andin ne xabar qoldi va ne asar. Shahzodayi qotil devonasi holidin yig‘lab g‘ussa yutti, turfa ko‘rkim, o‘zi o‘lturib, o‘zi azo tutti.

B a y t:

*Majoziy ishqda mundoq tavajjuh ayla xayol,
Gar o‘lsa ishq haqiqiyda ko‘r ne bo ‘lg‘ay hol.*

T o‘ q q i z i n c h i b o b

RIZO ZIKRIDA

Rizo²⁷ o‘z dilxoh va rizosidin kechmakdur va Haq subhonahu va taolo rizosi jomin lo jur‘a ichmakdur. O‘z ko‘ngli tilaganlar mavto adosin farq bilmak va mah-bubi haqiqiy rizosi bila tirilmak. Bu maqomdur. Solik-ning a’zam maqomoti va arfa’ darajoti nechunkim, so-lik bidoyatda maskanat va haqorat maqomidadur, ha-qirning rizosi va matlubi ham haqir bo‘lur. Chun o‘z ri-zosin bilkull fano o‘tig‘a otti va Haq subhonahu va taolo

rizosi bila o‘zin tuzotti. Mosivalloh lavsi oriydin qutuldi «val-mutaxalliqu biaxloqilloh»²⁸ sifati bila muttasif bo‘ldi. Ajab maqomedurkim, agar bu korxonada xitoyi naqshin ko‘rsun va agar islomiy, barchani naqqosh naqshbandxonayi sun’idin musavvar bilg‘ay va har birini o‘z yerida benazar tasavvur qilg‘ay. Ravzayi xuldidin ko‘p shod va do‘zax dudidin ko‘p tiyranihod bo‘lg‘ay. Kalimulloh madhida mubolag‘a taronasi tuzmag‘ay va Fir‘avni zimmida dag‘i mubolag‘a ko‘rguzmag‘ay. Xalilullohi²⁹ ogoh bila Namrudi³⁰ mardud arosida muxolafat eshikin rust ko‘rgay, va muvofaqat rishtasin durust. Ofarinish bog‘idin agar boshig‘a gul yog‘ilsun va agar ayog‘ig‘a tikan sanchilsun, chun bog‘boni chamanoro rizo va ixtiyoril biladur ne ul biridin boshin yoshurg‘ay va ne ul biridin ayog‘in yig‘ishturg‘ay. Va do‘st rizosig‘a jon fido qilg‘ay va agar yana jon tilasa aning uchun bajo qilg‘ay va muning shukrin ado qilg‘ay. Tiriklikni aning rizosi uchun tilagay va o‘lumda aning rizosin tobsa jon berib istagay. Rizosin Haq rizosi bilmish bo‘lg‘ay va murodin aning xostida mahv qilmish bo‘lg‘ay va o‘zlugidin xabar qolmamish bo‘lg‘ay va o‘ziga o‘z rizosidin asar. Haqdin agar g‘afforlig‘ zuhur etar – aning marg‘ubi va agar qahhorlig‘ zuhur etar ham – aning mahbubi. Nish yetsa zaxmig‘a marham va gar marham yetsa bag‘ri zaxmig‘a ham mug‘tanam.

B a y t:

*Rozi o‘lsa gar yomon, gar yaxshi bo‘lsa jilvagar,
Sun‘i kilkidin musavvardur chu har yanglig‘ suvar.*

Hikoyat: Valoyat daryosining gavhari va hidoyat sipehrining axtari asadulloh ul-g‘olib, amir ul-mo‘minin Ali ibni Abu Tolib (raziyallohu anhu va karramallohu vaj-hahu) rizo maqomi ta’rifida va solikning roziliqqa muttasif bo‘lg‘oni tavsifida varaq yuziga maorifnigor xoma urub-

tur va bu nav' daqiq nukta surubdurkim, rizo maqomig'a kamol o'z rizosin Haq rizosig'a muvofiq qilg'ong'a hol budurkim, agar desalarkim, so'l ko'zung xonasi Xaybar eshigiga makon bo'lsun va ul poshna ochilur-yopilurda ul makonda yurulsun. Eshitkuvchi ayni rizodin o'z shonin unutmag'ay va g'oyati ta'zimdin o'ng ko'zin ul xizmat uchun ilgari tutmag'ay. Agar mundoq qilsa, ulcha anga qazodur, aning muqobalasida ham fuzulluq, ham adam rizodur. Rizo maqomig'a o'zin nobud va farmonbardorlig'da o'zlukin nomavjud qilg'ong'a bu vujud qaydin keldikim, so'l ko'zni xor, o'ng ko'zni aziz bilg'ay. Va bu xor-u bu aziz arosida tamyiz ham qilg'ay, anga rizo sharti uldurkim, amrig'a toat qilg'ay va ma'mur bo'lg'on izhori itoat. Va bu shirin meva valoyat bog'i shajarasidin bo'lg'ay va bu laziz fokiha hidoyat shajarasining samarasi bo'lg'ay.

B a y t:

*Valoyatlarda bo 'lg'ay mevalar ko 'b-u ta 'mu holatlig',
Vale qaysi valoyat ichra bo 'lg'ay muncha lazzatlig'.*

O' n u n c h i b o b

ISHQ ZIKRIDA

Ishq³¹ axtaredur duraxshanda va bashariyat ko'zi nur va ziyosi andin va gavharedur raxshanda, insoniyat tojining zeb va bahosi andin. Mehredur tole', mahzun xotirlar xoristoni andin gulshan va badredur lome', tiyra ko'ngullar shabistoni andin ravshan. Bahredur vase', har igrimi yuz aql-u hush kemasin cho'murg'on va tog'edur rafe' har tig'i ming zuhd va taqvo boshini uchurg'on. Shu'layedur so'zanda, xoshoki ko'p jon-u ko'ngul bo'lg'on va barqedur furo'zanda, ko'p jon-u ko'ngul ashi'asida kul qilg'on. Ajdahoyedur xunxor, olamni dami bila tortmoq anga kom,

podshohedur qahhor, komi hardam olam ahlig‘a qatli om. Va har nechakim zulm qilg‘on sayi anga usonmoq yo‘q. Va har necha qon yutgan sayi anga qonmoq yo‘q. Soiqayedur, aql-u din xirmanin kuydurguchi va sarsaredur alarning ku-lin ko‘kka sovurguchi.

Inodi ollinda teng ham podshoh, ham gado. Bedodi qoshinda bir ham fosiq, ham porso. Oshiq ko‘ngliga ma’shuq havosin solg‘uvchi ham ul va bir jilvasi bila naq-di hayotin olg‘uvchi ham ul. Va oshiq mundoq baloning giriftori va mundoq ofatning beixtiyori, mundoq to‘fonning g‘ariqi va bu nav’ soiqaning hariqi, mundoq g‘addorning zabuni va bu nav’ devkirdorning majnuni. Va munungdek oshubning sheftasi va bu yanglig‘ qotilning fireftasi, bu tavr xunrezning haloki va bu turluk baloangezning dardnoki.

Ishq ko‘histoni bedodining noshodlaridin biri Farhod-dur va sahroyi jununning zabunlaridin biri Majnundur. Va shabiston savdosi devonalaridin biri parvona va guliston havosi noshikeblaridin biri andalibi devona. Va otash-goh harorati garmravlaridin biri Xusravi nomiy va mayka-da dardmandligi nomiyalaridin biri Jomiy (navvarallohu marqadahu nuran vaffaqanallohu tariqa shiorihim va ahdo-na li-suluki osorihim!)

B a y t:

*Ki, to bo ‘lg‘ay bular bir-birlari birla qarin bo ‘lsun,
Samandarlar kibi ishq o ‘ti ichra hamnishin bo ‘lsun.*

Bu ta’rif qilg‘on ishq va bu bayon etgan ahli ishq ma’shuq vujudi birla qoyimdurlar va bu ado topqon holotg‘a mansubluqlari doyim. Va ul ma’shuq husndin iboratdurkim «Innaloha jamilun yuhibb ul-jamoaa»³² an-din xabar berurkim, ishq bu e’tibor-u jaloli bila va bu ix-tiyor-u istiqloli bila husn saropardayi kibriyo va borgohi

istig‘nosi tegrasida bir bandayi chovush va bir kaminayi halqabago‘shdurkim, har qachon husn sultoni mahbublug‘ niqoblaridin va masturlug‘ hijoblaridin chiqmoq asbobin tuzsa va zuhur tajallisi bila jilvagar ko‘rguzsa, ul nur oshiqi mahjur ko‘zi ravzani shishalari ravzan ko‘zin, ko‘zi shishalaridek hayron qilib ishqibebok ayyori ul ravzan yo‘lidin o‘zin ko‘ngul ma’murasig‘a toshlar va ul ma’murada xarobliq og‘oz qilib, xirad va hush xaylig‘a qo‘zg‘alon sola boshlar. Ul ma’lum emaskim, husn sultonining bu zolim chovushi bedodidin ul mulk ahlining mazlumlari netgay va hollari aning tashaddudi suubatidin ne yerga yetgay. Bovujidi bu hol ul kishvarning asirlari va ul mulkning qatlu toroj ko‘rgan ahli faza’ va nafirliari ul jilva mayidin masti bexud va ul jamol tamoshosidin volavu hayron bo‘lib, aning havosig‘a mash’uf va aning tamoshosig‘a mag‘lub bo‘lurlar.

Emdikim, ul kishvarni tasxir qildi va ul mulk ahlin yag‘moda asir etti, yana ul sulton jilvagoh fazoyi Eramidin xilvatgoh xafosi haramig‘a mayl etib, hamul nur va zulmat pardalarig‘a yuzlansa va jamol quyoshin hamul shabanduz niqob sahoblarig‘a yoshursa va bu turktoz topib, musaxxar bo‘lg‘on mulk ahlig‘a va bu qatl-u toroj ko‘rub, buzulg‘on kishvar eliga ul tamoshho xirmanidin va ul nazzora imtidodi armonidin rustoxeze to‘sħlang‘ay va qiyomate yuzlangay-kim, jaza’i akbar-u vovaylosi va oshub va faza’i mahsharda shavqosi alarning nihodidin falaki g‘addorg‘a mayl etgay va bu sipehri davvorg‘a yetgay. Bu holatedurkim, munung shiddati taqriridin nari va suubati tahriridin tashqaridurkim, muni ko‘rmagan kishi bilmas va munga yetmagan bovar qilmaskim, hijron-u firoq mundin iboratdур va ishqqa marotibdur va ul uch qism bila munqasim bo‘lur.

Avvalg‘i qism. Avom ishqidurkim, avomunnos orasida bu mashhur va shoye’durkim, derlar: «Falon falong‘a oshiq bo‘lubtur». Va bu nav’ kishi har nav’ kishig‘a bo‘lsa

bo‘lur, shag‘ab va iztiroblaricha lazzati jismoniy va shahvati nafsoniy emish va bu qismning biyikrak martabasi shar’iy nikohdurkim, bari xaloyiqqa sunnatdur va muboh. Va pastroq martabasida parishonliq va mushavvashliqlar va besomonliq va noxushliqlareki, zikri tarki adabdur va bayoni behijobliqqa sabab.

Ikkinci qism. Xavoss ishqidurkim, xavoss ul ishqqa mansubdurlar. Ul pok ko‘zni pok nazar bila pok yuzga solmoqdur va pok ko‘ngul ul pok yuz oshubidin qo‘zg‘olmoq va bu pok mazhar vositasi bila oshiqi pokboz mahbubi haqiqiy pok jamolidin bahra olmoq. Ishq ahlining pokbozlari va shavq-u niyoz ahlining nazmtiroz va afsonapardozlari mutaqaddimindin andoqkim, nazm beshasining g‘azanfari va dard-u ishq otashkadasining samandari va zavq-u hol vodiysining pokravi Amir Xusrav Dehlaviydurkim, pok nafas va guftori, pok alfoz va maoniyliq ash’ori ishq ahli arosida g‘avg‘o va vajd-u hol anjumani fazosida alolo solidur.

Yana so‘zi pok-u, ko‘zi pok ishq ahlida mujarrad va munfarid va bebok bu toifaning benazir-u adil va toqi faxrul-millatu va-d-din Shayx Iroqiydurkim³³, ishq sifotig‘a muttasifdur va «Lamaot»i pok maoniy va tarokibig‘a muttasifdur.

Va mutaaxxirindin ikki olamni bir dov bila o‘ynag‘on muqammirshevalar pokbozi va ishq dayri fanosida haqiqat bodasidin mast rindlar hamrozi shamsul-millati va-d-din Xoja Hofiz Sheroziydur.

Dunyo va oxiratni bir oh ila o‘rtagan pok oshiqlar imomi va mulk va malakutda soyirlar shayx ul-islomi hazrati murshidiy va maxdumiylar nur ul-millat va-d-din Abdurahmon Jomiydurkim (navvarallohu marqaduhu), agarchi alar vasfi nazmg‘a nisbat berurdin yuqoriroqdur, ammo har sinf nazmda benazir erdilar va nechaki ta’riflari she’rda mahoratdin tashqaridur va lekin har uslub va she’rda jahongir erdilar.

Va nazmlarida har she'r bila ishq o'tin olamg'a urubturlar va she'rlarida har bayt bila dard ahli jon-u ko'ngul olamin kuydurubdurlar.

Yana ul hazrat jomi muhabbatidin durdkashlar va irshodi sulukidin foniyyashlarkim, dard-u ishq tavri adosida guftorlari turk ulusida haroratomiz va sort xaylida ofatangizdur.

Borining g'arazi guftorlari ashg'olidin va ash'orlari qiy'l-u qolidin bu ishq izhoridur. Va barchaning shavq-u ano yolinidin ajz-u niyozliq holoti va dard-u balo choqinidin so'z-u gudozg'a mubohoti o'zin bu ishqqa mansub qilmoqdur, balki ko'runur bu ishq olamida oshiqliqning sa'b holi va ma'shuqning mufrifti vasfi jamoli har birida har birining ajab holoti va g'arib xayoloti va g'oyatsiz bulajablar va niho-yatsiz rang-u taablarga yuzlanibdur va aning izhori lozim kelibdur. Ul jumladin, ma'shuq husn-u jamolining benihoyatlig'i va noz-u istig'nosining behaddu g'oyatlig'i. Va andoq ahvolkim, munga muvofiq bo'lg'ay, andin so'ng oshiq dard-u shavqining farovonlig'i va ajzu niyoz va so'z-u gu-dozining bepoyonlig'i. Va har umurkim, anga munosibdur, yana ikkalasining bir-biriga imtizoji va tarkibidin va ixtisosи va parti-bidin vuqu' topqon holot adosida va yuz ko'rguzgan mushkilot imlosidakim, har birida agar kitoblar tasnif qililsa va mujalladlar tarkib etilsa, hanuz ulcha aning adosining haqqidur tahrirg'a keturmak, taqrir qalamin surmak mutag'ayyir ko'runur, balki mutaazzirdur. Va koinot bozorining g'avg'osi va unsuriyot chorsusining alolosi bu takallum va tarannum biladur va munsiz inson kalomi tanedur jonsiz va bashar alfoz va iboroti chamanedur gul-u rayhonsiz.

So'zkiem, nazm choshnisidin harorati bo'lmag'ay va nazmkim ishq haroratidin hirqati bo'lmagay, nursiz sham' bil va sarvarsiz jam' gumon qil. Hosilkim, so'zga bu tarona-

dur va mundin o‘zga barcha afsonadur va so‘z ishq so‘zidur va ko‘ngulda hayot nash’asi ishq o‘zidur.

B a y t:

*So‘zki ma‘nisida ishq o‘ti nishoni bo‘lmag‘ay,
Bir taharruksiz badan onglaki, joni bo‘lmag‘ay.*

H i k o y a t: Majnun ishqisi o‘ti hijron gudozig‘a ulashti, zaif badanig‘a ul haroratdin isitma shu’lasi tutashti. Har muolajakim qildilar sud etmadi, maraz ortti va isitmasi ketmadi. Chun bemor ishi naz’ holig‘a yetti, birov ul holdin Laylig‘a xabar etti. Parivashni ul xabar noshod qildi, devonasin so‘rarg‘a noma savod qildi, qosikim ul nomani Majnung‘a yetkurub berdi, ruhdin tanida ramaq yo‘q erdi. Mehribonlarkim, nomani mutolaa qildilar, bemorg‘a istimoidin asar bildilar. Har kimki ani takror etar erdi, ul nafasdin bemor tanig‘a ruh yetar erdi. Ul damkim, ishi hirz va duodin o‘tdi, ma’shuq nomasi hirz va duo yerin tutti.

Mariz za’fdin sihhat topkuncha takror qildi, chun sihhat topti, bo‘ynig‘a tumor qildi. Ishq so‘zidin marazi sihhat topti va ul so‘z takroridin badani quvvat.

B a y t:

*Oshiqqa garchi za‘f-u marazliqdurur mizoj,
Ma‘shuq zikri ul marazig‘a erur iloj.*

Uchunchi qism. Siddiqlar³⁴ ishqidurkim, alar Haqning tajalliyoti jamolig‘a mazohir vositasidin ayru vola va mag‘lubdurlar. Va ul mushohada bexudlig‘ida alardin shuur, alardin maslub. Shuhudlari istig‘roqqa yetgan va ul istig‘roqdin istihloq maqomin hosil etgan. Agar havodis

yeli sipehr gulshani avroqin uchursa, alarg‘a andin xabar yo‘q va anjum gulbarglarin har sorisovursa alarg‘a andin asar yo‘q. Xavosslari nokor tajalliyot jamoli sadamotidin va shavqlari nomiqdor ishq hujumi g‘alabotidin. Anbiyoyi mursalin yetgandin nazarlarin maqsuddin olmay va malo-yikayi muqarrabin o‘tgandin nazarlarin ul sari solmay. Hollari matlub mushohadayi jamoli va ishtig‘ollari ham aning mulohazayi sanoye’ va kamoli visol mayi ro‘zidin ko‘ngullari bexud va mast, mutaoqib tajalliyot satvatidin a’zolarida shikast. Vasl bodasidin o‘zga ruhlariga kom yo‘q va Haq mushohadasidin o‘zga ko‘ngullariga orom yo‘q. Bulardur ishqda vasldin kom topqon va «inda malikin muqtadirin» maqomida orom topqon. Va bu toifani vosillar debdurlar, ishqdin vasl maqsudi hosillar.

H i k o y a t: Haj sharafin hosil qilg‘an mashoyix va avliyo alayhimut tahiyyatu va-d-duo Arofatda munojot qilib, har qaysi bir murod istar erdi va o‘zlar uchun bir tilak tilar erdi. Va ko‘pning duosi bu erdikim: – Ilohi, bizga tavfiqing birla hamrohlig‘ ber va o‘z haqiqatingdin ogohlig‘. Va Qutb us-solikin va sulton ul-orifin irfon tariqida avliyodin mumtoz Shayx Abu Said Xarroz³⁵ (quddisa sirrahul-aziz) og‘zida sukut muhri zohir va jamoli tajalliyotqa mustag‘riq va mutahayyir turub erdi, ko‘zin osmong‘a urub erdi. Birov dedikim: – Yo Shayx, bu mahal duo maqbuldur va bori mashoyix duog‘a mashg‘ul. Sen nechuk dam urmassen va duo raxshin ijobat maydonig‘a surmassen. Shayx (quddisa sirruhu) dedikim: – Har ne bu xaloyiq duo bila tilaydurlar, borini manga beribduri, balki ortug‘roq ko‘nglum uyida beribduri. Andin ne istay va duo qilib ne tilay? Alarki, ogohlig‘ tilaydurlar, manga matlub. Bir zamon g‘aflatduri va o‘z holima evrulgali bir nafas muhlatdurkim, aning vujudi tajalliyisi sadamotidin betob-u tavonmen va ul og‘ir yuk ostida xasdek notavonmenkim, aning jamoli hayratidin

o‘zumdin xabarim yo‘qtur va o‘zlugumdin asarim yo‘qtur. Ishqning g‘oyati bu yergachadur va oshiqqa vaslning ni-hoyati bu so‘zni dergachadur. Bu oshiqlarkim, Haq ollinda qabul ahlidurlar va tariqat mashoyixi istilohotida vusul ahli-durlar, bularni Tengriga oshiq desa bo‘lur, mahbub ham va Haqg‘a tolib ot qo‘ysa bo‘lur, matlub ham.

R u b o i y:

*Bu yerga yetursa bandasin lutfi iloh,
Tahqiq bilur har kishikim bor ogoh
Kim, topmas aning ollida mayjud sivo(h)
Ul qoldi-yu, Tengri qoldi, Alloh-Alloh!*

Uchinchi qism

MUTAFARRIQA FAVOYID VA AMSOL VA SURATI

Joh istig‘nosig‘a davr Tengri taoloning mulk-u mala-kutining taammulidur va kibr ibtilosig‘a iloj ham aning kibriyo-u jabarutining taaqquli bo‘la olur.

Saodatmand agar olim bo‘lsa, nodonlar so‘zi anga muji-bi ibrat va e’tibor; besaodat johil bo‘lsa, olim so‘zidin anga or. Va fi-l-haqiqat, johilliqdin besaodatliqroq ne nima bor?! Ulki o‘zin begangay zihi g‘abovat va ulki o‘z so‘zin began-gay, zihi shaqovat! Olam ahli o‘zлари qoshida mahbubdurlar va so‘zлари o‘z ilaylarida marg‘ub. Va bashar jinsi bu sifatg‘a majhuldurlar va nafslari beixtiyor bu da‘vog‘a mashg‘ul.

T a n b e h (1).

Andinki nafs komidur va nafsoniyat maqomidur. Hech kim o‘z ko‘nglig‘a g‘am tilamas va o‘z nafsig‘a alam

istamas. Ammo o‘zganing sharif zotig‘a behad mazallat ko‘rsa, oncha tafovut qilmaski, o‘ziga juzviy shiddat va yana bir aziz nafsig‘a beadad mehnat anglasa, oncha mutaassir bo‘lmaski, o‘ziga oz kulfat. Va barchag‘a o‘zgadin o‘zi azizroq va o‘zgalar so‘zidin o‘z so‘zi lazizroq. Olam yaxshiligin kishi o‘zidin darig‘ tutmas, ammo o‘zga kishiga yovutmas.

T a n b e h (2).

Eranlar yasanmog‘ikim, namoyish uchundur, xotinlar bezanmagidekdurki, oroyish uchundur. Agarchi bu ma’no ikkalasiga qabihdur, ammo eranlarg‘a ko‘prak mujibi tafzihdur. Barcha o‘z namoyish va oroyishig‘a alil va bu o‘z qoshlarida mahbubluqqa ravshan dalil.

Shoirki, harzasi kulmakka loyiq, o‘z xayolida Sa’diy va Xusravg‘a foyiq. Kotibki kalog‘poyi zog‘i mulavvas ayog‘idin mankubroq, o‘z olida Ja‘far¹ va Azhar² xatidin mahbubroq. Musavvirki, muvahhishdur suratining yamoni, o‘z tasvirida Abdulhaydur³ va Moniy⁴. Muzahhibki, xitoyisi xatodur va farangisi qalam ahlining nangi, Atoridg‘a⁵ ta’n urmoqdur so‘zining rangi. Har peshavarg‘akim, hunari ta’rifida mubolag‘a voqe’dur, ul ta’rif, fi-l-haqiqat, o‘z nafsig‘a roje’dur. Jadal ahlining madrasasida qiyл-u qoli ham xudpisandliqqa tortar maoli, bu aning so‘zin rad qilur va ul munung so‘zin, har qaysi beganur o‘z so‘zin va o‘zin.

T a n b e h (3).

Xudpisand – noxiradmand. Xud oro – shohidi ra’no. Mustag‘niy – mag‘bun, mutakabbir – mal’un. Shahvatparast – nafsg‘a zerdast. Xudparast – butparast. Bu balolardin nafsin fano qutqarur va bu muhlikalardin najot sari boshqarur.

T a n b e h (4).

Fano ahlig‘a ko‘p aytmoq marduddur va ko‘p eshitmak matlub va mahmud. Eshitmak elni to‘la qilur va aytmoq xoli, eshitguvchi va aytguvchining budur holi. Ko‘p degan ko‘p yangilur va ko‘p yegan ko‘p yiqilur.

Qolab amrozining moddasi ko‘p yemakdur va qalb amrozining moddasi ko‘p demak. Ko‘p demak so‘zga mag‘-rurluq va ko‘p yemak nafsg‘a ma’murluq. Odamiyg‘a bu sifatlar zavoid, barchasi xudparastliqqa oid.

T a n b e h (5).

Xudparastliqki, erur moddayi idbor, munda dag‘i tafovut va marotib bor. Xudpisandki, ne qilg‘oni o‘ziga xo‘bdur, bu napisand fe’lg‘a tafovut ko‘pdur. Agarchi anga ko‘p aqsom lozim bo‘lur, ammo bu yerda ixtisor uchun qismg‘a munqasim bo‘lur.

Avvalg‘i qism uldirkim, o‘zining aqvoli va af‘oli va ashkoli har nekim bor, o‘ziga xo‘b ko‘rungay, agarchi elga mardud bo‘lg‘ay, anga mahbub va marg‘ub ko‘rungay, andoqliki, mazkur bo‘ldi va avroqqa mastur.

Ikkinchı qism uldurki, jami‘i holoti noxush xayoloti o‘ziga pisandida va raboyanda, mustahsan va xush oyanda ko‘rungay. Va ul qaboyihni yaxshi deb o‘kungay. Karih zot o‘zin Yusufi Kan’oniy⁶ degay. Va «ankarul-asvot»⁷ unin Yusufi Andigoniy⁸ altoni. Nomavzun abyotin Salmonning⁹ «Masnu» qasidasidin yaxshiroq bilgay va bema’n ni hazonin Jorulloh¹⁰ bitgan «Kashshof»¹¹ gumon qilg‘ay.

Haqning hech amrig‘a bo‘yun qo‘ymag‘ay va shayotining barcha buyrug‘in bajo keltururdin to‘ymag‘ay.

O‘z ollida dono va chechan va har nomaqbul qiladurg‘oni anga ma‘qul va mustahsan. Mayg‘a haris, badmast va muzmin, majlisig‘a giriftor bo‘lg‘onning qutulmog‘i nomumkin.

Nomuborak bazmig‘a ulki giriftor bo‘lg‘ay, nomatbu’ harakotidin umridin bezor bo‘lg‘ay. Majlisida o‘kta hukmlar surar chog‘i, barcha ijroyi ahkom bir, bu dog‘i, giriftor majlisidin qo‘parga suruk qaltaboni mone’ va agar ani g‘ofil qilib eshigiga yetsa, darboni mone’. Mubtalog‘a baloye tushgayki, o‘lumni ko‘ziga to‘tiyo qilg‘ay, o‘lturub bu balodin seni qutqoray deganga jonin fido qilg‘ay. Gar qutulsa, Rum, balki Faranggacha turmag‘ay, yana majlis agar bihisht bo‘lsa, ul yon qadam urmag‘ay.

Bu xudpisandi badkirdor va bu lavandi murdor bu palid majlisidakim, zindon andin yaxshiroq va bu najasiy mahallidakim, mustaroh andin arig‘roqdur, agar ilayidin kekirsa va keynidin o‘zga yel sekirsa, o‘z qoshida mahbublug‘i ul martabada va o‘z af‘olining xo‘blug‘i o‘z ollida ul masobadakim, tama‘i bukim, bazmidag‘i hozirlar va bu ahvol va af‘olig‘a voqif va nozirlar bu voqe’ bo‘lg‘on harakotning ham unin dilpisand degaylar, ham royihasin dimoqqa sudmand degaylor. Bu qaboyihni kishi anga ayta olmag‘ay va ayta olg‘onning so‘ziga qulq solmag‘ay va eshitsa ham, musallam tutmag‘ay va nomuloyim ishini o‘z «sharif zotig‘a» yovutmag‘ay. Nosihg‘a izo va qasd etgay va bu nasihatdin anga ko‘p mazallat yetkay. Bu nav’ kishiki, anga mundoq bo‘lg‘ay kirdor, holo bu davrda mavjud va hozir bor.

Bu tavrda yana azizlar ham jilva qilurlarkim, zamon ahli taammul qilsalar borin bilurlar. Agar ba‘zi mazkur bo‘lg‘on azizzin kichik bo‘lsa, ba‘zisi uluqtur va agar ba‘zi ishlari andin o‘ksuk bo‘lsa ba‘zisi ortuqdurkim, ko‘piga bu faqiri mazlum nomaqdur rioyerlar yetkurubdur va muqobala da nomahsur zulm va taaddilarin ko‘rubdur va ko‘rmasga solib kechurubdurkim, Tengri alarni insof haramig‘a xos qilg‘ay yo bu mazlumni va soyir mazlumlarni alar zulmidin xalos qilg‘ay.

Bu mazkur bo‘lg‘on af’ol va bu mastur bo‘lg‘on xisol bar-cha kishi qoshida o‘z mahbublig‘idindur va nafsi shayton amri-g‘a ma’mur va mag‘lublig‘idindurkim, majmuyi zamoyim af’ol munga doxildur va barining daf‘i shikastalig‘ va fanodin hosil.

Q i t’ a:

*Kishiki topsa fano ko ‘rasi o ‘tig ‘a gudoz,
Agarchi zotida yuz nav ‘qalbi g ‘ashliq bor,
Vujudi oltuni ul qalb-u g ‘ashdin ayrilibon,
Ne javhariy ani ko ‘rsa topar tamom iyor.*

Uchinchi qism. Bu nav’ ishda mufrit bee’tidollikkdur, ul ham uch nav’dur.

Avvalgi nav – bu mazkur bo‘lg‘on atvorda mufrit be-e’tidolliq tuzmakdur va ul g‘oyatqacha ifrot ko‘rguzmak-durki, boshig‘a saltanat havosi bunyod bo‘lg‘ay va ul bosh bu havo bila barbod bo‘lg‘ay. Va bu nav’ ko‘p bexirad nodonlar o‘zlarin sharif-u aziz tasavvur qilg‘an uyla qaltabon-lar azizu sharif umr tarkin qildilar va mazzallat va xorliq bila siyosat dorig‘a osildilar va toj xayoli bila boshlarin tark et-tilar adam mulki taxtgohip‘a kettilar.

Ikkinci nav’ – bu jamoatdin mutahavvirroq va bu gu-ruhdin xudpisandroq va mutakabbirroq. Ul xayledurkim, nubuvvat da’visi maydonig‘a markab surdilar va bu fosid xayol qal’asi burjiga alam urdilar va shu’badalariga e’joz tuhmati bog‘ladilar va bema’ni harzalarini vahy kisvatida jilva berdilar. Va har xoin kozibki, bu da’vi qila kirishti an-biyo arvohidin anga jazo va rasvoliqlar yetishti. Va do‘zax-qqa yetmasdin burun ba’zini kuydurdilar va ba’zini so‘ydur-dilar va kulini ko‘kka sovurdilar va alarning fitnasi o‘tin o‘chirdilar.

Uchinchi nav' – bulardin dag'i g'aflatkirdorroq va la'natqa sazovorroq ham o'tubturlarkim, g'arib da'vi yo'lin tutubturlar. Andoqkim, Fir'avni beavn va Namrudi mardud. Yana ham bulardek beadab va behayolarkim, qilib sahv-u xatolar og'izlarig'a tosh va tufrog'kim, mazkur bo'la olmas ishga da'vi va loflar urdilar va da'vilar ustida gazoflar surdilar. Oxir xudovandi bemisl-u monandkim, anga yo'qtur shabih va sharik va valid va farzand, yaktoyedur behamto, beishtiboh-u ikroh (vahdahu lo sharika lahu lo iloha illolloh)¹² g'ayrati ilohiy va g'azabi nomutanohiy bila alarg'a ham ne rasvolig'lar nasib etti va dark ul-asfalg'a ketib, ishlari ne yerga yetti.

y t:

*Zarradin ming qatla kamrakkim, quyoshliq ursa lof,
Kimki bo'lsa zarra aqli bilurkim der gazof.*

T a n b e h (6).

Subhonalloh, ne vasi' dargoh va ne rafi' borgohdurkim, anda pil xartumi pashsha xartumig'a zabundur. Ne ajab, agar aql sarkashi mabhut va ilmi sarnigundur aningkim, yuz qilola pili bor erdi, yarim pashshayi muhlik nishig'a zabun va zor erdi. Bu da'vig'a ul ravshan dalildur «as'hobi fil» voqiasi bila «tayran abobil»dur.

T a n b e h (7).

Har nekim, baqosi payvasta emas, parastishg'a shoyista emas. Har nekim, bir o'zidekka muhtojdur, uluhiyat va kishvaridin ixrojdur. Tengridurkim, kishiga o'xshamas va kishi anga o'xshamas. Ulki, bu nav' emas, tengrilikka yaramas. Uldurkim, ne kishi anga o'xshar, ne ul kishiga o'xshar. Har oyinakim, hech kishining hech ishi o'xshamas aning hech ishiga. Ne anga zamon-u makon ehtimoli, ne zamon-u

makon andin xoli. Ne xalo aning yeridur, ne malo. Ammo xalo va ham malo andin to'lo. Kibriyo va jabarut asosi xoliqi Jabbordur. Bu sifatqa ul sazo va bu sifat anga sazovordur. (Jallat jalaluhu ammat nuamouhu va la ilaha g'ayruhu)¹³.

T a n b e h (8).

Takabbr shayton ishi va biyiklik nodon ishi. Mutakkabir Tengri do'stlari ollida mat'un va Tengri qoshida mardud va mal'un. Xudpisand, ishi bari elga napisand. Bilikig'a mag'rur, bilur elga ma'yub va Tengrig'a maqhur. Butparastliq, yaxshiroqkim xudparastliq.

T a n b e h (9).

Yana bir amri azim ehsondurkim, aning bayonida ko'p so'z ayondur. «Al-inson-u abid ul-ehson» anga dol va «hal jazo ul-ehson illal al ehson»¹⁴ anga guvohi hol. Jami' mazohib va milal ahli qoshida sobitdurkim, yaxshiliq jazosi yo'qtur – bajuz yaxshiliq va nubuvvati lison mu'jaz bayonig'a dag'i bu ishorat o'tubdurkim, «Ahsin kama ahsanal-lohu ilayka»¹⁵ ul Hazrat mundoq amr etibdurki, yaxshilik yetkur andoqkim, Tengridin sanga yaxshiliq yetibdур. Bu amr sifatig'a mavsuf bo'lmoqqadur, mundin azimroq amr ne nav' bo'la olur va anbiyo va hukamo va avliyo va uqalo va ulamo dag'i munga muttaffiqdurlar va hech kishi muxolifat qilmaydurlar va mundin ehson tariq bilmaydurlar.

Ehson sifati saodati abad bil, fitna va ofat ya'juji daf'ig'a sadd bil. Insoniyat bog'ining dilpisandroq shajari ehsondur va odamiyliq konining arjumandroq gavhari ham ehsondur. Jam'ii pisandida sifot va mustahsan holot ehsong'a tobe'dur va aning zimnida mundarij va voqe'dur; ul barcha yaxshiliqlarg'a jome' va bari yaxshiligidilar, fi-l-haqiqat, anga roje'.

Q i t' a:

*Ajab sifat erur ehsonki har sharif sifat
Ki, kelsa jinsi bashardin anga erur doxil.*

*Javohir angla sifot oni javhariy qafasi
Ki, bordur anda qayu birni istasang hosil.*

T a n b e h (10).

Ammo bu zamon va davronda yo davroni zamon in-qilob va qusuridin yo davron va zamon ahli xirad va in-soniyat futuridin, holo bu varaq evrulubtur va bu qaziya bar aks bo'lubtur, yaxshilik jazosi xushunatdin o'zga va mu-loyamat podoshi takabbur va ruunatdin o'zga naqsh tutmas va surat bog'lamas. Har kimgakim, bir xizmat qilding o'n shiddatg'a muhayyo turmoq kerak va har kishiga yuz mu-loyamat ko'rguzdung ming g'ilzat va kuduratg'a salo ur-moq kerak.

Anikim, bir duo qilding, ko'p qarg'ish bila qutulmoq yo'qtur. Birovgakim, bir madh deding, o'n zam bila xalos bo'lmoq yo'qtur. Bir sog'ar may bergandin qadah-qadah xunob yutmoq kerak va bir qadah no'sh ichirgandin ayoq-ayoq zahrg'a o'zin omoda tutmoq kerak. Har nav' xidmat-korliq qilib, muqobalada yuz jafo ham ko'rsang yana xidmat ko'z tutarlar. Va har kimga vafodorliq qilib, o'truda ranj-u ano ham cheksang, yana ubudiyat tama' qilurlar.

Har vafog'a yuz jafo tortmasang, gunahkorsen va har mehr-u muhabbatg'a ming dard-u mehnat qabul qilmasang, tabah ro'zgorsen. Alarg'a jon fido qilsang, shukronayi jong'a minnat qo'ymoq tilarlar, agar bu shukronanyi ado qilmasang, takrorg'a shuru' qilmoq istarlar. Yuz muddaolari hosil bo'lub, biri qolsa, boshdin ayoq muqassirsen. Ming orzulari butub, kishi bir uzr arog'a solsa ayoqdin bosh

mudbirsen. Yamonliq qilg‘onlarg‘a necha ming niyoz ko‘rguzsang sening ishingdin yamonroq hech kishining ishi yo‘q. Joningni do‘sslug‘larida bermasang, dushmani joning erurlar, xotirlari uchun nohaq qong‘a rozi bo‘lmasang, qoningg‘a tonug‘luq berurlar. Doim tilaganlaridek qilg‘ong‘a bir qatla ta’xir bo‘lsa, shikoyat va tashni'lari shoye’ va mudom istaganlaridek qilg‘oningg‘a bir navbat taqsir bo‘lsa, umrungda qilg‘onlaring bari zoye’. Payopay olmoq alarg‘a hunar, yuzdin biriga evaz xayolidin ko‘ngullariga zarar.

Emgaklarig‘a ko‘p chidasang, oting beidrok, takliflaridin oz yod etsang, zotingg‘a tuhmat va imsok. Borlar molingni fidolari qilsang bir qatla sahv din unut-sang, laqabing bemuruvvat. Jafolari muqobalasida uzr-xohliqqa jon bermasang, xitobing behamiyat. Boshlari-g‘a gul sochsang, alardin yuzungga tikan sanchilur, agar ul gul sochmog‘ni bas qilsang, bag‘ringga cho‘kur tiki-lur. Mutaoqib niyozlarga mutavotir noz peshalari va payopay sitamlarig‘a damodam lutfu karam ko‘z tutmoq andishalari. Bechora ul mazlumkim, bu zulmkeshlarga giriftor va bu sitamandeshlarga farmonbardor bo‘lg‘ay, bular jafosin bu jafokash jonidin so‘r va sitamlari jarohatlari majruh bag‘ri zaxmidin ko‘r.

Q i t’ a:

*Jafolarkim, mening jonimg‘a yetmish dahr xalqidin,
Biri kuffordin kelmas asir o‘lg‘on musulmong‘a.
Ne bedodikim, istarlar qilib so‘ngra o‘kush tuhmat,
Dag‘i yuklarlar oxir bu jafokash zor-u hayrong‘a.
Bu bedod ahlidin gar jon berib maxlas erur mumkin,
Qilib jonni fido, billahki, minnat qo‘yg‘amen jong‘a.*

T a n b e h (11).

Saxovat va himmat bobida

Saxovat insoniyat bog‘ining borvar shajaridur, balki ul shajarning mufid samaridur. Odamiyliq kishvarining bahri mavjvari, balki ul mavj bahrining samin gavhari. Saxovatsiz kishi – yog‘insiz abri bahor va royihasiz mushki totor. Mevasiz yig‘och hamon-u o‘tun hamon va yog‘insiz bulut hamon-u tutun hamon. Saxoniz kishi birla gavharsiz sadafning bir hukmi bor. Dursiz sadaf bila o‘lub qurug‘on kashafg‘a ne e’tibor.

Baxil behishtqa kirmas agar sayyidi qurayshiy bo‘lsun va saxiy tamug‘ga bormas, agarchi bandayi habashiy bo‘lsun. Saxiy bulutdur – ishi xirman, balki maxzan bermak. Baxil mo‘rdur – da’bi xo‘sha balki dona termak. Himmel ahlig‘adur saxovat ixtisosi va bu ikki sharif sifat shohi valoyat xosi. Saxovat odamig‘a badandur va himmat anga ruh va himmat ahlidin olamda yuz ming futuh. Himmatsiz kishi er sonida emas, ruhsiz badanni kishi tirik demas. Oliy himmat shohbozedur baland parvoz va behimmat sichqon sayyode yurtchi boz. Shunqor maskani shohning bilagi, yurtchi maqomi o‘luksaning sassig‘ badani va so‘ngagi.

Arslon ishi sayd urub sibo’ni to‘yg‘ormoq va sichqon varzishi diram o‘g‘urlab, tugunni axtarmoq. Sohibhimmat muflisliq bila past bo‘lmas, himmatsiz ganj topsa, biyiklarga hamdast bo‘lmas. Chinor ilgi xolilig‘idin biyikligiga ne nuqson va tufroqqa nihon ganjlari bila ne ulvi shon. Himmel ahlig‘a agarchi biyik kavkabadur, ammo saxovatg‘a necha martabadur. Isrof saxo emas va itlofnı ma’no ahli saxo demas. Haq molin kuydurganni devona derlar va yorug‘ kunda sham’i kofuriy yoqqanni aqldin begona derlar. Mubohot uchun bermak xudnamoliq va aning bila o‘zin saxiy demak behayoliq. Ulki el ko‘rmaguncha bermas – laimdur, sa-

xiy emas. Tilab berganni ham saxodin yiroq bil; ibrom bila bergandin bermaganni yaxshiroq bil. Birta o‘tmakni ikki bo‘lub, yarmin bir ochg‘a berganni saxiy de; o‘zi yemay barin muhtojga berganni axiy de.

T a n b e h (12).

Saxoni ne nav' qilurda

Hunarlarni topmoq – yedurmakdur va ayblarni yopmoq – kiydurmakdur. Mahallida bergen eski chortora to‘n – saxovat va bemahal bergen zarboft chorqab – shaqovat. Desangki, taoming zoye’ bo‘lmag‘ay – yedur va tilasangki, libosing eskirmagay – kiydur. Saxo tariyqin mazkur bo‘lg‘on so‘zla angla, ammo karam oyini va futuvvat rumsuni o‘zga angla.

T a n b e h (13).

Karam va futuvvat tariqida

Karam bir jafokashning shiddati yukin ko‘tarmakdur va ani ul suubatdin o‘tkarmakdur. Birovning mehnati xori hamlin qabul qilmoq va ul tikan no‘gidin guldek ochilmamoq va ul qilg‘onning tilga kelturmamoq va og‘izg‘a olmamoq va ul kishiga minnat qo‘ymamoq va aning yuziga solmamoq. Karam sifoti akram ul-akramin ishidur, sohib-karam kishi Haqning bu nav' sifatig‘a mutobe’ kishidur.

Bu davrda karam zabzası tarraflush do‘konidin o‘zga yerda topilmas va mehr guli sipehri tezko‘sh gulshanidin o‘zga yerda ochilmas. Karam bashar tab’ida noyob va nobuddur, bu sababdin karam ahli nopaydodur va nomavjuddur.

T a n b e h (14).

Karam «kof»in go‘iyo kimyo ibtidosidin olibdurlar va «ro»sin simurg‘ arosidin va «mim»in xo‘blar og‘zidin tutbturlar. Bu javharni olam ahlidin tilamak quyoshni zarradin tilamakdur va falakni suhodin istamak.

T a n b e h (15).

Muruvvat bobida

Ma’dumluqda muruvvat karamning urug‘-qayoshidur, balki tav’amon qarindoshidur. Ikkalasi chun el bevafoliq‘idin ogah bo‘lubtur, bulardin qochib adam mulki safariga hamroh bo‘lubtur. Sohibi karam ul nafis matoyidin ayirlurni saloh bilmaydur va sohibi muruvvat dag‘i ul sharif xalqidin ayirlmaydurkim, ikkalasi qayda bo‘lsalar Tengri panohida bo‘lsunlar, izzat va sharaf oromgohida.

T a n b e h (16).

Vafo bobida

Vafo ul sifatdurkim, karam va muruvvat xalqni onsiz ko‘rub itibdurlar va ani tilamakka adam mulki sori ketibdurlar.

Jahon gulshani vafo gulidin ziynatsizdur va bashariyat guli vafo royihasidin nakhatsiz. Vafo sham‘edurkim, dahr tiyra xokdonin yorutmaydur va zamon bevafolari ko‘ngli bila ulfat tutmaydur. Nargisedurki, davron chamanig‘a ko‘z solmaydur va ko‘ngullari g‘unchasida hiqd-u hasaddin o‘zga qolmaydur. Mahbubedur – pok xilqat, juz pok ko‘ngulga unsu ulfati yo‘q. Matlubedur – pokiza tiynat, juz pokiza fitratg‘a maylu rag‘bati yo‘q. Va ul bo‘lg‘on pok

ko‘ngulda qat’o kudurat va kulfat yo‘q. Durredur samin insoniyat tojiga zevar, olamda insoniyat nobud va javharidur otashin – odamiylik boshig‘a afsar, olam ahlida odamiyliq nomavjud.

Vafog‘a hayo bila payvastaliq, andoqliki, hayog‘a vafo bila vobastaliq.

T a n b e h (17).

Vafo zaylida va hayo zikrida

Karam va muruvvat ato va anodurlar, vafo va hayo ikki hamzod farzand. Har necha ul ikovga nur bila safodur, bu ikavga ittisol bila payvand. Har ko‘ngulnikim, vafo maskan qilur, hayo ham qilur va har maskandakim, ul topilur, bu ham topilur. Vafosizda hayo yo‘q, hayosizda vafo yo‘q. Har kimda bu ikki yo‘q – imon yo‘q va har kimda imon yo‘q – andin odamiyliq kelmoq imkon yo‘q. Umrkim, vafosizdur – andin umid ko‘zin yorutsa bo‘lmas, mahbubki bevakodur – andin jovidi visol tama’ tutsa bo‘lmas. Eranlar – ahli vafo va xotunlar – bevafo, komillar – ahli hayo va noqislar – behayو.

Vafo va hayo olam tiyra makonidin o‘tubdurlar va lomakon olamida makon tutubturlar. Va o‘zlarin bir-birlari bila ovutubturlar va qolq‘on vafosiz behayolar alarni unutubturlar.

Har kimgakim, bir vafo ko‘rguzdum, yuz bevafolig‘ ko‘rmaguncha qutulmadim. Va har kim bilakim bir mehr-u muhabbat oyini tuzdum, ming javr-u mazallat tortmag‘uncha xalos bo‘lmadim.

B a y t:

*Kimga qildim bir vafokim, yuz jafosin ko ‘rmadim?!
Ko ‘rguzub yuz mehr, ming dard-u balosin ko ‘rmadim?!*

Davr bevafolari javridin dod va dahr behayolari zulmidin fig‘on-u faryod! To olam binosidur bu o‘tg‘a hech kishi mencha o‘rtanmaydur, to bevafolig‘ ibtidosidur bu yoling‘a hech kim mendek churkanmaydur. Zamon ahli bevafolig‘ idin ko‘ksumda tunganlar va davron xayli behayolig‘ idin bag‘rimda tikanlar, har qaysig‘a raqam uray desam, Ayyub sabri anga vafo etmas va qalam suray desam, Nuh¹⁶ umrida tamomg‘a yetmas. Haq alarg‘a rahm va insof sari tavassul bergay yo bu mahrum jafokashg‘a sabr va tahammul bergay.

B a y t:

*Yo marhamat ul xayli sitamkorag‘a bergil,
Yo sabr-u tahammul meni bechorag‘a bergil.*

T a n b e h (18).

Hilm zikrida

Hilm inson vujudining favokihlig‘ bog‘idur, odamiylig‘ olamining javohirlig‘ tog‘i. Hilmni havodis dar-yosida kishilik kemasingning langari desa bo‘lur va insoniyat mezoni toshig‘a nisbat qilsa bo‘lur. Axloq shaxsining og‘ir baholig‘ libosidur va ul libos jinsining sangin debosi. Muxolif nafslar sarsari uchurmoqdin asrag‘uvchi va munofiq, bulhavaslar harzasi tundbodi sovurmoqdin saqlag‘uvchi. Xaloyiqdin kishiga mujibi ta‘zim va e’zoz va akobirdin asog‘irg‘a boisi iltifot va imtiyoz. Necha ulug‘ kishi tamashxur va tiybat qilsa, aning qoshida beshukuh va viqor. Nechakim, musin kishi hazl va xiffat ko‘rguzsa, aning qoshida beshavkat va bee’tibor. Ammo davron bog‘ining xas va xoshokoyinlari va yeldek besabot va tamkinlari ko‘ziga hilm

ahli og‘irliqqa mansub va garonjonliq bila ma’yubdurlar. Quyundek tufrog‘ni havog‘a sovururlar va ul sabuksorliq bila boshlarin ko‘kka yetkururlar. Tog‘ paykarin ayog‘ os-tig‘a olmoq oyinlari va dasht ajzasin havog‘a sovurmoq tamkinlari.

Yeldek har eshikdin kirarga orlari yo‘q, o‘tdek otash-donlig‘idin o‘zga shiorlari yo‘q. Yel agarchi lola tojin uchurg‘ay, ammo qиyo kamarig‘a neta olg‘ay. O‘t agarchi tog‘ etagin kuydurgay, ammo quyosh axtarig‘a nechuk yeta olg‘ay?

Haqgo‘y qushning tamkin bila zikr ayturi qoshida qar-lug‘ochning bemalol yangshamog‘i malolat keltirur va Mus’haf avroqin xirad piri tilovat qilurda laim tiflning yel-pug‘uch bila varaqni sovurmog‘i kudurat etkurur.

Ammo yel agar ko‘kka yetsun sabukbordur va bemiqdor va tog‘ agar tufroqqa botsunki, sohibviqordur, hilmshior. Aning zimnida, o‘tqa yoqqudek xas-u xoshok, munung javfida shoh tojig‘a tikilgudek la’li otashnok.

B a y t:

*Og‘irliq vaznidindur seldin g‘amsiz Hiriy tog‘i,
Yengillik fartidin barbod erur qomg‘oq yafrog‘i.*

T a n b e h (19).

Tengri do‘stlarining hikoyati va alar axloqining rivoyati afsonayedurkim, uyug‘on ko‘ngulni uyg‘otur va taronaye-durkim, xiralig‘idin qotgan ko‘zni yig‘latur, Yaxshilarg‘a erishmak – itni poklar chargasiga qotti va yomonlarg‘a qorishmoq – anbiyo avlodin jahannamg‘a uzatti.

T a n b e h (20).

Angakim, yaqin ko‘zi ko‘rdur, Tengri do‘stlarini ko‘ra olmas. Va angakim tavfiq oyog‘i langdur, Tengri yo‘lig‘a yugura olmas. Agar kishi podshoh yasog‘lig‘dur, ishining ilgari boruri inoyatg‘a bog‘lig‘dur.

T a n b e h (21).

Agar Haqdin inoyat bo‘lsa, qullar quli, shohlar shohi, agar Ul qo‘llamasa, olam shayx ush-shuyuxi olam nomayi siyohi. Luqmonki¹⁷, bir qul erdi, hikmat va nubuvvat bila farqin ko‘kka yetkurdi. Jolutqa aningdek ming qul erdi, g‘azab va siyosat tig‘i bila boshin yerga tushurdi.

T a n b e h (22).

Mazlumg‘a baxshoyish ko‘rguzki, zolimdin osoyish ko‘rgaysan. Zerdastlarga naf yetkur, agar tilasangki, za-bardastlardin zarar ko‘rmagaysen. Xiradmand muxolafatdin qochar va muvofaqatg‘a muloyamat eshigin ochar. Zanbur g‘avg‘osidin nish mutasavvardur va asal savdosidin no‘sh tuyassar.

T a n b e h (23).

Saodatmand ul yigitdurki, shahvat mayli qilmas, besoqdat qarining ilgidin xud hech ish kelmas.

T a n b e h (24).

Dard ahlining nafasi bir o‘tdurkim, qattiq ko‘ngulni yumshtatur va qurug‘ ko‘zni yig‘latur. Va so‘z ahlining dami bir yeldurki, anoniyat xoshogin sovurur va g‘azabiyat tuf-rog‘in supurur. Oshiq ishi ajz-u niyoz va ishq dalili so‘z-u gudoz. Parvonaga kuymak va o‘rtanmak oyin, bulbulg‘a nola-u zor va faryodi beixtiyordin qayda taskin? Kecha ishnar qurt zarbona ishin qilmas va ko‘palak parvona ishin bilmas.

B a y t:

*Kishi o'zni yasag 'on birla bo 'lurmu oshiq,
Subhi kozib yorumas, uylaki subhi sodiq.*

T a n b e h (25).

Har nekim, bebaqodur, anga ko'ngul bog'lamoq xatodur. Ulki andin o'zga borig'a ma'razi zavoldur. Ul Bir-u Bor «lam yazal va lo-yazol»¹⁸dur, aning ishqin berk tut. Ul boqiydin o'zga bori foniylarin unut.

B a y t:

*Aning ishqin berk tutmoq kerak,
Yana bor-u yo 'qni unutmoq kerak.*

T a n b e h (26).

Majoziy ishqqa bir mahbub bo'lg'ay, aning ishqida be-xud va mag'lub bo'lg'ay. Haqiqiy ishq beqarori va aning tajalliyoti sadamatining beixtiyori, qalaq va iztirobda anga yarasha kerak bo'lg'ay. Va g'alabot jazaboti ham anga o'xhashi kerak bo'lg'ay.

B a y t:

*Suhoning oshiqi chun nola etgay,
Quyoshning holig'a ko 'rkim, ne yetgay.*

T a n b e h (27).

Do'st visolin tilar bo'lsang, oshiq bo'l va agar o'zlungung bila bo'la olmasang, oshiqlari tegrasig'a o'grul. Ul o't shu'lsasi agar sanga havasdur, bir sharar sening sori yuzlansa basdur.

Qit'a:

*Ishq bir o 'tdurki, oning shu 'lasidin bir sharar,
Tushsa gardun pardasig 'a o 'rtar andoqkim harir.
Senki, jisming parda toridin dag 'i bo 'lg 'ay nahif,
Tushsa ul yanglig ' choqin tuzgaymu ul tori haqir.*

T a n b e h (28).

Eranlar xizmatig 'a ulki umrin sarf etar, agarchi umri ketar, ammo jovid umrig 'a yetar. O 'zungni bu zumradin yiroq tutma, boshing borsa bu muddaoni unutma. Umr foniydur bevafo, ul boqiy hayot mujibi baqo.

N a z m:

*Eranlar xizmatidin chekmagil bosh,
Agar boshingga gardundin yog 'ar tosh
Ki, gar ul tosh bila boshing ushalg 'ay,
Saodat xattidur, gar zaxmi qolg 'ay.*

T a n b e h (29).

Valine 'matqa ayb ravo ko 'rguvchi qul piriga murtad muriddur va atosig 'a haromzoda o 'g 'ul. Muridg 'a pir va o 'g 'ulg 'a ato va xodimg 'a maxdum haqqi andoqdurkim, bandalarg 'a Qodiri qayyum haqqi.

M a s n a v i y:

*Kimki ato amrig 'a qo 'ymas bo 'yun,
Pir ila maxdum ishin der o 'yun.
Bilki, chekar Tengri yo 'lidin ayoq,
Tengri bila oq bo 'lar, pir-la oq.*

T a n b e h (30).

Har kimki, birov bila yordur yoki yorlik da'viysida bordur, kerakkim, o'ziga ravo tutmog'onni yorig'a ravo tutmasa, ko'p nimakim, o'ziga ham ravo tutsa, anga tutmasa. Bas mashaqqatkim, andin ruhg'a alam yetar, kishi ani o'z jism-u jonig'a tajviz etar. Ammo ani yorig'a taxayyul qila olmas, agar taxayyul qilsa, vahshatidin hayoti qolmas.

Q i t' a:

*Yor uldurki, har nechakim o'ziga
Istamas, yorig'a ham istamagay.
O'zi istarki, yor uchun o'lgay.
Ani munda sharik aylamagay.*

T a n b e h (31).

Ko'ngul badan mulkining podshohidur, anga sihhat, munga ham sihhat, anga tabohi, munga ham tabohidur. Bas ulkim, ko'ngul mulkining sohibjohi bo'lg'ay shohlar shohi bo'lg'ay. Badan saloh va fasodi, ko'ngul saloh va fasodig'a tobe' va mulk obod va xaroblig'i shoh adl va zulmig'a roje'. Podshoh – mulk badanining jonidur va ko'ngul – badan mulkining sultoni.

B a y t:

*Mulk uchun solim keraktur xusravi kishvarpanoh,
Tan uchun ul uzvkim, bo'ldi badan mulkida shoh.*

T a n b e h (32).

Shohdin ham lutf marg'ubdur, ham siyosat matlubdur. Ammo harbirio'zmahallidaxo'bdur. Basangado'stdindush-

manni farq etarga ko‘p mulohaza kerak va farosat va yorni ag‘yordin tanirg‘a ko‘p tajriba kerak va kiyosat. Nechuk-kim, andin borig‘a biym va umid bor, zaruratdurkim, ko‘rguzgay o‘zin bandavor. Yaqin bo‘lg‘uncha har qaysining haqiqati holi – nomunosib umrning bor ehtimoli.

B a y t:

*Nogahon gar betaammul sursa bir hukmi anif
Kim, zaif andin qaviy yoxud qaviy bo ‘lg‘ay zaif.*

T a n b e h (33).

O‘kta hukmi birovni qilsa nobud, ul zamon pushaymon bo‘lmoq ne sud? Yo mahalsiz birovni qilsa oliv shon, bil-gandin so‘ng past etsa o‘z sha’nig‘adur ziyon.

B a y t:

*Taammul munda vojibdur bag ‘oyat
Ki, bo ‘lmaq‘ay bu nav’ish berioyat.*

T a n b e h (34).

Podshoh dushmang‘a andoq g‘azab surmamak kerakki, do‘sit ham andin emin bo‘lmaq‘ay va muxolifg‘a andoq si-yosat ko‘rguzmamak kerakki, muvofiq ham andin mutmain qolmag‘ay.

B a y t:

*Kerakmas muxolifg‘a oncha inod
Ki, qilg‘ay muvofiqni bee ‘timod.*

T a n b e h (35).

Fosiq olim donishvaredur o‘z nafsig‘a zolim, g‘aniyi baxil nodonedur, o‘z ziyonig‘a nodim. Bu ikki kishi umr zoye’ o‘tkardilar va go‘rga hasrat va armon olib bordilar. Biri ulkim, ilm o‘rganurga ranj tortti-yu amal qilmadi, biri ulkim, mol yig‘arg‘a emgak chekti-yu sarf qilurin bilmadi.

Q i t’ a:

*Olimekim, ilmi erdi beamal,
Yo g‘aniykim, molig‘a buxl erdi yor.
O‘ldilar yuz hasrat-u armon bila,
Elga bo‘ldi ishlaridin e‘tibor.*

T a n b e h (36).

Yamonlarg‘a lutf-u karam, yaxshilarg‘a mujibi zarar va alam. Mushukka riyot – kabutarg‘a ofatdur. Shag‘ol joni-bin tutmoq – tovuq tuxmin qurutmoqdur.

B a y t:

*Bo‘rini qo‘zi bila qilgan semiz,
Kiyik jam‘u xaylig‘adur rahmsiz.*

T a n b e h (37).

Ilm o‘rganmak din taqviyat uchundur, yo‘qki dunyo jamiyati uchun. Xayrsiz g‘aniy – yog‘insiz sahab va amalsiz olim – dobbaki anga yuklagaylar kitob.

B a y t:

*Hammol nafis raxt ila gar ursa qadam,
Yo‘q naf‘ anga g‘ayri muzd bir-ikki diram.*

T a n b e h (38).

Baxilning molin asrardin mehnati qatig‘ va hasudning fe’li uyotidin ayshi achig‘kim, ul o‘z anosidin zalildur va bu o‘z qilig‘idin alil.

B a y t:

*Anga molining hifzi ranj-u ano,
Munga fe’lining zishti dard-u balo.*

T a n b e h (39).

Kishi molidin nekim bahra oldi aningdur, har nekim asradi o‘zganing. Zahmat bila topqoningni o‘zungdin ayama va mehnat bila yiqqoningni do‘stlar bila, dushmanlar uchun asrama.

B a y t:

*Mol uldurkim, el andin topsa bahr,
Dushman andin topsa tengdur no ‘sh-u zahr.*

T a n b e h (40).

Uqalo salotin lutfig‘a e’timod qilmaydurlar va hukamo majonin qavlig‘a e’timod joyiz bilmaydurlarkim, ul biri sohibixtiyor va bu biri beixtiyor. Xiradmandg‘a ikkala-sidin ehtiroy qilmoq sazovor.

B a y t:

*Ul chu sohibixtiyor o’ldi-yu bu beixtiyor,
Ikkisida jazm-u hikmatning xilofi oshkor.*

T a n b e h (41).

Har dushvor ishki, mol sarf etmak bila muyassardur – qilmasang jong‘a xatardur, mol sarfin g‘animat bil va salomat sori azimat qil.

Q i t’ a:

*Diram bila bo‘la olsa zararni qaytarmoq,
Xatodurur kishi ul ishida aylamak ta‘til.
Aning panohig‘a kir, Tengrini panoh aylab,
Valek ayla bu xayr ish qilurda ko‘p ta‘jil.*

T a n b e h (42).

Har ish kifoyatidakim, saranjomida tashaddud bo‘lg‘ay va tab‘g‘a taraddud, ul jonibni tutkim, emgagi ozroq yuz bergay va ozori kamrak xotirg‘a kirg‘ay.

Dunyoga taalluq ishini sahl tut va din ishida sud tasavvuri bila ko‘ngulni ovut.

Nodon pandida g‘alat muqarrardur va dushman nasihatida firib mutasavvardur. Andin bozi yema va mundin o‘zungga bozi berma.

B a y t:

*Xushtur xiradi ko‘p el so‘ziga kirmak,
Ne bozi yemak xush-u ne bozi bermak.*

T a n b e h (43).

Nafsdin sanga zulm yetsa, nadomat eshikin och va Tengri panohiga qoch. Va tavba etokiga ilik ur. Ul tavba ustida mardona tur.

Q i t' a:

*Nafsi kofirdin nekim yetgay sanga,
Tavba aylab, tavbada mardona bo 'l.
Yo 'l ikidur, jurm birdur, tavba bir,
Ulyo 'l ar bog 'landi, ochug 'dur bu yo 'l.*

T a n b e h (44).

Agar bad nafsdin zulm yetsa, shukr vojib bil va Tengri hamdin ado qilkim, sen emassen lozim, gar biz ul emasdur mazlum va ojiz. Mazlumluq ibtilosida bo 'lg 'on yaxshiroq-kim, zolimliq balosida.

B a y t:

*Kishi ming zulm agar cheksa kerak bo 'lmasa qone',
Lek bir zulmg 'a ming nav 'kerak anglasa mone'.*

T a n b e h (45).

Zamon ahlidin o'zin sohibdil tutqon, yolg 'on aytur va bedil tutqonning ham so 'zi yolg 'onliq sori qaytur. Nevchunkim, ulki sohibdil, bu da 'vo zuhri andin mushkil va agar ul kishi zamon ahlining bedillig 'ig 'a yuraksizliq mahmil. Bu ko 'ngul sen xayol qilg 'on ko 'ngul emas, sohibdil yurakni ko 'ngul demas.

B a y t:

*Ham ani Dajjal topib, ham nabi,
Iso ila teng bo 'lurmuy markabi.*

T a n b e h (46).

Lahmi porayi sanubari agar ko 'nguldur, sanubardek sohibdil topilmas va agar bu qon bog 'lag 'on g 'uncha paykari

ko‘nguldur, bahorda gulbundek purdil kishi taxayyul qililmas. Ammo bularni ko‘ngul demak sazovor emas va ko‘ngul so‘zu dardi bularda padidor emas. Ko‘ngul ma’rifat bog‘idin va vahdat rayohinining esgan nasimidur va ruhoniyat gulistonidin oshnoliq gullarining shamimidur. Husn malohatin idrok qilg‘uvchi ham ko‘ngul va ishq o‘ti yolinig‘a yoqilg‘uvchi ham ko‘ngul. Xo‘blar husni tuzig‘a kaboblig‘ qilg‘uvchi ham ul va jamol latofati ganjig‘a xaroblig‘ qilg‘uvchi ham ul.

Ishq mulki obodlig‘i aning ashki selobidin va shavq shabistoni yorug‘lig‘i aning shu’lasi tobidinkim, ahli dillar ko‘ngli bu ishq shu’lasi nuridin va ul shu’la nuri sururidin ayrulmasunlar va riyoyi zuhd xaylig‘a qotilmasunlar.

B a y t:

*Meni bedilg‘a, yo Rab bu ko‘ngulni tutqil arzoni,
Oni mendin ayirma, dog‘i mensiz tutmag‘il oni.*

T a n b e h (47).

Ul ko‘ngulgakim, qattig‘ so‘zdin reshdek bo‘lg‘ay, achchig‘ til zahrolud neshdek bo‘lgay. Ko‘ngulda til sino-ni jarohati butmas, anga hech nima marham yerin tutmas. Har ko‘ngulki, til sinonidin jarohatdur ham yumshoq so‘z va shirin til anga marham va rohatdur. Muloyim takallum vahshiylarni ulfat sari boshqarur, fusungar afsun bila yilonni to‘shukdin chiqorur.

B a y t:

*Husn-u jamolsiz kishi shirin kalom esa
Sayd aylar elni nukta fasohat bila desa.*

T a n b e h (48).

Tilga ixtiyorsiz – elga e'tiborsiz! Harzago'ykim, ko'b takallum surgay, itdekdurkim, kecha tong otquncha hurgay. Yamon tillik andoqkim, el ko'ngliga jarohat yetkurrur, o'z boshig'a ham ofat yetkurur. Nodonning muvahhish harzag'a bo'g'zin qirmog'i – eshakning jihatsiz qichqirmog'i. Xo'shgo'ykim, so'zni rifq va musoviy bila aytg'ay, ko'ngulga yuz g'am keladurg'on bo'lsa, aning so'zidin qaytg'ay. So'zdar dur har yaxshiliqni imkonli bor, munda debdurlarki, nafasning joni bor. Masihokim, nafas bila o'lukka jon berdi, go'yo bu jihatdin erdi.

Makruheki, harzasi tavil va ovozi karihdur, o'zi ul savti bila qurbaqag'a shabihdur. Ahli saodatlar ruhbaxsh zulolig'a manba' ham til, ahli shaqovatlar nahn kavkabig'a matla' ham til. Tiliga iqtidorlig' – hakimi xiradmand; so'ziga ixtiyor-siz – laimi najand. Tilki, fasih va dilpazir bo'lg'ay – xo'broq bo'lg'ay, agar ko'ngul bila bir bo'lg'ay.

Til va ko'ngul xo'broq a'zodurlar insonda; savsan va g'uncha marg'ubroq rayohindurlar bo'stonda. Odamiy til bila soyir hayvondin mumtoz bo'lur va ham aning bila soyir insong'a sarafroz bo'lur. Til muncha sharaf bila nutqning olatidur va ham nutqdurki, agar napisand zohir bo'lsa, tiling ofatidur.

Ayn ul-quzot til sharafidin masihguftor bo'ldi va Husayn Mansur til sur'atidin dorg'a sazovor.

B a y t:

*Har necha biymi hajr so'zi oshiq o'lturur,
Vuslat bashorati yana jismig'a jon berur.*

T a n b e h (49).

Tildin azubat dilpisanddur va liynat sudmand. Chuchuk tilki, achchig'liqqa evruldi, zarari om bo'ldi, qandni-

ki, muskir boda qildilar, harom bo‘ldi. Chuchuk so‘z sof ko‘ngullarg‘a no‘shdur, barcha atfol tab’ig‘a muloyim hal-vofurushdur.

B a y t:

*Xush so ‘zga kim o ‘lsa mast-u behush,
Sharbat aro zahrni qilur no ‘sh.*

T a n b e h (50).

Harkimki, so‘zi yolg‘on, yolg‘oni zohir bo‘lg‘och uyol-g‘on. Yolg‘onni chindek aytquvchi suxanvar – kumushni oltun bila ro‘kash qiluvchi zargar. Yolg‘on afsonalarda uyqu kelturguvchi, yolg‘onchi uyquda takallum surguvchi. Yolg‘on aytguvchi g‘aflatdadur. So‘zning asnofi bag‘oyat cho‘qdur, yolg‘ondin yamonroq sinfi yo‘qdur.

Ulki yolg‘on bila sarfi avqot etgay, anga bu yamon kelmagay yana mubohot etgay. Agar mustami’inni g‘ofil topqay, yolg‘onin ching‘a o‘tkarsa maqsudin hosil topqay. Zihi Tengrig‘a yamon banda, ne Tengridin, ne xalqdin sharmanda. Mundoq nahsning chun erur yuzi yamonliq sari, bu nuhusatshior qutluq uydin tashqari.

B a y t:

*Ul kishini qutluq evdin tashqari surmak kerak,
Qutluq ev dunyo durur, ya ’niki o ‘lturmak kerak.*

T a n b e h (51).

Birovkim, yolg‘on so‘zni birovga bog‘lag‘ay, o‘z qaro bo‘lg‘on yuzin yog‘lag‘ay, kabira gunohdur. Oz so‘z hamki o‘trukdur zahri muhlikdur – agarchi miqdori o‘ksukdur.

B a y t:

*Zahrning oz esa miqdori dog ‘i muhlikdur;
Ignaning no ‘gi zaif ersa dog ‘i ko ‘r qilur.*

T a n b e h (52).

Ulki, so‘zni bir yerdin yana bir yerga yetkurgay, elning o‘tgan gunohini o‘z bo‘ynig‘a indurgay. Nammomliq chin so‘zga mamnu’dur. Agar zuhur etgay – xayol qilki, yolg‘on so‘zga ne yetgay. So‘z terguvchining agar ulug‘i, agar kichigi – balki erurlar tamug‘ o‘tining tutrug‘i.

B a y t:

*Kim so ‘zni terib aytguvchi og ‘zig ‘a bergay,
Molik ani do ‘zax o ‘tining dudig ‘a tergay.*

T a n b e h (53).

Ulki, juz quvvat da’visi izhor qilmas, go‘yoki, Haqning qaviy ul-matin erkanin bilmas. Odameki, quvvat xayolin ko‘ngliga kechirur tufrog‘edurkim yel urg‘och uchurur. Dunyo dor ul-havodisdur va anga ko‘ngul bog‘-lamoqqa g‘aflat boisdur. Olam umrdek bevafodur va aning davlatig‘a e’timod qilmoq xato.

T a n b e h (54).

Umrning bukun tonglalig‘i mafhum emas, balki bu kun axshomg‘acha ne bo‘luri ma’lum emas. Bashar xayli dori baqog‘a ahli azimatdurdur va tiriklik bir necha kun g‘animatdurdur. Bu dori fanoni besh kun g‘animat bil va dori baqoning uzun yo‘li yarog‘in qil. Ul yo‘l yarog‘i solih amaldur, andin so‘ngra e’timod Haq lutfig‘a azza va jalla. Amaleki, Tengri qabulig‘a shoyistadur ham Tengri tavfiqiga vobastadur.

Amalg‘a ham e’timod qilurdin kech, aning fazl-u karami bo’lmasa ilm-u amal hech.

T a n b e h (55).

Qush to tamannoyi xomg‘a tushmas – sayyod ilgida domg‘a tushmas va anga to ajal qafasi eshigi ochilmas, say-yod domu donasig‘a mayl qilmas.

T a n b e h (56).

Salotin dargohidin yiroq va xavoqin bazmgohidin qiroq, balki tegrasiga yovumag‘on yaxshiroq. Bulardin qochg‘il-kim, «alfiroru min molo yutoq»¹⁹. Birovkim, har ne ko‘ngli tilasa qila olg‘ay, anga o‘z ixtiyori bila yaqin borg‘on – o‘zini o‘zi balog‘a solg‘on. Royi tutsa ayblar olida hunar va har shoyista hunar qoshida aybdin batar. Mundoq maxdum xiz-matin ixtiyor qilg‘on mardaki xar. Kishi manfaat uchun sher asrarmen degaymu xosiyat topar umidig‘a zahr yegaymu? Salotin xizmatig‘a jur‘at ko‘rguzmak, o‘z rishtayı hayotin uzmoqdur va og‘uni icharga surmak va alarg‘a taqarrub tilamak o‘z qatlig‘a balo tig‘in biylamakdur.

Kulmaklarida choqin hukmi bor, yorug‘lug‘i bee’tibor va kuydurmagi vujuddin qo‘ymas osor.

Q i t’ a:

*Choqin yorug‘lig‘i maddi samodin arzg‘acha,
Zamona tuli iki lafz o‘qurg‘acha yetmas.
Vale ne yergaki tushti qatig‘ va gar yumshoq,
Berib ani suvg‘a to yetmagay qaror etmas.*

T a n b e h (57).

Hukamokim, salotin holi kayfiyat bilibdurlar, alarni o‘tqa tashbih qilibdurlar. O‘t naf‘ yetkurur yiroqtin, andin

muntafe' bo'lmoq avlo qiroqtin. Otashgoh o'ti qiroqdin naf' yetkurur, ichiga tushganni filhol kuydurur. Oqil anga yovumoq nomunosibdur va andoq balodin hazar vojib.

Bayt:

*O'tdin isinurg 'acha ovuch och,
Kuydurgudek anglasang keyin qoch!*

T a n b e h (58).

Podshohlar zikrida

Ba'zi karim podshohlar zikrida axloq va burdbor podshohi oliv miqdori komkor daryoyi madhig'a botibdurlar va ani ko'prukka o'xhatibdurlar. Bu ma'ni bilakim, ko'pruk maxluqotning xasis va sharif yukin ko'tarur. Alarni suv zahmatidin va bolchig' mashaqqat va g'ilzatidin o'tkarur. Va ba'zikim, tavajjuh andeshag'a qilibdurlar, aning nisbatin beshag'a qilibdurlar. Bu munosabat bilakim, barcha anvo'i hayvon va inson va bahoyim va sibo', balki nomahsur vu-hush va tuyurg'a panoh va oromgoh berur, yemak va ich-maklaridin yetkarur. Va ba'zikim, naf'in om va in'omin fosh debdurlar, bu xosiyatlarda oni quyosh debdurlar, ya'ni shahr va biyobonni ravshan etar va vayron va obodqa andin yorug'lug' yetar. Va ba'zikim, rafi' va nofe' va falaki janob debdurlar. Bu munosabatlar bila oni sahab debdurlar, ya'ni qaro tufroqqa durlar sochar va nishlik tikondin gullar ochar. Va ba'zi turk hukamosi va bu qavm oqil-u donosi o'z tavrlari birlaki, kalom surubturlar oni bo'z kiyizga o'xshata masal urubturlar, ya'ni suvdin va tufrog'din yuziga ne kelsa tahammul qilur, ya'ni o'ziga singirur. Agar nish ursalar va cho'kur sanchsalar suvurg'ondin so'ng yuzi-

ga asar yetkurmas, ya’ni o‘ziga kelturmas. Va agar ikki muxolif jamoat har qaysi bir taraf tortsa, har sori ul jamoat munosabati mayl qilur, ilik tortsalar yana o‘z holig‘a ko‘ra yig‘ilur. Yana hamki, vasfi ajnosin bir-biri ustiga teribdurlar munosib nimalarg‘a nisbat beribdurlar. Ammo so‘z ixtisori jihatidin tatvil vahmidin nukta uzotilmadi va so‘z ko‘prak aytilmadikim, bu mazkur bo‘lg‘oncha yuz odil salotin si-fatida bor va barchada zikr qilg‘oncha ming birning pod-shohimiz zotida taammul qilg‘on toparki, Haq subhonahu va taolo mazkur bo‘lg‘on saloting‘a to tufrog‘ hazizada qaror bergay. Anga sipehri saltanat avjida mador nasib qilg‘ay to sinuqlar ishi andin butgay va yiqilganlarg‘a andin dast-girlik yetgay. Omin, yo Rabbul-olamin.

B a y t:

*To qamardur, otig‘a na’l o ‘lsun,
To quyoshdur, boshig‘a la’l o ‘lsun!*

T a n b e h (59).

Yolg‘onchi – unutquvchi va taammul va ehtiyot yo‘lidin kanora tutquvchi. Har kimki, so‘zi chin bo‘lmag‘ay, rostlar ko‘nglida ul so‘z qabuloyin bo‘lmag‘ay. Yolg‘onchi so‘zin bir-ikki qatla o‘tkargay, o‘zga netgay? Yolg‘oni zohir bo‘lg‘ondin so‘ngra anga rasvolig‘ yetgay va so‘zi e’tibori el ko‘nglidin ketgay. Ko‘ngul maxzanining qufli til va ul maxzanning kalidin so‘z bil.

B a y t:

*Ko ‘ngul holati so ‘z degach bilgurur
Ki, maxzanda dur yo sadafrezadur.*

T a n b e h (60).

Chin so‘z – mu’tabar, yaxshi so‘z – muxtsar. Ko‘p deguvchi – mumil, mukarrar deguvchi – loya’qil. Ayblo‘y – ma’yub, aybgo‘y – mankub. Tuz ko‘rguvchi – pok nazar, hunar ko‘rguvchi – rost basar. Ulkim, dimog‘ida xabt so‘zi-da yo‘q rabt. Dimog‘i sahih – guftori fasih. So‘zi hisobsiz – o‘zi ihtisobsiz. So‘zida parishonliq, o‘zida pushaymonliq. So‘zki, fasohat zevaridin muzayyan emasdur, anga chinliq zevari basdur. Yolg‘onchi har necha so‘zida fasihroq, so‘zi qabihroq. Chin so‘z nechakim betakalluf, qoyilg‘a iborat sodalig‘idin yo‘q taassuf. Gulga yirtuq libosdin ne ziyon, durg‘a badshakl sadafdin ne nuqson. Yolg‘on so‘z juz nazmda napisand va aning qoyili noxiradmand.

B a y t:

*So‘z ichraki yolg‘on erur napisand,
Chu nazm ettilar qildi dono pisand.*

T a n b e h (61).

Nodon – eshak. Balki eshakdin ham kamrak. Eshakka har ne yuklasang ko‘tarur va qayon sursang ul yon borur, aql va tamiz da’viysi yo‘q. Bermasang ochdur, bersang to‘q. Zabunedur borkash, xorkash, balki anborkash. Nodon bu sifatlardin mubarro, zoti bilik hulyasidin muarro. Ishi g‘urur va takabbur, xayolida yuz fosid tasavvur. Bari muh-mali o‘ziga xo‘b, barcha makruh fe’li o‘z qoshida marg‘ub, ko‘nglida elga yuz ozor xayoli va jahlidin ulusg‘a ming zarar ehtimoli. Eshak unidin quloqqa ozordur, andin o‘zga ne aybi bordur. Tegirmondin uyungga un kelturur, ani pishururga yozidin o‘tun kelturur. Mashaqqati minnatsiz va suubati kulfatsiz. Nodonnei eshak degandin mutag‘ayyir, eshak qoshida yamon va yaxshi degan bir.

Bayt:

*Birida muncha hunar, ul birida muncha uyub,
Qaysining xo 'b ekanin ahli xirad bilgay xo 'b.*

T a n b e h (62).

Shariat – jodayedur tuz, anda xoh kecha yur-u, xoh kunduz. Sirotedur, bag‘oyat mustaqim, anda oziqmoqdin ne vahm va ne biym. Har kimki, ul yo‘lg‘a ozim bo‘lg‘ay, ikki jahon saodati anga mulozim bo‘lg‘ay. Andin chiqqan itti, tuz borg‘on maqsadg‘a yetti. Har solikkim, maqsadg‘a yetibdur, bu yo‘ldin chiqmay ketibdur. Oziqib chiqqach, aytibdur, bu sirot – istiqomati anga dast berdi. «Fastaqim kama umirta»²⁰ ma’muri ul erdi. Qildin inchka, qilichdin itik yo‘ldur. Har kim bu yo‘lni mardona qat’ qilsa, er uldur! Angakim, siroti mustaqimdin ubur bo‘lmas, nasibi jannatda kavsar va hur bo‘lmas.

B a y t:

*Jodayi shar ’bila kimki, o’zin tuz qildi,
Davlati sarmad anga har soridin yuz qildi.*

T a n b e h (63).

Fosiqi benadomat – shum, qiladurg‘oni saodat ahlig‘a mazlum. Zuhdu fisq elga taqdiri Yazdondindur, ammo ikkaliasini birdek ko‘rmak nodondindur. Taqvoga shukr kerak va isyong‘a uzr. Va nadomat budur tavfiq ahlig‘a alomat. Har fisqkim, pushaymonliq o‘tin yorutqay, ul o‘t tardomanliq oludalig‘in qurutqay. Jurm e’tirofig‘a uzr – tavfiq nishonasi va zuhd g‘ururidin takabbur – shayton fasonasi. Bu zuhd shayxi xudpisand ishi, ul uzr rindi niyozmand ishi. Bu biri umidi jovidg‘a sarmoya va ul biri ma’yasi muabbadg‘a piroya.

M a s n a v i y:

*Har zuhdki, ujb anga erur zam,
Ko 'nglum haramig 'a qilma mahram.
Har fisqki, usr anga erur yor,
Ul yon meni moyil ayla zinhor.*

T a n b e h (64).

Yamon qilik‘liq badxo‘y va bot achchig‘liq turshro‘y bir balog‘a giriftordur va bir ibtilog‘a mubtalokim, har yon borsa andin qutulmas va har sori qochsa andin xalos bo‘lmas. G‘olib dushmanedur – doim o‘zi anga mag‘lub, qohir aduvedur – hamisha vujudi anga mankub.

T a n b e h (65).

Kulagach yuzluk xush axloqkim, nifoq kuduratidin bo‘lg‘ay yiroq, gulshani Bihisht erur jilvagoh va maqomi va firdavsi a’lodadur taharruk va orom. Ochuq yuzidin xaloyiqqa nishot va chuchuk so‘zidin ulusg‘a inbisot. Mardumluq bila ko‘ngullarga mahbub va insoniyat bila jonlarg‘a matlub. Osuda andin yor-u ag‘yorki, mundoq kishi bo‘lsun umridin barxurdor.

M a s n a v i y:

*Yuzidin ko ‘ngullarga aysh-u tarab,
So ‘zidin badanlarg ‘a daf‘i taab.*

*Ochug ‘ chehrasi toza guldin nishon,
Hadisig ‘a bulbul bo ‘lub jonfishon.*

T a n b e h (66).

Dushman g‘ururidin g‘am yema va maddoh xushomadin chin demakim, aning g‘arazi o‘z maqsudig‘a komdur va

munung maqsudi sendin muhaqqar in'om. Agar ikkalasiga iltifot qilmasang va qabulin lozim bilmasang, ul o'z qasdi ijrosidin muattal va tadbiri muhmal bo'lur va munung madhi hajvig'a mubaddal bo'lur.

M a s n a v i y:

*Birisiga g'araz, o'z muddaosi,
Birisi qasdi, in'om iltimosi.*

*Chun sendin topmadilar hech parvo,
Biri xasm-u biridur hajvoro.*

T a n b e h (67).

Muvahhish xabarni chindur deb do'stg'a yetkurma va birovning aybi voqe' bo'lsa yuziga urma. Qo'yg'ilkim, ul chin xabarni dushman yetkursun va tahammulkim, ul ayb mojarosin aduvsi sursun.

N a z m:

*Ne so 'zdinki, yetgay birovga g'ubor,
Ne lozimki, sen qilg'asen oshkor.*

*Qo 'yaberki, qilsun ayon dushmani
Ki, bordur adovat aduvning fani.*

T a n b e h (68).

Xiradmand uldurkim, yolg'on demas, ammo barcha chin ham deguluk emas. Birovki ko'zi ahvaldur, chun xilqati Xoliqdindur – anga ne madxaldur. Bu so'zni aning yuziga qilmoq izhor bartaqdirki, chindur, ammo ne lutfi borki, Haq sun'ig'a e'tirozdur va nohaq birovga xijolat va



o‘zungga nodonliq izhordinur va bir ko‘ngulga malomat. Bu nav’ vahshatangiz chindin bo‘l yiroqli, muloyamatomiz yolg‘on andin yaxshiroq.

B a y t:

*Yolg‘on o ‘lsa muloyamatomiz,
Vahshatangiz chindin angla aziz.*

T a n b e h (69).

Bashar jinsig‘a o‘z xatosi dilpazirdur va mardud farzandi noguzir. Yamon she’rdekkim, tab’ zodasidur, ikkalasi bashar tab’i natijasidur va moddasi. Agar mankub bo‘lsun yo marg‘ub, o‘ziga ko‘rungusidur mahbub. Oqil bu tariyqni shior qilmas va yaxshi-yamonni Haq yarotqondin ortuq va o‘ksuk bilmas.

M a s n a v i y:

*Yamon-yaxshini Tengridin anglag‘il,
Yamonni yamon, yaxshini yaxshi bil.
Yamonni agar yaxshi qilsang gumon,
Erur yaxshini ham degandek yamon.*

T a n b e h (70).

Qanoat – istig‘no sarmoyasidur va sharaf va izzat piroyasidur. Muflisi qone’ – g‘aniy va shoh-u gadodin mustag‘niy. Tama’ mazallatg‘a dalil va g‘aniyi tome’ – xor-u zalil.

Tama’ bila ulkim ola olur va olmas, bu adami tama’ hech saxovatdin qolmas. Bu nav’ saxo ahli karimdur va tama’ xayli laim.

B a y t:

*Xorlig‘lar boshi tama’ bilgil,
Doimo «azza man qana’»²¹ bilgil.*

T a n b e h (71).

Borlig‘ki, lutf-u karami om bo‘lg‘ay, yo‘xsulliqda
anga barcha eldin kom bo‘lg‘ay, kom bo‘lsa, bore xijolat
bo‘limg‘ay va el sarzanishidin bori malolat bo‘limg‘ay.

B a y t:

*Chu daf‘i xijolat erur komcha,
Nadomat yo ‘qi eldin in’omcha.*

T a n b e h (72).

Bot tuyassar bo‘lg‘on kechga tortmas va o‘kmak bila
bahosi ortmas. Safol cho‘chak har doshdin ming chiqar,
qiymati bir diramdin ortuq emas va kunda yuz sinsa kishi
hayf demas va taassuf yemas. Chiniy ayog‘ qiymati yasarda
suubatig‘a ko‘radur, asramoqda ehtimom qiymatig‘a ko‘ra-
dur. Qiymati oz – hurmati oz.

B a y t:

*Qayu mato ‘kim oz voqe’ o ‘lsa qiymat anga,
Erur muvofiq aning qiymaticha hurmat anga.*

T a n b e h (73).

Sabr bila ko‘p bog‘lig‘ ish ochilur, ishda oshuqqon ko‘p
toylur, ko‘p toyilg‘on ko‘p yiqlur. Ishda oshuqmoq yosh
o‘g‘lon ishidur, sabr bila ish qilguvchi tajribalig‘ ulug‘
yoshlig‘ kishi ishidur.

B a y t:

*Har kimsaki aylamas oshuqmog ‘ni xayol,
Yafrog ‘ni ipak qilur; chechak bargini bol.*

T a n b e h (74).

Razli daniykim, hazl qilig‘i bo‘lg‘ay, kuldurmak uchun tobонning qichig‘i bo‘lg‘ay. Fasaqa xaylida muqallideki, g‘arazi el kulgusidur, go‘yo fokishayi qahbaning ko‘rganni ko‘rguzgan ko‘zgusidur. Rakik hazl ishtig‘olikim bo‘lg‘ay birovning mujibi infioli yomonlarg‘a shiordur va yaxshilarg‘a, andin ordur.

Mutoyabaki, boisi inbisot bo‘lg‘ay, xushturki, mujibi farah va nishot bo‘lg‘ay. Adosida rakik guftor yo‘q, birovga andin xijolat va ozor yo‘q. Ul zarofat va ibohatdur, andinki o‘tti safohatdur.

B a y t:

*Tiybat xush erur bo ‘lsa daqoyiqdin anga zeb,
Chun bo ‘ldi safohat netar ul so ‘zni kishi deb.*

T a n b e h (75).

May ichmak nahy erur Tengri qavli, har hol bila aning tarki avli. Oshkor va ko‘p ichmagi nosoz, sharti maxfiy ichmakdur va oz. Oz ichmagi hikmatqa dol, maxfiy ichmagi hush ahlig‘a xisol. Yaxshi ichmagi xilqati solim elga hol, mutlaq ichmagi ofiyatqa maol.

Ulki «умм ул-хабойис»²² bo‘lg‘ay, anga shefta bo‘lmoqqa ham ummi haboyisi bois bo‘lg‘ay. Yamonroq ichguchi anga mag‘lubroq, har necha yamonlig‘i zohir bo‘lsa aning qoshida mahbubroq. Badmastqa damodam ichmog‘идин ne bahrkim, odamiylig‘ qatlig‘a ichar qadah-qadah zahr.

Oqshom usrukardin xorij tarona, telba itlar ulushqondin nishona.

Mastlar arosida bir hushyor – hushyorlar arosida bir mast hukmi bor. Manhiydur ulki oshkor toat etgay, oshkor ma’siyatg‘a ko‘rkim ne yetgay.

B a y t:

*Kimgakim Haq ro ‘zi aylabdur tariyqi ofiyat,
Oshkoro aylamas ne toatu ne ma’siyat.*

T a n b e h (76).

Ko‘p deguvchi, ko‘p yeguvchi – tomug‘ to‘riga oshuqub ketguvchi. Demakka mash’uf va yemakka mag‘lub – hikmat sharafidindur mardud va maslub. Hasud bemor, balki muhlik marazg‘a giriftor. Fosiq va xammor – ziyonzada va ziyonkor. G‘iybat deguvchi – najosat yeguvchi. Afyuni-yu bangi – odamiylar nangi. Tome’ umri zoye’ va malolati shoye’. Er kishi ko‘p yasansa beva bo‘lg‘ay, bu sifat zuafog‘a sheva bo‘lg‘ay.

B a y t:

*Er kishiga zeb-u ziynat – hikmat-u donishdurur,
Yaxshi kiymak birla xotunlarg‘a oroyishdurur.*

T a n b e h (77).

Qarikim, qilg‘ay ra’noliq – tifledurur nobolig‘. Kichik yoshlarg‘a ulug‘lar harakoti anga dalildurkim, ne aqli bo‘lg‘ay, ne uyoti. Qarikim, saqolin vusma bila bo‘yag‘ay, yigitdekdurkim, ani gulob bila yuvg‘ay. Muflis burj olsaki bazl qilg‘ay, saqol orasta qilurkim, hazl qilg‘ay. Agar burjig‘a sud ortar, o‘z bo‘ynin bog‘lab zindong‘a tortar. Er kishikim, ko‘p yasang‘ay, xirad ahli aning aqlidin o‘sang‘ay.

R u b o i y:

*Iyd oqshomi tifl ilgida chap-u rost hino,
Yo shohidi sho 'x egniga xazz-u debo.
Shoistadurur qari bajuz dalq-u aso,
Ko 'rguzsa saqolig'a kularlar uqalo.*

T a n b e h (78).

G'aniyg'a chapon kiymak andoqdurkim, muflisg'a atlas-u katon kiymak.

Xo'b yirtuq to'n bila ham xo'b, gul yamog'liq chaponi bila mahbub.

Zuhal biyik maqom bila mehri xovariy bo'lmas, dev Behisht hullasin kiygan bila pari bo'lmas.

Kampir haram nozanini bo'lurmu, kaftor g'azolayi Chin bo'lurmu? Qari qahba gulgunau vusma bila yuzu qoshlig' – buzuq mafsaqadur, shingarf va zangor bila naqqoshlig'. Xojakim, bibi borida dodakka aylang'ay, bibining iffati etagi kulg'a bulg'ong'ay.

B a y t:

*Kishig'a bo 'lmasa o 'z sha 'niga shoyista sifot,
Qilmasun ayb o 'zidekdin dog'i andoq harakot.*

T a n b e h (79).

Nodong'a so'z demak ayg'og'dur va ko'p demagi yo'rtog'dur. Oz demagi – nosih va demamagi – muslih. Elning maxfiy aybin paydo qilmoq – o'zin bee'timod va o'zidekni rasvo qilmoqdur. Yo'qkim, o'zidekni rasvo qilmoq va o'zining ham bu nav' aybin oshkor qilmoqdur.

B a y t:

*El aybini ayturg‘a birovkim, uzatur til,
O‘z aybini fosh aylagali til uzotur, bil.*

T a n b e h (80).

Ilm o‘qub amal qilmag‘on, yerni shiyor qilib tuxum sol-mog‘ong‘a o‘xshar yo tuxum solib, mahsulidin bahra ol-mag‘ong‘a o‘xshar.

B a y t:

*Ilm o‘qub qilmag‘on amal maqbul,
Dona sochib ko‘tarmadi mahsul.*

T a n b e h (81).

Usruk so‘ziga hikmat, muxolifi javob xiradmand ishi emas va telba ramzig‘a aql muqtazosidin o‘zga hushmand nukta demas.

M a s n a v i y:

*Kishiga necha kelsa mushkul hol,
Hikmat-u aql anga erur hallol.
Kesak otqong‘a kim chekar yumruq,
To ‘ni yirtuqdurur, saqoli yuluq.*

T a n b e h (82).

Mushfiq nosih so‘zin eshitmagonning sazosi taassuf yemakdur va o‘ziga nosazo demak.

B a y t:

*Xiradmand pandini ko‘rgan achig‘,
So ‘ngida pushaymonlig‘i ne asig‘.*

T a n b e h (83).

Hunarmand qoshida behunar ilik tebratmasa, ayb tuh-matin anga taqar. Itolguga tug‘dorining kuchi yetmasa, songg‘i bila ani bulg‘or.

B a y t:

*Baso ojizki xasm ostig‘a yotmish,
Og‘iz suyin aning yuziga otmish.*

T a n b e h (84).

Sayyodning baliqqa shast solmog‘i nafs muddaosi uchundur va baliqning ham qarmoqqa giriftor bo‘lmog‘i ju’ balosi uchun.

B a y t:

*Bo ‘ldi sayyodg‘au saydg‘a nafs orzusi qayd,
Yo ‘qsa ne ul edi sayyod, ne bu erdi anga sayd.*

T a n b e h (85).

Oz demak hikmatqa bois va oz yemak sihhatqa bois. Og‘zig‘a kelganni demak nodon ishi va ollig‘a kelganni yemak hayvon ishi.

B a y t:

*Ko ‘p demak birla bo ‘lmag ‘il nodon,
Ko ‘p yemak birla bo ‘lmag ‘il hayvon.*

T a n b e h (86).

G‘olib dushman zabunung bo‘lsa shod bo‘lma va ishi andishasidin ozod bo‘lmakim, siyosatida tahammul vojib-dur va rioyatida taammul.

B a y t:

*Dushman rajou xayfi desangkim, fan o 'lmag 'ay,
Andoq tirilki, kimsa sanga dushman o 'lmag 'ay.*

T a n b e h (87).

Olimki, johilni muqobalag‘a kelturub, ilzom qilmog‘i havas bo‘lg‘ay, aning o‘ziga ushbu ihonat-o‘q bas bo‘lg‘ay. Olim kerakki, o‘z ilmining poya va miqdorin asrag‘ay, gavharni imtihon uchun toshqa urmag‘ay.

B a y t:

*Xorag ‘a har kishikim, durri saminni urg ‘ay,
Xirad anglarki, qayu biri birini sindurg ‘ay.*

T a n b e h (88).

Gavhar balchiqqa tushgan bila qiymati ushalmas va o‘z bahosidin qolmas. Eshak munchog‘in tojg‘a tikkan bila firuza yerin tutmas va hech kim aning kam baholig‘ini unutmas.

Q i t’ a:

*Zeval bila shakli xo ‘b bo ‘lmas,
Har qizki, erur yomon liqolig ‘.
Har necha qorong ‘u bo ‘lsa hujra,
Sham ‘anda bo ‘lur fuzun ziyolig ‘.*

T a n b e h (89).

Qobilg‘a tarbiyat qilmamoq zulmdur va noqobilg‘a tarbiyat – hayf. Ani adami tarbiyat bila zoye’ qilma va munga tarbiyatingni zoye’ qilma.

Q i t' a:

*Qobilg'a tarbiyat erur ul nav'kim, guhar
Tushsa najosat ichra yug'ay kimsa ani pok.
Gar it uzumig'a kishi may birla bersa suv,
Bu tarbiyat bila qila olg'aymu ani tok.*

T a n b e h (90).

Hazlg'a shuru'din behurmatlig' ortar va hazlning niho-yati jidolg'a tortar. Ko'p lahv hayo pardasin chok etar va adab va hurmat ahlin bebok. Qila olg'oncha ta'zim va adab binosin yiqlma va hayo va hurmat xilvatidin tashqari chiqma.

R u b o i y:

*Iymong'a erur nishon hayo birla adab,
Hurmat bila ta'zim saodatqa sabab.
Hayyivu muaddab angakim, bo 'lsa laqab,
Maqsudig'a kech yetsa ajab, angla ajab.*

T a n b e h (91).

Fosiq bari millatda nodondur va pokravlar arosida nondonroq. Fisq bari tariyqda yomonroq va porsoliq libosida yomonroq. Ne elga yorsen – o'zungni ul nav' tuz, nechukki borsen – o'zungni andoq ko'rguz.

M a s n a v i y:

*Hayovu adab birla tuzgil maosh,
Yana ayla ta'zim-u hurmatni fosh.
Ne el yori bo 'lsang, alar rangi bo 'l,
Nechuk bor esang, tutqil ul sori yo 'l.*

T a n b e h (92).

Sahv-u xato bashariyat lozimidur. Xato-u sahvin ang-lab mutanabbih bo‘lg‘on saodatmand odamiydur. Xatosin zoyil qilur, ulki e’tirof sari qaytg‘ay, va muzoaf qilur, ulki dalil ijro qilib harza aytqay. Mubolag‘asi necha ko‘prak – sahvi paydoroq va mukobarasi necha ortuqroq – o‘zi elga rasvoroq.

M a s n a v i y:

*Xatog‘a tadoruk nedur bexilof,
Ayon qilmoq o‘z sahvig‘a e’tirof.
Vagar qilsa sahvig‘a ijro dalil
Ki, yaxshidur aylar iki oncha bil.*

T a n b e h (93).

Har g‘aniyki, tirikligida ehsondin ko‘ngullarni shod qilmag‘ay, o‘lganidin so‘ng ani kimsa duo bila yod qilmag‘ay. Ehson tiriklikda yaxshi otdur, o‘lgandin so‘ng do‘zax azobidin najot.

Q i t’ a:

*Kishida barcha axloqi hamida,
Chu jam’o ‘ldi qo ‘yarlar otin ehson.
Biri andin saxodur, bir muruvvat,
Bular gar yo ‘qtur, inson ermas inson.*

T a n b e h (94).

Baxilning andoqli, bugun topqoni zaxira bo‘lg‘ay, tongla qabri ham bu kungi maoshi uyidek tiyra bo‘lg‘ay. Zuhdu taqvo barcha vaqtida dilpisanddur, yigitlikda dilpisandroq. Tavba va istig‘no hama vaqtida sudmanddur, qariliqda sudmandroq.

Hilmu hayo ahli har yerda arjumanddur, ulug‘lar nazarida arjumandroq. Yaxshilig‘ va yomonlig‘ni kim qildikim, jazo ko‘rmadi? Saloh va fasod tuxmin kim ektikim, o‘rmadi?!

B a y t:

*Yaxshilig‘ tuxmini sochqilkim, budur dehqong‘a so‘z,
Har nekim, ekting bugun, borin hamon tut oni ko‘z.*

T a n b e h (95).

Izzat ahliki, mazallatqa tushti san’at ilgi yo‘qturu va savol tili. Anga tarahhum qilmoqni g‘animat bil va ilgingdin kelgancha ehson qil. Yigit gadokim, bel ura olur va o‘tun tashimog‘ni bilur, anga nima bergen Tengri molin zoye’ qilur.

T a n b e h (96).

Zarbaft kisvatlig‘ dunyoguzin najosat ustidagi iltirag‘uchi chibin. Muttaqiyi pokrav masjidda mu’takif bo‘lg‘on chog‘i Mus’haf avroqi arosida gul yafrog‘i.

M a s n a v i y:

*Biri bayt ul-Harom ichra farishta,
Biri dayr ichra shayton barcha ishta.*

*Ne hojat sharh qilmoqliq tafovut
Ki, baytullohdindur farqi sobit.*

T a n b e h (97).

Bilmaganni so‘rub o‘rgangan olim va orlanib so‘ramagan o‘ziga zolim. Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur, qatra-qatra yig‘ilib daryo bo‘lur. O‘rganurdan qochqon lavand va yuziga hiyal va bahona eshigin ochg‘on tanand. Emgak tortib ilm o‘rgangan xiradmand.

B a y t:

*Ilmdin oriy ulusning johili xudkomasi,
O'rganurga jiddu jahd etgan jahon allomasi.*

T a n b e h (98).

Gadozodayi xiradmand – akobir hamrozi, g‘aniyzodayi lavand – arzol damsozi. Ul ilm-u donish yuzidin salotinni qilib hojatmand, Bu jahl va inod fartyidin xaloyiq qoshida napisand.

Q i t' a:

*Baso yagonayi mufliski, mulk sultoni,
Ulum mas' alasida erur anga muhtoj.
Baso jaholat-u beboklik fanida g‘aniy
Ki, sulton oni o'z mulkidin qilur ixroj.*

T a n b e h (99).

Tinch ko‘ngul bila yovg‘on umoch yaxshiroqkim, takalluf va mashaqqat bila qandiy kuloch. Eski chapon bila forig‘ tufrog‘da o‘lturmoq yaxshiroqkim, zarbaft xaftron ki-yib birov ollida turmoq.

Q i t' a:

*Gadolig‘ bo 'ryosi uzra miskin
Ki, xotir forig‘ o 'lg‘ay har taabdin.
Ko 'p ortuqkim, bo 'lub o 'zungga ma 'mur,
Xazu deboda yer tut sang tarabdin.*

T a n b e h (100).

Har kishikim, bir qavmnning suluk va ohangin tuzar, tadrij bila hamul qavmnning rangin tutar. Har kimgakim, payravlig‘

etar, ul mutobaat xosiyatidin ul yetgan yerga yetar. Agar bu so‘z sanga ko‘runsa mahol, As’hobi Kahf ila itlaridin hisob ol.

Q i t’ a:

*Nabiy o ‘g‘li tomug ‘ni qildi maskan,
Tomug ‘ahli guruhin chun erishti.
Va lekin jannat ahli payravi it,
Yetishti qaydakim ul el yetishti.*

T a n b e h (101).

Odami sharif ul-kavnayndur²³ va it najas ul-ayn²⁴ ammo haqnoshunos va bevafo odam haqshunos va vafolig‘ itdin kam. Vafolig‘ qo‘tuz it yaxshiroqkim, vafosiz xush barno yigit.

Q i t’ a:

*Bevafo haqnoshunos eldin yirog ‘lig ‘istakim,
Kelmadi hargiz alardin g‘ayri bedod-u jafo.
Itga itlik aylamak jon-u ko ‘ngul birla bo ‘lur;
Haqshunos o ‘lsa-u bo ‘lsa anda oyini vafo.*

T a n b e h (102).

Nafsparvardin hunar kelmas – yemakdin o‘zga va nafs-parastdin naf yetmas – demakdin o‘zga. Ul biri bari harom taomdin va bu biri barcha ta’rifi kalomdin.

M a s n a v i y:

*Ul biri luqma-u navola so ‘zin,
Aytib onchaki xoli aylab o ‘zin.
Bu o ‘z avsofig ‘a muarrif o ‘la,
Aylabon bazmi anjumanni to ‘la.*

T a n b e h (103).

Tengri el aybig‘a nozir va sotirdur. Bovujudkim, jazo-sig‘a qodirdur. Va Tengri dushmani ani ko‘rmas va bilmas. Ammo tuhmat bila fosh qilurda taqsir qilmas.

M a s n a v i y:

*Tengri ishin qilmoq erur farzi ayn
Kim, ko ‘rubon aylamamak sho ‘r-u shayn.
Ko ‘rmoyin ulkim, ishi bo ‘hton erur;
Bilki, bu xislat bila shayton erur.*

T a n b e h (104).

Xiradmandg‘a el xatosidin pand yetar va savob yo‘lig‘a azm etar, andin burunkim, aning xatosidin pand olg‘aylar va aybin aning yuzig‘a solg‘aylar.

Q i t’ a:

*Oqil chu ko ‘rsa elda xato ijtinob etib,
Andin savob yo ‘l sari moyil qilur o ‘zin,
Qo ‘ymas aning xatosig‘a el aylab e ‘tiroz
Ayturg‘a yuzi o ‘trusida sahvining so ‘zin.*

T a n b e h (105).

Shabob ayyomi zikrida

Yigitlik umr gulshanining bahoridur va hayot shabis-tonining nahori. Bu biridin aysh-u nishot gullaringning ochug‘lug‘i va ul biridin zavq-u inbisot uylarining yorug‘lug‘i.

Insonning zeb-u ra’nolig‘i andin va basharning tob-u tavonolig‘i andin. Havos va quvog‘a andin quvvat, javorih va

a'zog'a andin sihhat. Ko'ngulga ishq oshubi andin hodis va sho'xlar sari oshufta bo'lmoqqa ul bois. Yigitlarga husn-u noz tug'yoni aning mag'rurlig'idin, qarilarg'a ashk-u niyoz to'foni aning mahjurlig'idin. Ko'z uyi mash'ali andin ravshan va yuz bog'i anjumani andin gulshan. Nozaninlar husni istig'nosig'a sabab ul va ishqoyinlarg'a ishq balosidin mujibi ranj-u taab ul. Zabardastlar boshida mulk havosi sho'ri andin va zerdastlar ayog'ida ham mulkdin jalo bo'lib qochmoq ro'zi andin. Chobuklar aning natijasidin maydonda takovar chopib, balki ul takovar ham aning nash'asidin maydonda yugururga quvvat topib, ma'siyatdin nafsg'a yigitlikda kom topmoq ham ibodatdin ruhg'a yigitlikda biyik maqom topmoq. Xarobot ahlig'a rindliq va mastlik yigitlikda dilpazir va munojotahlig'a porsolig' va xudparastlig' yigitlikda benazir.

R u b o i y:

*Ahbob, yigitlikni g'animat tutunguz,
O'zni qariliq mehnatidin qo'rqtunguz.
Oyini adovat-u hasaddin o'tunguz,
Har nav'ila o'zni necha kun ovutunguz.*

T a n b e h (106).

Shayxuxat zikrida

Shabob mayining maxmurlug'i qariliq va yigitlik sihhatining ranjurlig'i qariliq. Shayxuxat ayyomi nishot ahlin noshod qilurkim, odame qaddin xam qilib, umr bila xayrbod qilur. Havas va orzular shoxi ko'ngulda sinar, balki barcha taraddud va harakatlardin ko'ngul tinar. Sarbalandlig' xayoli boshtin chiqar. Nadomat va hasrat ashki seli badan qasri devorin yiqar.

Nomurodlig‘lar zindoni budur va noumidlig‘lar bayt ul-ahzoni ham budur.

Qad egilmagi tufroqqa mayl etmakka dol, shohidlardin tanaffur bu ma’nig‘a guvohi hol. Ililik titramog‘i umr bodasi xumoridin. Ko‘zdin yosh bormog‘i hayot motami iztirordin. Hofiza o‘rnig‘a nisyon yer tutub, o‘rganmoqni, balki unutmog‘ni ham unutib. Badang‘a sihhatdin asar qolmas va ko‘ngulga hush-u xiraddin xabar qolmas.

Yigitlarga tahayyur aning mabbutlug‘idin, o‘g‘lonlarg‘a tamashxur aning fartutlug‘idin. Har sari mo‘yidin bir maraz paydo, qariliq va ming illat aning zotidin huvaydo.

Ayol va atfol toriqib muhofazatidin, navkar va chokar ozi-qib aning muloyamatidin. Turluk-turluk illat badani uyida o‘kulub, ajab-ajab maraz kasratidin hayotdin to‘ngulub.

Ma’murlar nofarmonlig‘idin ro‘zgori qatig‘ va mah-kumlar besomonlig‘idin tirikligi achig‘.

Og‘zi so‘lakayi so‘z mazasin oqizib, maraz kasratidin mushfiqlar og‘zig‘a suv tomizib. Erniki, bir-biriga qovush-may o‘z holig‘a kulub, boshi ko‘ksiga tushub, og‘zi huqqasidin donalari to‘kulub. Sihhat ummidi xayoli ko‘nglidin yiroq, tirikligikim, o‘lmak yuz qatla andin yaxshiroq.

R u b o i y:

*Chun ketti yigitlik-u uzoldi qarilig‘,
Dam sovudi, ya’ni qolmadi qon ham isig‘.
Og‘zig‘a hayot sharbati bo‘ldi achig‘,
O‘lmog‘ xushroqki, umr bu nav’ qatig‘.*

R u b o i y:

*Afsuski, umri navjavonlig‘ ketti,
Tang‘a qariliqda notavonlig‘ yetti,
Gar yuz yil ulki komronlig‘ etti.
Chun topmadi margdin amonlig‘, netti?*

T a n b e h (107).

Peshayi solikka pir zarur erkoniga odamizod vujud mul-kidin xonapardozdur. Va adam kishvarig‘a safarsozdur. Bu safar maxsus sanga va manga emas yo xususiyat qilg‘onni kishi shoh-u gadog‘a demas. Har kim adam nihonxonasidin vujud anjumanig‘a qadam urubtur va bu baqosiz oromgohda bir nafas o‘lturubtur, yana qaytib asliy vatang‘a azm etmak kerak va qaydin kelibdur yana ul yon ketmak kerak. Besh kun bu dori fano tirikligiga masrur va davlatig‘a mag‘rur bo‘lmoq kerakdur. O‘lumdin guzir yo‘qtur va hech kishiga ul mahlakida dastgir yo‘q. Bas, aning yarog‘ida bo‘lmoq zaruratdur va borur asbobin tuzatmak chorasisz suratdur. Ul safar asbobi solih a‘moldur va hamida xisol. Va aning zikri ikkinchi qismda tafsil va tartib bila raqamg‘a keldi va mashruh bitildi. Ammo musofirg‘a yo‘l suubatining suhulati uchun va vodiyl yiroqlig‘ining daf‘i shiddati uchun va yomon uqbalarkim, oldiga kelur va azim muxotaralarki, voqe‘ bo‘lur, rahnamoylig‘i uchun va mushkulkushoylig‘i uchun bir nimakim, noguzirdur komil rahnamoyi pirdurkim, aning irshodi bo‘lmayin bu yo‘lg‘a azm qilmoqni akobiri avliyo qaddasallohu taolo arvohahum²⁵ joyiz tutmaydур, balki solik atvori va sulukiga yovutmaydurlar. Har oyinakim, musofir ko‘rmagan yo‘lga qadam ursa va yetmagan vodiyg‘a yugursa, yo‘l yiturmak ehmoli bor va yo‘ldin ozmoq imkonи bor. Ul aqobatdin va anda yuzlangan xatarotdin musofirni hodiy o‘tkarur va komil murshidning irshodi maqsadqa yet-kurur. Va yana ahlullohki, Haq yo‘lig‘a qadam qo‘yubturlar va talab markabin shavq vodiysig‘a surubturlar, komil pir irshodidin ayru azm qilmaydур va bu yo‘lda hodisiz maqsad manzilig‘a yetmaydurlar. Agar ahyonan yuzdin bir solik zohir yuzidin murshid piri nobud ekandur, ammo ma’ni yo‘lidin mavjud ekandur yo g‘oyib murshid taqvi-

yati birla yo mutavaffoyi komil ruhoniysi tarbiyati bila azm etibdurlar va matlubg'a yetibdurlar. Maqsudkim, bu yo'lda nafs dashmandur va shayotin rahzan va har qaysi azim maxofat va ulug' ofatduri, to hodiyo boshqarmag'ay va murshid mahlakadin o'tkarmag'ay. Bu yo'l qat'i mutaassirdur va maqsadg'a yetmak mutaazzir. Va o'zluki bila bu vodiyg'a yetgan va manozilin qat' etgan anoniyat giriftoridur va nafsg'a tobe' va shaytonning masxara va mahzalidur va ranji zoye'. Bu maqsudg'a bir vosita bo'lmay yetmak mumkin emas va murshidi rahnamoy bo'lmay, bir uning yetganidin kishi demas. Muridni maqsudg'a yetkurguvchi Haqdur vositayi pir va solikni matlubqa qo'shuldurg'uchi ham Haqdur va vasila ham pir.

Tamsil: Manquldurkim, qutb us-solikin va sulton ul-orifin, haqiqat ahli imomi, Shayx Boyazid Bistomiy²⁶ (quddisa sirrihu) bir jonibg'a bo'lub erdi ozim va bir muridi anga mulozim. Bir ulug' suv ilaylariga keldi. Va Shayx «Alloh!» deb ul suvg'a qadam urdi va muridg'a «Boyazid», deb qadam urmoq buyurdi. Shayx va murid «Alloh» va «Boyazid» deb borurlar erdi. Va sabo va nasimdek suvdin o'zlarin o'tkarurlar erdi. Nogoh murid xayolig'a keldikim, Shayx Allah zikri bila boradur va meni yo'lda boshqaradur, men ham vosita sham'in o'chiray va vahdat bahrida Allah zikri bila qadam uray. Bu muddao bila ulki qadam qo'ydi, botti. Shayx dastgirlikka qo'lin uzotti, ilkin tutub chekti, bahr sohilig'a otti va muhlika g'arqobidin sudradi aman manzilig'a yetkurdyi va dedi: – Ey farzand, sen avval Boyazidg'a yet, andin so'ngra Tengrig'a yetmak havas et. Anga bu nav' siyosat surdi va irshod shartin bajo kelturdi bu yo'l hodiysi har kimgakim, pirdur mundoq halok g'arqoblaridin dastgirdur. Maqsudki, pir irshodidin ayru bu yo/lg'a qadam urmamoq kerak, balki dam.

R u b o i y:

*Kimniki, bu yo 'l qat'ig 'a soldi taqdir;
Pir amrini qilmasa, keraktur tag 'yir,
Onsiz qadam ursa, angla makr-u tazvir,
Mal'un desa behrakki, desalar bepir.*

T a n b e h (108).

Safar manofiyi zikrida

Arzi sokin qayda va sipehri davvor qayda va turobi mutamakkin qayda va kavkabi sayyor qayda?!

Ul biri sukundin xoksorlar poyandozi bo'lди va bu biri taharrukdin sarafrozlar sarafrozi.

Ranj va mashaqqat moyayi tavozu' va adabdur va safar ranj va mashaqqatg'a sababdur.

Safar ko'rayi gudoz va so'zdur va ul gudoz va so'z erving vujudi oltunig'a iyoranduzdur.

Safar mahjurlarini matlubig'a yetkurguvchi va mahrum-larni murod uyig'a kivurguvchi va xomlarni pishirguvchi va taomlarni singurguvchi. Olam g'aroyibidin bahra yetkurguvchi va ofarinish g'aroyibig'a ittilo' berguvchi.

Buzurgvorlar mazoroti fayzig'a musharraf va mukarram bo'lmoq safardin va fayzosor eranlar xizmatig'a muazziz va muhtaram bo'lmoq safardin. Solikning atvoriga andom ber-guvchi safar, ko'ngulning har sari havo qilurig'a orom ber-guvchi safar. Musofirni manozillardin boxabar qilg'uvchi ul, ul marohilg'a rahbar qilg'uchi ul. Issiqsovudin jong'a intiboh berguvchi ul, achchig'-chuchukdin ko'ngulni ogoh qilg'uvchi ul. Safar vodiyisida musofir ayog'ig'a dard-u balo tikanlari ko'p sonchilur, lekin har tikandin maqsud guli ochilur. Yo'l emgagi shiddatidin badani ko'p tovshalur

va vujudi rohravlar ayog‘ig‘a to‘shalur va a’zosi ul ayog‘ ostida ushalur, ammo ko‘ngli buzug‘lug‘lari yasalur, va ruhi ko‘zgusi safo olur.

Har kishvarning oroyishini va har manzilning osoyishini safar ahlidin so‘r va musofirdin ko‘r. Safar qilmag‘on orom farog‘atin qayda bilsun va g‘urbat chekmagan vatanda kom rafohiyatini ne nav’ ma’lum qilsun. Daryoki sokindur, suyidin yutsa bo‘lurmu va ro‘dkim mutaharrikdur, zuloli tarkin tutsa bo‘lurmu? Taharruk ahlig‘a hayotdin asardur va jamodot xayli tiriklik nishonasidin bexabar. Bu sayr agarchi zohir sayridin hikoyatdur, ammo haqiqat yo‘li sayr-u sulukidin kinoyatdur. Ul maxsus emas sukun va harakatg‘a mufid emas batiy sur’atg‘a va ani debdurlarki, anjumanda xilvat va vatanda sayr va harakat.

Q i t’ a:

*Bu jamoatdurki, manzilgohdin olmay qadam,
Ko‘z ham ochmay ul tarafkim, olami kavn-u fasod.*

*Bahrdin zavraqni tortarlar tutub sohil sari
Kim, ani g‘arq etgali yetkurmish bo‘lg‘ay tundubod.*

R u b o i y:

*Yo Rabki, bu qavmkim erur Xizrqadam,
O‘lgan ko‘ngul ehyosi uchun Isodam.
O‘lgan va itganlarga qilib lutf-u karam
Yetkurgandek, yetkur mening boshima ham.*

T a n b e h (109).

Odamiyning yaxshirog‘i uldurkim, porso va pok bo‘lg‘ay va Haq so‘zin ayturda bevahm-u bok bo‘lg‘ay. O‘zi

pok-u ko‘zi pokni inson desa bo‘lur. Tili arig‘ va ko‘ngli arig‘ni musulmon desa bo‘lur. Musulmon uldurki, musulmonlar aning til va ilgidin emin bo‘lg‘aylar va ko‘zi ko‘nglidin mutmain.

T a n b e h (110).

Yaxshidin yomonlar ham yomonlig‘ tama’ tutmas, yaxshi yomonlarg‘a ham yaxshilig‘ni unutmas. Yaxshiliq qila olmasang, yomonliq ham bore qilma. Yaxshiliq-dan yomonlig‘ni yaxshiroq bilmasang, yaxshilarga qo‘sul, yaxshiliq tegrasig‘a evrula olmasang, yaxshilar tegrasiga evrul.

T a n b e h (111).

Fisq shumlug‘idin o‘zingni yaxshilardin huratma va yomonlar arosida qotma. Ul shum agarchi aqlg‘a makruhdur, ammo nafsg‘a mahbubdur; agarchi Haq yo‘lida mag‘mudur, ammo shayton yo‘lida marg‘ubdur.

T a n b e h (112).

Bir necha jur’ani badang‘a doxil qilib, bir necha qatra-ni andin xorij etma. Ul jur‘a kuduratidin safodin ayrilib, ul qatra xurujidin balo daryosig‘a botmakim, ul jur‘a selobi balodur, din va iymoning uyin yiqrar, ul qatra girdobi ranj-u anodurkim, aning bila hayoting naqdi chiqar. Badan durjidin durlarnikim sochting, xoli bo‘ldung va jism shishasiga ul jur‘alar yo‘lin ochting – nafsu havo poymoli bo‘ldung. Ul jur‘a moddayi fasoddur, taningga‘a yovutma va ul qatra naqdi hayotdur – tarkin tutmakim, muning qabulidin shayton maqbuli va maqsudisen va aning raddidin Rahmon mardudisen. Ani ichmak – jigar qonin ichmakdur va mundin kechmak – bir jigargo‘shadin kechmakdur, ul birin yutmoqdin zahr yutma, bu birin sochmoqdin nasling tuxmin qurutma.

T a n b e h (113).

Dardlig‘ ko‘ngul – shu’lalig‘ charog‘, yoshlig‘ ko‘z – suvluq bulog‘.

Teva qushin yuklab ko‘chsa bo‘lmas va chodir qanotin ochib uchsa bo‘lmas. O‘t ishi qovurmoq, yel ishi sovurmoq. Suvning mazasi muz bila, oshning mazasi tuz bila, odam yaxshilig‘i so‘z bila. Sihhat tilasang ko‘p yema, izzat tilasang ko‘p dema. Xotung‘a qavshonma, xayrg‘a ishonma. Yaxshi libos – tang‘a oroyish, yaxshi qo‘ldosh – jong‘a osoyish. Tome‘din karam tilama, gadodin diram tilama. Baxildin amonat ajab, karimdin xiyonat ajab. Choqin siymin o‘ksa bo‘lmas, yog‘in rishtasin tugsa bo‘lmas. Telba qulog‘iga pand – quyun ayog‘ig‘a band.

T a n b e h (114).

Bebok – hamdamliqqa yaramas, nopol – mahramlikka yaramas. Erning qilib‘i – sutning ilib‘i. Terlagan oyilur, o‘surgon uyolur. Yasanchoq – mardona bo‘lmas, ko‘palak – parvona bo‘lmas. Do‘sit javridin ingranma, dushman bedodidin gungranma.

T a n b e h (115).

Molliq nodonning demagi, oltunluq chibinning yemagi ma‘lum. Fosiqdin hayo tilama, zolimdin vafo tilama. Kular yuz bilan ato, saxo ustiga saxo. Arig‘siz ish safo bo‘lmas, it g‘anchisi aso bo‘lmas. Aningkim shohlarg‘a xizmati xo‘braq, qo‘rqunchi ko‘prak. Ishqsiz kesak, dardsiz eshak. Qone‘ tilanmas farzona, qanoat tunganmas xizona. Elga qo‘shulg‘on oroyish topti, eldin uzulg‘on osoyish topti. Har yugurgan yovushmas, har ayrulg‘on qovushmas. Juhud o‘z dinidin mahjur, hasud o‘z fe‘lidin ranjur. Xasm necha haqir bo‘lsa, ko‘ngul qo‘zg‘atur va xas necha ushoq bo‘lsa, ko‘z bulg‘atur. Dushman so‘zi to‘zimi eldin,

suv xatlari – yeldin. Ushoqlar ishi nima bo‘lmas, pista qo‘bug‘i kema bo‘lmas. Dushman maqoloti – bang xayoloti. Hez – vafosiz, toz hayosiz.

T a n b e h (116).

Osoyish tilasang olam ahlig‘a hamdam bo‘lma, baxshoyish tilasang, o‘zlugungga ham qo‘shulma. Zamon ahli zabon ahlidur. Har kim alarg‘a yovushti, Haqdin yiroq tushti. Har kim alardin ayru tushti, Haqning yaqinlarig‘a yo‘luqushdi.

Yaxshi bo‘l yo yamon, ikkisi bo‘lurmen degan hamon-u yamon hamon. Yamon bila yaxshi orasida ko‘p farqdur, ikki kemaning uchin tutqon g‘arqdur. Har qavm oyini bila zuhur qilsang alardinsen, alar yamon bo‘lsa, sen – yamon va alar yaxshi bo‘lsa, sen yaxshilardinsen. Bas o‘zni yaxshilar orasida yashurg‘on va alar etagiga ilik urg‘on yaxshiroqdur va xavf-u biymdin qiroqdur. Itga eranlar suhbatidin eranlar hukmi bor va najas tuzloqqa tushsa, tuz hukmin tutar. Baso qobilki, yaxshilardin ayrildi, yamonlar suhbatani zoye’ qildi.

Sayyidzodayikim, lo‘lilarga o‘tkangay, maymunbozlik va duduktaroshliqdin o‘zga ne o‘rgangay? Shoh qasri kabutarikim, sahroyilarg‘a qo‘shulg‘ay, kecha qo‘nar yeri choh tubidin o‘zga ne yer bo‘lg‘ay. Yomondin yaxshiliq ko‘z tutmoq fosid xayoldur, itdin kiyikka va mushukdin kabutarga shafqat maholdur. Zoti dushman va muxolifni do‘s dema, o‘zungga bozi berma va bozi yema.

Tabiiy dushman vaqte do‘s bo‘lg‘aykim, suv o‘tni o‘churmagay va yel tufrog‘ni sovurmag‘ay. Inson bila shayton orasida adovatdurdur va tabiiy muxolifat: biri o‘tdin yaratildi va biri tufrog‘din yaratildi. Bu adovat arolaridadur ul chog‘din o‘t g‘olib bo‘lsa, tufrog‘ni kul qilur va tufrog‘g‘olib bo‘lsa, o‘tni o‘chirur.

Odam bila shayton muxolifatin unutma. Ota dushmanin

o‘zungga do‘st tutma. Otangni bihishtdek ma’manidin jalo qildi va yillar xokdon g‘aribistonida zalil va mubtalo qildi. Va otang avlodidin ba’zi anga intiqom tuzdilar va xor-u zabun qilib jafolar ko‘rguzdilar. Nafsni chun taqvo riyozati bila zerdast qildilar – shaytonni zalilliq bila yerga past qildilar.

Sizning bu adovatingiz hargiz adam bo‘lmas. Bu dushmanliq arongizdin hargiz kam bo‘lmas. Bu g‘olib dushmandin bir dam g‘ofil qolma, o‘churolmas isyon o‘tin o‘z xirmaningga solma.

T a n b e h (117).

Nodon do‘stni ham do‘st sonig‘a kivurma, xirad sham’in aning harza afsonasi yelidan o‘churma. Baso tifl-kim, ayni muhabbatdin ato saqoli tukin tortib uzubtur va sajiodasi mehrobida beadablig‘ ko‘rguzubtur va namozin buzubtur. Va baso mastkim, niyoz yuzidin ayog‘ o‘pkali egilibdur va beixtiyor qayddin pokdomanlar etagin mulavvas qilibdur. Dono dushmandin naf‘ imkonи bor va nodon do‘stdin zarar imkonи ko‘prak bor va munga alar bila ixtilot qilmamog‘ kerak.

T a n b e h (118).

Bashar jinsidin vafo ko‘z tutma va xirad naxlin fosid xayol samumi bila qurutma. Bir vafo qilsang, o‘n jafo tortarg‘a muhayyo bo‘l, muncha bila qutulsang, jong‘a minnat tutub uzrlarin qo‘l.

Yuqoriroq vafosiz ahli zamon dostoni o‘tubtur va xirad zamon ahli yerlarini unutib, vafo oyinidin ma’zur tutubtur.

T a n b e h (119).

Xo‘b – ruhafzo, zisht – umrfarso, xushxulq nozanin – huri bihishtoyin. Yomon mijozliq zisht – devi do‘zax sirisht. Muxannas ne hashvki demagay, mokiyon ne najosatki yemagay. Erdin so‘z hunar, enchidin bo‘z hunar.

Jimriy o‘qulub biyik bo‘lmas, o‘chku yugurib kiyik bo‘lmas. Ko‘nglida xalalliqqa kulgu harom, shoh ollida dashmanliqqa uyqu harom.

Tengri borchani o‘z yo‘lida rahzandin asrasun va shoh ollida dashmandin asrasun.

B a y t:

*O‘z yo‘lida Tengri tutsun elni dushmandin yiroq,
Shah qoshida kimki shaytonvashdurur andin qiroq.*

T a n b e h (120).

Umrni g‘animat bil, sihhat va amniyatqa shukr qil. Fano tariyqin tuz, faqr bila mubohot ko‘rguz. Mazhabingni ixfolig‘ bila eldin yaxshi asra va yormog‘ingni yaxshi va yomondin maxfiy saqla. Aftodalig‘ bila xo‘y tut va shikastalig‘ bila ko‘ngulni ovut.

Befoyda so‘zni ko‘p aytma va foydalig‘ so‘zni eshiturdin qaytma. Oz degan – oz yongilur, oz yegan – oz yiqilur. Ochlig‘ hikmat sarmoyasidur va to‘qlug‘ g‘aflat piroyasidur. To‘qlug‘ hirsin ko‘nguldin yo‘q qil, o‘zung och bo‘lib, bir ochni to‘q qil. O‘zungni zebo libos xayolidin o‘tkar, libos zebolig‘in tilasang bir yalangni butkar. Libos har nechakim zebodur, kiyganiningdin kiydurganiningdin avlodur.

B a y t:

*Nechakim to‘nni rioyerat birla kiysang eskirur,
Chunki kiydurdung yalangg‘a uframmas to‘n ul erur.*

T a n b e h (121).

Har kishini dema mahram-u hamrozdurkim, bu mato' olam ahlida ozdur. Bashar jinsin rozingg'a mahram bilma, balki malakni o'zungga mahram qilma. O'zung asrardin agar sanga maloldur, yana birov ani asramoq maholdur. O'z maxzaniningni ochsang va maxfiy durlaringni sochsang, tergan kishi sepamay netkay va asra deb, mubolag'a qilg'o-ning ne yerga yetgay? O'zung o'z sirringni asray olmag'o-ningni bilursen, yana birov ani fosh etsa, ayb ham qilursen.

Bu sir asramog'ingdin lavhashalloh va e'tiroz qilmo-g'ingdin borakalloh!

Ko'zni o'z aybingdin olma va o'zgalar aybig'a ko'z solma.

B a y t:

*Biynandadur o 'lsa kishi o 'z aybig 'a hozir;
Ko 'z ochma bo 'lurg 'a, yanalar aybig 'a nozir.*

T a n b e h (122).

Chin so'zni yolg'ong'a chulg'ama, chin ayta olur tilni yolg'ong'a bulg'ama. Yolg'onchi kishi emas, yolg'on aytmox eranlar ishi emas. Yolg'on so'z deguvchini bee'tibor qilur, nechukkim, ul gavharni xazafdek xor qilur. Ulki chin so'zni yolg'ong'a qotar, durri saminni najosatg'a otar.

B a y t:

*Gavharekim, shohlarg 'a zebi toj-u taxt erur,
Toshlag 'on oni najosatg 'a ajab badbaxt erur.*

T a n b e h (123).

Tengri do'stlari sidq-u safo ma'danidur. Yolg'onchini debdurlarki, Tengri dushmanidur.

Tilingni ixtiyoringga asrag‘il, so‘zungni ehtiyot bila degil. Mahallida aytur so‘zni asrama, aytmas so‘z tegrasi-ga yo‘lama. So‘z borkim, eshituvchi tanig‘a jon kiyurur va so‘z borkim, aytg‘uvchi boshin yelga berur. Tiling bila ko‘nglungni bir tut, ko‘ngli va tili bir kishi aytg‘on so‘zga but. So‘zni ko‘nglungda pishqormag‘uncha tilga kelturma, harnakim ko‘nglungda bo‘lsa tilga surma. Agarchi tilni asramoq ko‘ngulga mehnatdur, ammo so‘zni sipamoq boshqa ofatdur. Aytur yerda unutma, aytmas yerda o‘zungni mutakallim tutma. Aytur so‘zni ayt, aytmas so‘zdin qayt. Oqil chindin o‘zga demas, ammo barcha chinni ham demak oqil ishi emas.

M a s n a v i y:

*Xiradmand chin so ‘z din o ‘zga demas,
Vale bari chin ham degulik emas.*

*Kishi chin so ‘z desa zeboturur,
Necha muxtasar bo ‘lsa, avlo durur.*

T a n b e h (124).

Uyg‘oqlig‘da ne ollingga kelsa, qazodin ko‘r, uyquda har ne tushungga kirsa, yaxshi yo‘r. Elning so‘ziga har ne yomonliq mahmil topma, g‘olib aduv mag‘lubing bo‘lsa, sharr tarafin zohir qilib, xayr jonibin yopma. Qaviy dushman zabuning bo‘lsa muruvvat qil, karam va afv ko‘rguzgil.

Zolim va bedard suhbatida nukta surma, nammom va nomard muloyamatida dam urma. Dono ilikdin borg‘ondin so‘z aytmas, o‘tgan yigitlik orzu bila qaytmas.

O‘tgan ro‘zgor adamdur, kelmagandin so‘z aytqon ahli nadamdur va hol mug‘tanamdur. Bir turk bu ma’nida deb-durkim: «Dam bu damdur».

B a y t:

X o t i m a d a;

Tanbeh (125).

Suvdin asrag‘ulukdur tufroq va balchig‘ uyin. Va o‘tdin asrag‘uluqdur yag‘och va qamish uyin. Va yeldin asrag‘ulukdur bo‘z uyin. Va tufrog‘din asrag‘ulukdur ko‘z uyin. Jami‘i mosivallohdin asrag‘ulukdur ko‘ngul uyin.

B a y t:

*Nechukkim, to 'rt uyga to 'rt ziddi nuqsoni shoye 'dur,
Beshinchi uy dag 'i ag 'yordin ul nav' zoye 'dur.*

Olam asbobining tuganmasligida bu tanbehdurlar: Masalan, birovkim kirkichdin bir-biriga farsh to'shar bo'lsa, chun ma'hud budurkim, xishtni darz bar darz solmas, qirog'larin bir-biridin o'tkarib, avvalg'ig'a yondosh-tura solg'on ikki xishtning taraflarida ikki ulug' farja pay-do bo'lurkim, yana ikki xisht tilar. Oni solmoq lozimdir. Bu qiyos bila ming yo ikki ming xisht farsh solilsa bu nav' farjalar bag'oyat ko'p hosil bo'lur. Har qaysining islohog'a yana xisht solg'on sayi ul farjalar ul xishtlarga ko'ra ko'p zohir bo'lur. Agarchi ul farja zohir bo'lg'on takmili uchun yana xisht solilsa, «Arzullohi vosi'atun» yuzin, balki kurayi arz davrasin tamom xisht solmoq lozim kelur. Bovu-judi ulkим, bu mahol xayolni kishi taaqqul qilsa tuganmog'i-ning imkonи yo'qtur. Kishi tuganmagini faraz qilsa, ul far-

jalar birla ming, balki yuz ming bilonihoya ortar. Alarning islohini mahol faraz birla ham taaqqlul qilsa bo‘lmas. Mu-ning iloji va tadoruki xishtni zoviya qilmoq bila va andin ham ushog‘roq ushatmoq bila muyassar bo‘lurkim, mud-dao qilg‘oncha yerga chun farsh to‘saldi, paydo bo‘lg‘on farjalarg‘a ko‘ra xishtlarni ushotib solg‘aylar yo ul dush-vorlig‘ osonlig‘ bila ilaydin qo‘pqay.

T a n b e h (126).

Kelduk mushabbahg‘akim, olam asbobidur, kishi tilasakim, ko‘ngul tilagandek va bashariyat tomeasi taqozo qilg‘ondek asbobini tuzatgay nima ko‘p kerak ul keraklik nimalardin bir nechasi muyassar bo‘lsa, yana aning itmomi va takmilig‘a yuz oncha, balki ko‘prak kerak bo‘lur ham aning anjomin taaqqlul qilsa ul ham mujibi zavoidlar bo‘lur. Andoqkim, aning saranjoming tasavvuri maholotqa yuz qo‘yar. Masalan, ba’zi salotindekkim, necha iqlimni oldilar o‘zga aqolim xayoli boshlarig‘a tushti, muning dag‘i iloji va tadoruki bir necha muddaodin kechmak va bir necha orzudinki, bashar tab‘ining lozimasidur, o‘tmak bila hosil bo‘lur. Emdi so‘zning aslig‘a shuru‘ qiloli: Bu olam asbobi muddao va orzusin andoqkim, biror nima xotirdin salb qilg‘on bila ko‘p tashvish va taklifdin maxlas voqe’ bo‘lur, agar bilkull tamomi mud-dao va orzudin kishiilik tortsa, dunyoning barcha ofot va baliyyotidinkim, ishtig‘oli Haq yo‘lining mone‘idur, ozod va forig‘ bo‘lmoq muyassardurkim, bu davlat ko‘p muvofiq bandalarg‘a dast beribdur va aroda bor ekan-durlar va holo ham bor ekinlar. Va alarkim, arodin chiqib-durlar, zikrlari mashoyix va ulamo kutubida mazkurdir.

Emdi kelduk mushabbahg‘akim, farsh to‘shamamak-dur, ul dag‘i andoq xishtni ushotqon bila va zoviya qilg‘on bila ko‘p mushkulligi osonliqqa yuz qo‘yar. Agar bu farsh xayolin tamom ko‘nguldin chiqorilsa, kishi ul mahol

tasavvurdin ham tinar va xalos ham bo‘lur yo uyga agar farsh bo‘lmasa nafs tana’umoti va talazzuzotidin ne o‘ksugay. Va avliyo (qaddasallohu asrorahum) axloq va sifoti ta‘rifida, balki anbiyo (salovotullohi alayhim) ahkom va sharoye’i zikrida uy farshi so‘zi o‘tubmu ekin, andoqkim, uy farshig‘a hech ish vobasta emas va ul hech ishga muhtojun ilayh emas. Fi-l-haqiqat olam asbobi dag‘i besh kunlik umrdakim, nihoyati o‘lmakdur va barcha qonlar yutub hosil qilg‘on asbobin yuz hasrat va armon ila qo‘yub ketmak.

Har kishikim, Haqdin qabul saodatig‘a musharraf bo‘lubtur, ani rad qilibdur va bori ahli qabulning mardudi bilibdur, chun ani tamomi xotirdin mahv etibdur, asliy maqsudig‘a yetibdur. Va ul mushabbah va mushabbahun bih arosida bu tafovut ham borkim, ul farshqa shuru’ va tarkidin foilig‘a sud va ziyoneki, aytsa bo‘lg‘ay, yo‘qtur. Va dunyo asbobi ishtig‘olidakim, Haq yo‘li sulukidin mone’dur bir nafas yuz olamcha ziyon va har dam ming falaki a’zamcha nuqson gunashdin ravshanroqdur.

Hikoyat: Horun ar-Rashid²⁷ Shayx Bahlul²⁸ suhbatin havas qildi va ul matlub husulin multamas qildi. Bahlulg‘akim, bu xabar yetti, Horun suhbatin musharraf etti. Xalifikim, Bahlul ayog‘in yolang ko‘rdi, kafsh kiyamgonining kayfiyatini so‘rdi. Majzubkim, yillar kafshsiz sayr etib erdi, kafsh degan nima yodidin ketib erdi. Bilgachkim, kafsh dunyoda mavjud bor, tabassum bila dedikim: «Kishi ani tilasa qaydin topar?» Horun dedikim: «Bozorda ko‘ptur. Olur ani har kishikim, har qaysi ayog‘iga xo‘bdur». Bahlul so‘rdikim: «Har kim ani olmoq mayli qilur, ammo bahosi qaydin topilur?». Horun ayttikim: «Bahosin biz saranjom qilali va saning uchun sotqun ola-li». Bahlul dedikim: «Ani kiygan gohi ayog‘idin chiqarsa, kim asrar va kecha uyusa, kim saxlar?» Horun dedikim: «Qul beralikim, asrasun va sen qayda chiqarsang, saxlasun». Bahlul dedikim: «Ul ham yolang ayog‘ bo‘lsa

netay? Kafsh olay desa bahosi qaydin yetgay? Horun dedikim: «Ani ham biz berali, ul sanga kiydurgandek biz anga kiydurali». Bahlul dedikim: «Ul och qolsa, ne yegay va yolang qolsa dardin kimga degay?» Horun dedikim: «Kiymagin xizonadin yetkuray va yemagin bovarchidin buyuray». Bahlul dedikim: «Men ayog‘ yolang o‘rganibmen va kafsh va o‘tukdin o‘sonibmen. Kafsh kiysam, shoyad dastor ham chirmatqaysen va meni boshtin ayog‘ balog‘a qolg‘onlarg‘a qotqoysen. Va o‘zung ham bu ikki taklifga qolg‘aysen. Bu savdodin kechsang sanga bu mehnatdin qutulmoqdur, manga ham bu boshtin-ayog‘ balodin xalos bo‘lmoqdur».

Piri roh va soliki ogoh mundoq durrdek takallum-kim surdi, bu gavharlarni aning qulog‘ig‘a urdi. Shohni ul mojarodin o‘tkardi va o‘z ayog‘in kafshdin tortti, boshin dastordin qutqardi.

B a y t:

*Forig‘ etti besar-u poni ul guftordin,
Ham ayog‘in kafshdin, boshini dastordin.*

T a n b e h (127).

Kafshsizlikdin malul bo‘lmag‘il, ayog‘sizlarg‘a boqib shukr qil. Dastor yirtug‘lug‘idin g‘am yema, boshi yorug‘-larg‘a boqib Tengri hamdidin o‘zga dema. Tanpo‘shung durust bo‘lmasa, tandurustlug‘ungg‘a shokir bo‘l, iching qutig‘a g‘izo topmasang, ich og‘rig‘ing yo‘q shukrig‘a zokir bo‘l. Kisangda agar diram yo‘q, ko‘nglungda kisabur g‘ami ham yo‘q. Iflos mashaqqatin burchlulu-g‘ung yo‘qidin unut, har holda shukr va qanoat tariqin berk tut. Agar oting yo‘qtur, arpa g‘amin yemassen. Agar qulung yo‘qtur, kishi quli xud emassen. Qamar qursig‘a ilking yetmasa, qo‘g‘lama, o‘tmak ham mug‘-

tanamdur. Zarbaft baholi libosi bo‘lmasa, farog‘at bo‘r-yosi qachon andin kamdur?! Agar shunqordek bo-shingda zardo‘zluk tumog‘adin toj emasdur, shukr qilkim, ko‘zung yoruq dunyoni ko‘rarga muhtoj emastur. Agar shunqor egasidek belingga bahlayi zarnigor yo‘q ham, shukrdurkim, ilging bahla panjasidek nokor yo‘q va andin sanga ozor yo‘q.

Har shiddatekim, bilursen andin qatiqroq hol bordur va har suubateki, gumon qilursen andin sa’broq ko‘b kishiga giriftordur. Har mashaqqatkim, senda yo‘qtur, seningdekda bor. Ul sanga ne’matedur shukr ayturg‘a sazovor. Har ne’matkim, sanga beribtur va seningdekka bermaydur. Hamd-u sano ayturg‘a kiromand Haqdin bu behisob inoyatlarni bil va munga ko‘ra bandalik fikrini qil. Har necha ibodat qilsang, ko‘nglungni taqsir qilg‘ong‘a moyil tut va har necha toat qilsang, tilingni uzr ayturg‘a qoyil tut. Sen va qilg‘aning ma’dumi mahz, vujud Haq vujudi, har ne aning g‘ayri nobud va mutlaq va bud aning budi.

Ilohi, bu ajzodurkim, yaxshi-yomon sifoti anda maz-kurdur, maqbul-u mardud holoti anda mastur, bitguvchisi agarchi yomonlardindur va yaxshilardin emas, ammo sendin yaxshiliq tama’ig‘a o‘zin yomonlardin demas.

Ilohi, ani yaxshilar orosidin huratma va yomonlar xaylig‘a qotma. Tiliga kelgan bila ko‘nglin sodiq tut va qalamig‘a yozilg‘on bila zamirini muvofiq tut. O‘zingdin o‘zgadin yuzin qaytar. O‘z so‘zungdin o‘zga so‘zin ko‘nglidin chiqar. Ul yon tutkim, sanga yetishgay va ul yo‘lg‘a yurutkim, sanga qorishgay. Tiliga o‘zungdin o‘zgani yovutma va ko‘nglini o‘zungdin o‘zgaga ovutma. Ko‘nglini tasalliyi visoling bila ovut va ko‘zini tajalliyi jamoling bila yorut. Bu zamir farzandin ko‘zlarga mahbub et va bu bag‘ri payvandin ko‘ngullarga marg‘ub et.

R u b o i y:

*Bu nomaki, xomasig ‘a qilding maktub,
Qil ahli qulub ollida «Mahbubi qulub».
El ayb topardin qilma ma’yub.
Har kim o ‘qusa nasiba etgil matlub.*

K i t o b n i n g t a r i x i z i k r i d a:

*Bu nomag ‘akim, lisonim o ‘ldi qoyil,
Kilkim tili har nav’ el ishiga noqil.
Tarixi chu «xush»²⁹ lafzidin o ‘ldi hosil,
Harkim o ‘qusa, ilohi, o ‘lg‘ay xushdil.*

«Mahbub ul-qulub»ning izoh va tarjimalari

Asar Navoiyning umri oxirida – 1500-yilda yozilgan. O‘zbek nasrinining g‘oyat go‘zal namunasidir. Navoiy badiiy tafakkurining xulosasi, hayotiy mushohadalarining yakunidir. Asarda muallif o‘ziga cha bo‘lgan forsiy nasrning eng ilg‘or an’analalarini rivojlantirgan, qator masalalarni o‘z davri diniy, ijtimoiy va siyosiy voqeligini, hokim mafkura bilan bog‘lab, yangicha talqin qilgan. Asardagi insonni ulug‘-lash, barkamol ko‘rish – uning bosh xatini, hajviy portretlar, qaydlar – fosh qilvchi qudratini, rad etishlik mantiqi – isyonkorlik ruhini, axloqiy hikmat – didaktik yo‘nalishini, bayondagi fikr teranligi, tilning go‘zalligi, puxtalik, muxtasarlik, uslubiy jilolar, she’riy parchalarning keltirilishi – yuksak badiiyatini belgilaydi.

Muqaddimada, Navoiyning e’tirof qilishicha, bu asar zamondoshlari va avlodlarga o‘rnak bo‘lishi, yaxshilik va yomonlikni anglashda, go‘zallikni ardoqlash va ezgu-

liklarga intilish, din va e'tiqodda sobit turishlik, chirkin xislatlar va yovuzliklardan asranishda dasturulamal bo'lishligini nazarda tutadi.

Odobni tasnif an'anasiغا ko'ra, asar Alloh hamdi bilan boshlangan. Uning yolg'izligi, azamati, niyozmandligi, qodirligi va hokazolar madh etiladi.

Muhammad payg'ambar (alayhissalom)ning madhi na't qismida beriladi. Shundan so'ng Navoiy o'zi haqida, hayoti, faoliyati qanday kechganligini nimalardan xursand, nimalardan ranjib yashagani qalamga olinadi. Asarni yozishdan ko'zlagan maqsadi va uning mundarijasi bayon etiladi. Navoiy «umid ulki, o'qig'uvchilar diqqat va e'tibor ko'zi bilan nazar solg'aylar va har qaysi o'z fahm-u idroklariga ko'ra bahra olg'aylar, bituvchiga ham bir duo bila bahra yetkurgaylar va ruhini ul duo bila suyundurg'aylar», – deb muqaddimani yakunlaydi.

Muqaddima

1. *Mahmud* – Muhammad payg'ambar (a. s.)ning laqabi.
2. *Anosir* – to'rt unsur (suv, havo, tuproq, olov).
3. *Masih* – Iso payg'ambarning laqabi.
4. *Ya'qub* – Ibrohim payg'ambarning nevarasi. Uning 12 o'g'li bo'lган. Otasi o'limidan so'ng uni Alloh payg'ambarlikka noil qilgan. Og'alari Yusufni quduqqa tashlab, bo'ri yeb ketdi, deb xabar bergenlaridan keyin Ya'qub o'g'li hasratidan Bayt ul-ahzon kulbasida yig'-lay-yig'lay ko'zlari ko'r bo'lib qoladi. Yusufdan yaxshi xabarlar eshitgach, ko'zi ochiladi. Ya'qub payg'ambarning laqabi «Isroil»dir. Undan so'ng kelganlarni «Bani Isroil» deydilar. Qur'oni karimda Ya'qub haqida 15 ga yaqin oyatlar bor (masalan, Baqara, Imron, Niso va b.). Adabiyotda talmih san'atida ko'p keladi. Oshiqning huzn, iztirob-lari, ayriliqdan ko'z yoshlari to'kishi va hokazolar qalam-

ga olinar ekan, uning o‘zini yoki ko‘nglini Ya’qubga o‘xshatiladi. Ko‘pincha Ya’qub Yusuf bilan birga tilga olinadi.

5. *Xizr* – Obi hayot ichib, barhayotlikka erishgan avliyolardan. Navoiy «Tarixi anbiyo va hukamo» asarida u haqda ma’lumot berib o‘tadi. Payg‘ambarligi haqida ham bahs yuritadi. Adabiyotda avliyolarga, yaxshi insonlarga yo‘ldoshlik, madadkorlik qilish bilan mashhurligiga urg‘u beriladi.

6. *Buroq* – tez yuradigan, tez chopadigan va uchadi-gan otga o‘xhash markabning nomi. Muhammad alayhis-salom shu markab vositasida Me’rojga ko‘tarilgan.

7. *Ruh ul-amin* – Jabroil (a. s.)ning laqabi.

8. Tarj. ar.: Va u (sizlarga keltirayotgan Qur’onni) o‘z havoyi-xohishi bilan so‘zlamas («Va-n-najm» surasi, 3-oyat).

9. Tarj. ar.: U (Qur’on) faqat (Alloh tomonidan Payg‘ambariga vahiy qilinayotgan (tushirilayotgan) bir vahiyidir («Va-n-najm» surasi, 4-oyat).

10. Tarj. ar.: (Ey Muhammad), darhaqiqat Biz sizni barcha olamlarga faqat rahmat (ya’ni Allohnинг rahmati – jannatiga yetaklovchi) qilib yubordik. («Anbiyo» surasi, 107-oyat).

11. Tarj. ar.: «Sahobalarim yulduzlar kabidirlar...» deb boshlanadigan hadisga ishora.

12. Tarj. ar.: Qiymat kuniga qadar unga (Muhammad alayhissalomga), uning oila a’zolari va sahabalariga Allohnинг salot-u salomlari bo‘lsin.

13. Tarj. ar.: gunohlaridan kechib, ayblarini bekitsin.

14. Soir un-nosning af’ol va ahvoli kayfiyati – har xil toifa odamlar fe’l-atvori va ahvoli kayfiyati, demakdir.

15. Hamida af’ol va zamima xisol xosiyati – yaxshi fe’llar va yomon xislatlар xosiyati, demakdir.

16. Mutafarriqa favoyid va amsol surati – xilma-xil foy-dalar va hikmatli so‘zlarning ko‘rinishi, demakdir.

Avvalg‘i qism

1. Tarj. ar.: «Men yerda (Odamni) xalifa qilmoqchi-man». («Baqara» surasi, 30-oyat).
2. Tarj. ar.: Men odil sulton zamonida tug‘ildim (Hadis).
3. *Xojayi kavnayn* – a. f.: ikki dunyo egasi, demakdir. Muhammad payg‘ambar (a. s.) ko‘zda tutiladi.
4. Tarj. ar.: bir soatlikadolat, insu jin ibodatidan yaxshiroq (Hadis).

5. *Shoh Abulg‘oziy* – Husayn Boyqaroning laqabi.

Shoh Sulton Husayn Boyqaro (1438, Hirot – 1506, o‘sha shahar) temuriylardan. – Temurning o‘g‘li Umarshayxga nabira, Mansur binni Boyqaroga o‘g‘il. Onasi – Temurning nabirasi Feruzabegim. Bu tarafdan Mironshoh Mirzoning ham nabirasi edi. Husayn Boyqaro she’riyat bilan shug‘ullangan sohibi devon shoirdir. U «Husayniy» taxallusi bilan asosan dunyoviy ishq va uning kayfiyatlari haqida she’rlar bitgan. Husayn Boyqaro 1485-y.da nasriy bir risola ham yozgan. Unda o‘zining faoliyatini shaxsiy kechinmalarga boy, ko‘tarinki ruhda bayon etar ekan, mamlakatdagi madaniy-ilmiy, adabiy ijod ravnaqiga alohida to‘xtaladi va Jomiy hamda Navoiylarga yuksak baho beradi. Ma’lumki, Ali-sher Navoiy ham o‘z faoliyatida, ham o‘zining har bir asarida Husayn Boyqaroga mustasno o‘rin ajratadi. Bu yerda Navoiy Husayn Boyqaroni odil sultonlarning eng sarasi sifatida tilga oladi.

6. *Jabroil* – Xudo bilan payg‘ambar o‘rtasidagi vositachi, vahiy keltiruvchi farishtaning nomi.

7. *Homon* – Muso payg‘ambar zamonidagi Misr Fir‘avnining vaziri. Muso dushmani bo‘lgan bu vazir Fir‘avnni ko‘p yomon ishlarga undagan.

8. *Osaf* – Sharq adabiyotlarida eng yaxshi vazirga berilgan unvon sifatida keladi. Osaf ibni Barxiyo Sulaymon payg‘ambarning mashhur vaziri. U «ismi a’zam»ni bilgan va karomatlar sohibi bo‘lgan.

9. Tarj. ar.: Insof qilganga Alloh rahm qiladi so‘zлari Osaf uzugiga naqshlangan.

10. Tarj. ar.: aziyat keltiradigan narsalarni o‘ldiringlar (Hadis).

11. *Hotam* – Ibn Abdulloh bin Sa’dning laqabi Hotami Toyi nomi bilan ham mashhur. Toy qabilasining boshlig‘i va shoир bo‘lganligi haqida rivoyatlar bor. Hotam adabiyotda saxovat, saxiylik timsoliga aylanib ketgan.

12. *Rustam* – Firdavsiy «Shohnoma»sidagi bosh qahramonlardan Zolning o‘g‘li. Firdavsiy Rustamning dunyoga kelishi va unga ism qo‘yilishini shunday hikoya qiladi: Zolning xotini Rudoba homilani og‘ir ko‘tara-di. Oy-kuni yetib, dard boshlanib, hushidan ketadi. Sarosimaga tushgan Zol afsonaviy qush – Simurg‘ vosita-sida jarroh topib keladi. Jarroh Rudobaning yonini kesib, bolani omon oladi. Hushiga kelgan ona yonida yotgan farzandini ko‘rib xursand bo‘ladi va oh tortib «Rustam!» (ya’ni, azob-u dardlardan xalos bo‘ldim ma’nosida), deydi. Onaning og‘zidan birinchi chiqqan shu so‘zni bolaga ism qilib qo‘yadilar. Sharq adabiyotida Rustam an’anaviy obraz – timsolga aylanib ketadi. U pahlavonlik, mardlik ramzida tilga olinadi.

13. Tarj. ar.: teng, barobar, demakdir.

14. «Lo» – a. «yo‘q», «naam» – «ha», demakdir.

15. *Ruhulloh* – Iso payg‘ambarga nisbatan qo‘llaniladigan ta’bir. Otasiz tug‘ilgани uchun bu ism bilan atashgan. Bu yerda Isoyi Ruhullohning o‘z nafasi bilan o‘likni tiriltirish qudrati tabiblarning davosozligiga qiyos qilinmoqda.

16. Tarj. ar.: qasd bilan, qasddan, demakdir.

17. *Ali* – Ali bin Abu Tolib to‘rt buyuk xalifalarning oxirgisi (598 – 661), Muhammad payg‘ambar (a. s.)ning amakivachchasi va kuyovi.

18. Tarj. ar.: Alloh undan rozi bo‘lsin va Alloh uning yuzini mukarram qilsin.

19. *Farididdin Attor* – Muhammad ibn Abubakr binni Ibrohim (1148/51–1219/21) tasavvuf olimi. Ijodiyotda Husayn ibn Mansur al-Xalloj (858–922), Boyazid Bistomiy (vaf. 875) ta’limotining davomchisi. Attorning «Mantiq ut-tayr»iga Navoiy, o‘z e’tiroficha tarjima yo‘sini ila «Lison ut-tayr»ni yozgan. Bu yerda Navoiy Attorni sirlar javohirlarini shoir yaratgan, deb ta’riflamoqda.

20. *Mavlono Jaloliddin Rumiy* – tasavvufning buyuk shoiri (1207, Balx – 1273). Quniya shahrida mudarrislik qilgan. Uning ijodi Farididdin Attor ta’sirida shakllangan. Manbalarda Attor Jaloliddin bilan Nishopurda uchrashib suhbatlashgani va «Asrornoma» asarini unga tuhfa qilgani qayd etiladi. «Devoni Shamsi Tabriziy» nomi ostida mashhur bo‘lgan lirik she’rlar majmuasida Jaloliddinning 3000 baytdan ziyod she’rlari 270 baytdan iborat «Masnaviyi ma’naviy» asari o‘rin olgan. Navoiy bu yerda Rumiyni «g‘avvosi bahri yaqin» (ya’ni haqiqat asrorini o‘rganuvchi, Allohni taniganlar dengizining g‘avvosi) deb ta’riflaydi.

21. *Sa’diy Sheroziy* – Muslihiddin Abu Muhammad Abdulloh ibni Mushrifiddin (1203 – 08, Sheroz – 1292, shu shahar) shoir, nosir va mutafakkir. Yoshligida yetim qolib, kichkina bir baqqolchilik do‘konidan tushgan nochor daromadi bilan oilaga ko‘maklashadi. Mo‘g‘ullar istilosidan keyin sayohatga chiqib, 20 yil mobaynida Turkiston, Hindiston, Shimoliy Afrika, Janubiy Arabiston, Kichik Osiyo shaharlarini kezib, Bag‘dodga qaytadi. Sa’diy boshlang‘ich ta’limni o‘z yurtida olgan edi. Keyinchalik u Bag‘doddan «Nizomiya» va «Mustansiriya» madrasalarida arab tili va adabiyoti, hadis va Qur’oni karim, kalom va tasavvufni o‘rganadi.

Uning «Bo‘ston», ayniqsa «Guliston» asarlari o‘sha vaqtdayoq va keyingi davrlarda ham juda mashhur bo‘lgan. 4 ta g‘azallar devonida ham g‘inoiy she’riyatining eng

go‘zal namunalari jamlangan. Sa’diy ijodida ishqি majoziy va ishqи haqiqiy tarannumi chatishib ketgan. Unda didaktik yo‘nalish ham kuchli. Bu yerda Navoiy Sa’diyini «Ma’no ahlining go‘zal so‘zlar aytuvchisi» deb, ta’riflaydi.

22. *Amir Xusrav Dehlaviy* – Yaminiddin Abulhasan Amir (1253, Patyol –1325, Dehli). Shoир va mutafakkir. Uning otasi Sayfuddin Mahmud mo‘g‘ullar istilosи oldidan Shahrisabzdan Hindistonga ko‘chib ketadi. Xusrav ilk she’rlarini «Sultoniy» taxallusida yoza boshlaydi. Uning g‘inoiy-lirik she’rlar devoni 5 ta bo‘lib (umumiy hajmi 32645 bayt), ularni alohida nomlagan va bu an’anaga asos soladi. Xusrav Nizomiy «Panj ganj»iga javoban «Xamsa» yaratib, xamsachilik an’anasini ham boshlab bergen shoirdir. Xusrav qator nasriy asarlar muallifi hamdir. «Xazoyin ul-futuh» («G‘alabalar xazinalari») «E’jozi Xusravy» («Xusrav mo‘jizasi»), «Manoqibi Hind» («Hind manoqiblari») shular jumlasidandir. Navoiy Xusrav Dehlaviyga katta muhabbat va yuksak ehtirom bilan qaragan va uni har bir dostonida hamda boshqa nasriy asarlarida madh etib o‘tgan. Bu yerda uni ishq ahli orasidagi sadoqatli oshiq va pok aqidalar yurituvchisi, deb ta’riflaydi.

23. *Zahiriddin Sanoiy* – Abdulmajid Majdud ibni Odam (1079 – 80, G‘azna, 1140, shu shahar) bo‘lishi kerak. Bu shoир ismi yo laqabi Zahiriddin bo‘lgani ma’lum emas. Zahiriddin Tohir ibni Muhammad Foryobiy (1160, Foryob (Balxdagi – 1202, Tabriz) degan shoир ham bor. Lekin Navoiy shoир taxallusini Sanoiy deb aniq yozadi. Sanoiyning katta she’rlar devoni, ayniqsa «Hadiyat ul-haqiqat» («Haqiqatlar gulzori») nomli dostoni g‘oyat mashhurdir. 12 ming baytdan iborat bu dostonni adabiyotda tasavvuf qomusi deb ataydilar. Bu yerda Navoiy Sanoiyini «tasavvuf mushkilotlari tugunini yechuvchisi», deb yodlaydi.

24. *Shayx Avhadiddin* – Avhadiddin Ali ibni Muhammad ibni Ishoq Anvariy (1105, Xovaron (Abivarddagi) – 1187, Balx) shoir va mutafakkir, Tus madrasasida ta’lim olgan. Zamonasining turli ilmlari – nujum, handasa, hikmat, tib, falsafa bilimdoni. Sulton Sanjar davrida (1118 – 1157) saroy shoiri bo‘lgan. U sho‘x tabiatli, ozodfikr shaxs bo‘lib, she’riyatda hajvga moyil edi. Avhaddiddin Anvariyni «qasida payg‘ambari» deb atashgan. Uning qasida (250), g‘azal (337), qit’a (557) va ruboilyardan (472) tarkib topgan Devoni qariyb 15 ming baytdan iborat. Navoiy bu shoirni «ahli yaqin (Allohni taniganlarning) yagonasi», deb ta’riflaydi.

25. *Xoja Hofiz Shamsuddin Muhammad* (1321, Sheroz – 1389, o‘sha shahar) – Mashhur shoir. Tojir oilasida tug‘ilib, yosh yetim qoladi. U nonvoyga shogird tushib, oila ro‘zg‘origa qarashadi. Qur’oni karimni yod olgan hofiz bo‘lgan, taxallusi shu fazilatidan olingan. Hofizni o‘z davridayoq «rind» deb atashgan edi. Buning boisi ko‘proq uning she’riyatda jaranglagan jur’atli ovozi, hur va dadil fikrlariga ko‘ra edi. Hofiz, asosan, g‘azalsaro shoir. 1967-y. Tehronda Xalxoliy Hofiz vafotidan 35 yil keyin, tartib qilingan devon matnini boshqa nashrlar bilan qiyos qilib bosib chiqaradi. Unda 418 g‘azal, 5 qasida, 41 ruboiy, 3 ta kichik masnaviy – «Soqiynoma», «Ohuyi vahshiy» va «Mug‘anniynoma» asarlari mavjud. Hofiz talqinida ishq – halovat sababi, ayni chog‘da ishq – aziyat mohiyati. Hofiz g‘azallarida irfoniy g‘oyalar, tasavvufga e’tiqod ustundir. Navoiy lirik she’riyatda Hofizni o‘z ustozlaridan biri sifatida e’tirof etadi. Bu yerda shoirni ma’nolar hofizi deb ta’riflaydi.

26. *Kamol Isfahoniy* – Kamoluddin Ismoil Isfahoniy (1170, Isfahon – 1237, o‘sha shahar). 10 ming baytdan ziyod she’rlar kirgan devonga ega shoir. Devoni g‘azal, qasida, qit’a, ruboiy va tarkibbandlardan tarkib topgan. Shoir qasidalari faqat madhiya ruhida bo‘lmay, ularda

mahorat bilan zamona nosozliklari, ilm-hunar ahlining nochorliklari, ba'zi davlatmandlarning johilligi yuzasidan dadil fikrlar ilgari suriladi. Shoirning ijtimoiy qarashlari, ayniqsa uning qit'alarida o'z aksini topgandir. Navoiy bu shoirni she'riyatda ko'proq majoz tariqida yozgan shoirlar sirasida tilga oladi.

27. *Xoqoniy Shervoniy* – Afzaliddin Badil ibni Ali (1120, Shervon – 1198, Tabriz). Kosib oilasida dunyoga keladi. Amakisi qo'lida tabib va shoir bo'lib yetishadi, ilm o'rGANADI. Birmuncha vaqt shervonshohlar saroyida xizmat qiladi. Lekin bu muhit va undagi makr-hasad, fitna-fujurlarga dosh bera olmay Haj safariga otlanadi. Qaytgach «Tuhfat ul-Iraqayn» («Ikki Iroq tuhfasi») masnaviyisini yozadi. Saroyni tark etgan shoirni Shobron zindoniga tashlaydilar. U Rum (Vizantiya) shahzodasi Andronik Komnonga qasida bilan murojaat qilib, uning ko'magida zindondan xalos bo'ladi. Zindonda shoirning mashhur «Hibsiyot» manzumalari yaratiladi. Xoqoniy devoni 17 ming baytdan tarkib topgan. Unda 220 qasida, 330 g'azal, 300 ruboiy, 230 forscha qit'a va 450 arabcha she'r bor. Xoqoniy she'riyatining keyingi davr shoirlariga ta'siri sezilarli bo'lgan. Navoiy bu yerda Xoqoniyni majoz tariqida qalam tebratgan shoirlar qatorida sanab o'tadi.

28. *Xojuyi Kirmoniy* – Abulato Kamoluddin Mahmud ibni Ali (1290, Kirmon – 1354, Iroq) Xusrav Dehlaviyidan keyin Nizomiy Ganjaviy an'analarini davom ettirgan ikkinchi shoirdir. U olti doston yozib «Xamsayi Xoju»ga birlashtirgan. Ikki she'riy devoni bor. «Gul va Navro'z» hamda «Shavqiyot» nomli masnaviyilar ham yaratgan. Hofiz uni o'z ustozlaridan deb bilgan. Xoju Kirmoniy Sanoiy, Shayx Attor, Jaloliddin Rumiy an'analarini davom ettirgan. Navoiy bu yerda shoirni majoz yo'lida ijod qilgan so'z san'atkorlari sirasida tilga oladi.

29. *Mavlono Jaloliddin* – Ibni Ja'far Farohoni (vaf. 1336) sohib devon shoir. Nizomiy Ganjaviyning «Max-

zan ul-asrор»ига 3 ming baytli javob yozgan. She’riyatda falsafiy, diniy va axloqiy g‘oyalarni tarannum etgan.

30. *Xoja Kamol* – Kamoluddin Amid XII asrda yashab, ijod qilgan shoir. Buxorodan Xurosonga – Sulton Sanjar saroyiga kelgan. Donishmand inson, mohir xattot va musiqachi bo‘lgan. Anvariylarida yozgan she’rlari anchagini. Kamol devoni zamonamizgacha yetib kelmagan. Ulardan ba’zi namunalar tazkiralarda berilgan. Navoiy bu shoirni majoz yo‘lida she’r bitgan ijodkorlar sirasida keltiradi.

31. *Anvariylarida* – Avhadiddin Ali ibni Muhammad. Mashhur qasidago‘y fors-tojik shoiri. Navoiy uning ijodiga yuksak baho bergen va qasidalariga javob yozgan.

32. *Zahir* – Zahiruddin Nishopuriy XII asrda yashagan shoir va tarixchi, ishqiy va axloqiy mavzularda parokanda she’rlari bor.

Yana Zahir Samarcandiy degan (XII) nasrnavis bo‘lgan. Eng muhim asari «Sindbodnoma» bo‘lib, adolatli shoh timsolini serjilo badiiy bo‘yoqlarda yaratgan. Navoiy bu yerda majoz tariqida qalam tebratgan shoirlarni sanab o‘tayotgani uchun so‘z Zahir Nishopuriy ustida ketyapti chog‘i.

33. *Abdulvose’* – Badeuzzamon Fariduddin ibni Umar ibni Rabe’i Gurjistoniy. Abdulvose’ Jaboliy nomi ostida taniqli (vaf. 1160). Hirotda tahsil ko‘rgan, G‘azna va Mashhadda faoliyatda bo‘lgan. Devoni qasida, g‘azal va ruboilardan tarkib topgan. Ularda bahor va navro‘z, ishq-u muhabbat, do‘stlik va sadoqat tarannum etilgan. Ayni chog‘da, zamonadan shikoyat, xalq ahvoldidan ogohlilikka da’vat, shaxsiy dard-alam ohanglari ham baralla seziladi. Navoiy bu shoirni majoz tariqida yozganlar sirasiga kiritadi.

34. *Asir* – Asiruddin Abdulloh Avmoniy (vaf. 1236) arab va fors tillarida ijod qilgan, ayniqsa Anvariylariga payravlik qilgan shoir. Sodda, ta’sirchan va shirin

she’rlaridan tuzilgan devoni taxminan 5000 baytni tashkil qiladi.

Qariyb shu davrlarda yana bir Asiri Axsikatiy (Asiridin Abulfazl Muhammad Tohir) degan shoir (1108, Farg’ona Axsikati – 1196 – 98, Ozarbayjon Xalxoli) yashagan. U Hirot va Marvda tahsil olib, riyoziyot, tib, kimyo, nujum, hay’at, falsafa, tilshunoslikda shuhrat qozonadi. Ma’lum muddat Iroqi Ajamda istiqomat qiladi. Devonida 120 qasida, 220 g’azal, 80 qit’a, 80 ruboiy, 4 tarkibband va tarje’band, 24 fard mavjud. G’oyalari – e’tiqodda sobit bo‘lish, kajraftor falakdan shikoyat, davlatmandlarning hirs-u havasga ruju’lari va tama’girliklarini qoralab, sabr-u toqat, ilm-u donishga da’vat kabi irfoniy fikrlardan iborat.

Fikrimizcha, Navoiy Asir deganda Asiriddin Axsikatiyni emas, Asiruddin Abdullohni ko‘zda tutgan. Zeroiki, bu shoir Navoiy tilga olgan majoz tariqida ijod qilgay shoirlar jumlasidandir.

35. *Salmon Sovajiy* – Jamoluddin Xoja Salmon ibni Xoja. Alouddin Muhammad (1310, Iroqi Ajam Sovasi – 1376, o’sha yer) Sharq she’riyatida voqeа sanalgan mashhur «Qasidayi masnu» ijodkori. Bu qasida jaloyiriylar vaziri (davri 1327–35) Xoja G’iyosuddin Muhammadga bag‘ishlangan. Muvashshah tariqida yozilgan bu qasidada bir necha bahr-lardan mohirona foydalanilgan. Adabiyotda badiiy jihatdan g’oyat barkamol asar «Qasidayi masnu»ga o’xhatiladi. She’riyatda Sa’diy Hofiz, Kamoluddin Ismoil, Zahiri Foryobiy, Anvariyy va Manuchehrlarga payravlik qilgan. O’zi asarlaridan «Kulliyot» tuzgan. 16 ming baytni o’z ichiga olgan «Kulliyot»ida g’inoiy she’rlari va «Jamshed va Xurshed» hamda «Firoqnama» masnaviylari o’rin olgan.

Navoiy bu shoirni ham majoz tariqida ijod qilganlar sirasida sanab o’tadi.

36. *Nosir Buxoriy* – Shohdarvesh hamda Darvesh Nosir nomlari bilan ham taniqli (vaf. 1371–72) shoir. Tahsil olish maqsadida Xuroson, Ozarbayjon va Iroqqa safar qilgan. Devonida 4000 bayt she’rlar mavjud. «Hidoyat-noma» nomli masnaviysi ham bor. Lirik she’riyatda Hofizga payravlik qilgan.

Bu shoirni ham Navoiy majoz tariqida qalam tebrat-gan ijodkorlar qatorida tilga oladi.

37. *Kotibiy Nishopuriy* – Shamsuddin Muhammad ibni Abdulloh (vaf. 1435, Astrobod). Nishopur madrasasida tahsil olgan. Mavlono Siymiydan xattotlikni o’rganib, xushxat kotib bo’lib yetishgani uchun Kotibiy taxallusini olgan. Hirot, Samarqand, Astrobod, Mozandaron, Gelon, Hijozga safar qilgan. Bir necha devonlari va masnaviyilar bor.

Navoiy Kotibiyni «Majolis un-nafois»ning birinchi majlisida keltiradi va «o‘z zamonining benaziri erdi. Har nav’ she’rg‘aki, mayl ko’rgudi, anga maoniyi g‘ariba ko‘p yuzlandi. Bataxisi, qasoidda balki ixtiro’lar ham qildi va ko‘p yaxshi keldi». Navoiy Kotibiy g‘azallari va qasidalariga yuksak baho beradi, «yaxshi so‘zi ko‘pdur», deb yozadi.

Kotibiyning Astrobodda toun (vabo) marazi bilan dunyodan o‘tganligi va Nuh go‘ron degan mazorda dafn etilganligi «Majolis»dan ma’lum. Bu yerda Navoiy Kotibiyni ham majoz yo‘lida yozgan shoirlardan, deb qayd etadi.

38. *Shohiy Sabzavoriy* – Amir Oqmalik ibni Malik Jamoluddin Feruzko‘hiy, taxallusi Amir Shohiy (1385, Sabzavor – 1453, Astrobod) shoir. Ajdodi sarbadorlaridan bo‘lgan, Shohiy Boysung‘ur mirzo nadimi sifatida saroy xizmatini bajargan. Sarbadorlar mag‘lub etilgach, ota yurtiga qaytib, dehqonchilik bilan mashg‘ul bo‘lgan, Shohiy ko‘proq 5–7 baytli oshiqona g‘azallar bitgan. Ularni Jomiy, Navoiylar yuksak baholagan.

«Majolis un-nafois»da Navoiy yozadi: «Farog‘atdo‘st va xushbosh kishi erdi. Aning she’rini choshni, salosat va yakdast va latofatida ta’rif qilmoq hojat ermas. G‘azali garchi ozdur, ammo barcha xaloyiq qoshida pisandida va mustahsandur». Navoiy uni ko‘rmagan, lekin maktub yozishib turganligini ta’kidlaydi. Navoiy Shohiy zikri bilan majoz tariqida yozgan shoirlarga yakun yasaydi.

39. *Mavlono Abdurahmon Jomiy* – Nuriddin Abdurahmon ibni Nizomuddin Ahmad ibni Shamsuddin Muhammad (1414, Jomning Xargardi – 1492, Hirot) shoir va mutafakkir Navoiyning do‘sti, tariqatdagi ustodi. 3 ta she’rlar devoni, «Xamsa» yo‘lidagi 7 dostonidan iborat «Haft avrang» («Yetti taxt»), «Bahoriston» kabi badiiy va qator ilmiy asarlar, jumladan, «Risolayi aruz», «Risolayi qofiya», «Risolayi musiqiy», «Risolayi muammo» (3 ta) va bir qancha asarlarda sharhlar ham yozgan.

Navoiy Jomiyni piri sifatida g‘oyat hurmat qilgan, har bir dostonida alohida madh qilgan, boshqa asarlarida ham yuksak hurmat bilan yodga oladi. Jomiy haqida u haqda «Xamsat ul-mutahayyirin» («Hayratlanganlar beshligi») nomli muqaddima, uch maqolat va xotimadan iborat maxsus asar yozgan. Unga o‘zining Jomiy vafotiga so‘ng bag‘ishlab yozgan marsiyasini ilova qilgan. Sadruddin Ayniy bu asar haqida «marsiya adabiyotining eng jon o‘rtovchi namunasidir. Bu tarkibbandda Jomiyning butun ilmiy va adabiy qudrati mujassamlangan», – deb yozgan edi.

Bu yerda Navoiy Jomiyni haqiqat va majoz tariqida ijod qilgan komil va yetakchi so‘z san’atkori deb keltirdi.

40. Tarj. ar.: Alloh uning yotgan joyini nurga cho‘mdirib, qabrini muqaddas aylasin.

Tarj. ar.: Allohdin nafslarimizning yovuzliklari va ishlarimizning yomonligidan saqlanishni so‘raymiz.

41. *Valoyat ahli* – avliyolar ahli. Valiy – do‘st, tasarruf sohibi va amir ma’nolariga ham ega. Allohnинг 99 ismidan

biri ham «Valiy»dir. Avliyolar Allohning amrlarini ummat-larga tushuntiradilar. Haq bilan xalq orasida bir muomaladir. Payg‘ambarning valoyati nubuvvatidan ustundir, degan tushuncha bor. Valiylar Alloh hukmiga mutlaqo rioya etishlari lozim.

42. *Shibliy* – Abubakr Shibliy komil avliyolardan. «Nasoyim ul-muhabbat»da Jomiy 4-tabaqa avliyolari sirasida sanaydi. Attorning «Tazkirat ul-avliyo»sida Shibliy manqiblaridan turli hajmdagi 60 ta naql, suhbatlarni keltiradi. Shibliy 334/945–46-y. Bag‘dodda vafot etgan.

43. *Nuriy* – Abulhusayn Nuriy, ismi Ahmad bin Muhammad. 2-tabaqa avliyolaridan. Ibn al-Bag‘aviy nomi ostida tanilgan. Nuriy 353/964-y. Nishopurda olamdan o‘tgan.

44. Tarj. ar.: Alloh qabrini muqaddas aylasin.

45. «*Hudiy*» – tuyachilar ashulasi.

46. *Savt – a.* lug‘aviy ma’ nosi – qamchi, qamchi urmoq. Musiqada ovoz, tovush, kuy, ohang, demakdur.

47. *Na ‘am* – navo, ohang, kuy, tarona.

48. Tarj. ar.: Alloh dedi.

49. Tarj. ar.: Allohning elchisi, ya’ni Payg‘ambar dedi.

50. *yorod* – musiqa asbobi.

51. *ayolg‘uchi* – kuyning cho‘ziq nag‘malarini ijro etuvchi.

52. *Zij* – yulduznama; jadval.

53. Tarj. ar.: qochish, uzoqlashish lozim bo‘lgan.

54. Tarj. ar.: oyning yuksakligi.

55. Tarj. ar.: munajjimlar yolg‘on gapiradilar.

56. *ajnos* – jinsning ko‘pligi – tur, nav; mol, matoni ham anglatadi.

57. Tarj. ar.: muslimonlarning ikki yelkasida o‘tirgan ikki farishta (o‘ng yelkadagisi savob ishlarini, chap yelkadagisi gunoh ishlarini yozib borar ekan).

58. *Odam* – Alloh yaratgan ilk inson va payg‘ambar. «Abulbashar» («Bashariyat otasi»), kunyasi «Safiyulloh».

Navoiy «Tarixi anbiyo va hukamo»da hazrati Odam haqida batafsil ma'lumot beradi.

59. Tarj. ar.: aziyat beruvchilarni o'ldiringlar.

60. «*Sod*» – arab alifbosidagi harfning nomi. «Hirs» so'zining oxirgi harfi «sod» bilan yozilganiga bu yerda ishora qilinadi.

61. «*Ayn*» – arab alifbosidagi ayirish belgisining nomi, «tama» so'zida oxirgi harf bo'lib kelishiga ishora.

62. Tarj. ar.: Olamning to'rt iqlimiga sipohgarlik qilish – mol haydashlikdir. Bu yerda sipohiylik mohiyatiga kinoya bor.

63. Tarj. ar.: shovqin-suron, to'polon, taralla-yalla.

64. *Rind* – dunyo ishlarini xush ko'rgan kishi. «G'iyos ul-lug'at»dan rind shariat qoidalarini, johillik yuzasidan emas, ongli suratda inkor qiluvchi odam, deyiladi. Adabiyotda rind johu davlatni ko'zga ilmagan hur fikr, isyonkor ruhiyatli, mayparast, bodadan haqiqat sarmasti bo'lib ishq sahrosi sargardonlari timsolida keladi. Hofiz:

*Rindoni bodano 'shki, bo jam hamdamand,
Vaqif zi sirri olam-u v-az holi odamand.*

(ya'ni, rindlar jom bilan hamdam bodano'shdirlar, Ular olam sirlari-yu odam holidan voqifdirlar), deb yozadi.

65. *Dayr* – lug'aviy ma'nosi – ibodat gunbazi: kaliso, butxona, majozan: mayxona. Tasavvufda lison olamini anglatadi.

66. *Jamshed* – Jam Qadimiy Eronning peshdodiyilar sulolasining 4-hukmdori. Mifologiyaga ko'ra u Nuh zamonida 700 yoki 1000 y. yashagan. Insonlarga zarur bo'lgan ko'p narsalarni, jumladan, sipohiylik aslahalaridan nayza, qilich, pichoq, qalqon yasatgan. Hammom bino qilgan. Ipak liboslar, ranglar ixtiro etgan. Istahr degan shaharni kengaytirib, unda ulug' bir bino qurdirgan. Imorat bitgach katta tantanali yig'in o'tkazib, o'zi javo-

hirlar qadalgan taxt ustida o‘tirganda, quyosh chiqib, uning hashamatidan hammayoq porlab ketadi. Xalq bu kuni Navro‘z (yangi kun) Jomni esa Jamshed (nur shohi) deb atay boshladi. Oqibat Jamshidda g‘urur va kibr paydo bo‘ladi. Navoiy «Tarixi anbiyo va hukamo» asarida yozadi: ...o‘z suvrati bila butlar yasab, aqolim (iqlimlar), va kishvar (mamlakat) larga yiborib, elga o‘zining parastishini (o‘ziga sig‘inishni) buyuradi. Allohning qahriga uchradi va Zahhok Jamshedni arra bilan ikkiga bo‘lib, pora-pora qildi, taxtini egalladi.

Tasavvufda alaviy, mavlaviy, bektoshiy tariqatlarida Jom bir zikr nomi bo‘lib, zikrdan so‘ng sharob ichiladi. Jam maqomi, jam ul-jam degan komil maqom ham bor.

Bu yerda Navoiy xarobot rindlari o‘z shavkatini Jamshednikidan ortiq biladilar degan fikrga urg‘u bermoqda.

67. *Darvesh* – bir tariqatga bog‘liq odam. Asl ma’nosi Alloh yo‘lida xoksorlik va faqirlikni qabul qilgan kimsani anglatadi. Adabiyotda darvesh farog‘at go‘shasida sokin, qanoat xazinasi sohibi, martabada sultondan yuksak, ma’naviyat podshohi, o‘z yurtida musofir, xirqapo‘sh sayyor sifatida qalamga olinadi.

68. *Faridun* – Afridun holida ham uchraydi. Qadimgi Eron peshdodiylar sulolasiga mansub podshoh. Navoiyning «Tarixi muluki ajam» asarida yozishicha, ba’zi manbalarda Jamshed nabirasi, ba’zilarida Taxmuras nassidan deyiladi. Navoiy Faridunni «Yaxshi axloqlik olim va odil podshoh erdi» deb maqtaydi. U Muso payg‘ambar va Horun uning zamonida yashaganlar, deb yozadi Navoiy. Faridun o‘z yaralariga odamzod mag‘zidan boshqa davo topmagan Zahhokni mahv etgan, Kova ohangar (temirchi) saxtiyonini bayroq qilish qoidasini o‘rnatgan edi. Faridun o‘zining boy xazinasi bilan ham mashhur bo‘lgan ekan. Bu yerda ana shu Faridun ganjiga ishora qilinadi.

Ikkinchi qism

1. Tavba – shariatda vojib, tariqatda shart, sulukda lozim bo‘lgan tushuncha. Tavba insonning qilgan gunohlaridan pushaymonligi, gunohlarining kechirilishini Tangridan iltijo qilib so‘rashi va Haq yo‘liga qadam tashlashi. Tasavvufda solikning Parvardigori sari safar (uning hayoti) qilsa, bu safarda u 7 manzil maqomni bosib o‘tadi. Birinchi maqom tavbadir. Tasavvuf istilohotida tavba ruhning bedorligidir, deb ta’rif qilinadi. Alloh ismlari orasida Tavvob (tavba qabul qiluvchi) bor. Qur’oni karimda tavba 87 bor eslatiladi. Muhammad payg‘ambar (s. a. v.): «Har kuni 70 marta tavba qilaman», – degan ekanlar.

2. Tarj. ar.: Bu Allohning fazilatidur, uni xohlagan kishi-siga beradi.

3. *Shayx Abdulloh Muborak* – Abu Abdurahmon Abdulloh bin Muborak Marvaziy (vaf. 171/787–88, Iroqning Hit shahri). Shahanshohi ulamo, shariat va tariqatning imomi, qalam va qilich amiri deb ta’riflangan buyuk shayxlardan Attor «Tazkirat ul-avliyo»da uning manoqiblari dan 22 naql keltiradi. Jomiy «Nafahot ul-uns»da, Navoiy «Nasoyim ul-muhabbat»da Abdullo Muborak haqida alohida maqola beradilar. Navoiy Attor keltirgan Abdulloh Muborak manoqiblаридан бири – тавбасининг бoshланishi haqida naql beradi: U bir kanizak ishqiga giriftor bo‘ladi. Bir qish kechasi tongga qadar ma’shuqa devori ostida turadi. Qor va sovuqda qoladi. Sahar namozi azonini xufton deb o‘ylaydi. O‘ziga kelgach, deydi: – «ey Muborakning nomuborak o‘g‘li, senga uyat emasmi? Agar Imom namozda uzunroq sura qiroat qilsa, toliqarding. Endi nafsing havosiga tong otquncha mundog‘ azob tortarsen». Shundan so‘ng Abdulloh Muborak tavba qilib, sulukka beriladi. Xuddi shu naql bu yerda ham keltiriladi.

4. *Zuhd* – dunyo va uning lazzatlari orzularidan kechib,

toat-ibodat bilan mashg‘ul bo‘lishlikni anglatadi. Mashoyixlardan Junayd: «Zuhd shuki, mulkdan qo‘l, tab’dan dil xoli bo‘lg‘ay». Zohid parhezkor bo‘lib, jismoniy halovat va lazzatlardan saqlanib, dunyo, mol-u joh, yor-u ag‘yorning ko‘p-u oziga parvo qilmaydi.

5. *Mavlono Shamsiddin Muiddi Ucha* – XV asrda Jomda yashagan, sufiylar boshlig‘i.

6. Tarj. ar.: kechasi bezor.

7. Tarj. ar.: yil bo‘yi ro‘zador.

8. *Uhud g‘azvasi* – 624-y.da Abu Sufyon boshchiligida-gi 3 ming yaxshi qurollangan qo‘sishin Muhammad (s.a.v.) ga qarshi qo‘sishin tortadi. Muhammad (s.a.v.) 700 qo‘sishin bilan ularga qarshi chiqib, Uhud degan joyda jang qiladi. Jangda Muhammad alayhissalom boshidan yaralanadi va tosh tegib ikki tishi sinadi. Alining jasorati bilan madinaliklar g‘alaba qozonadilar.

Bu yerda Muhammadning muqaddas jangda yo‘qotgan ikki tishi xotiri uchun Shamsiddin Muiddi o‘zining 32 tishini sug‘urib tashlagani haqida so‘z ketadi.

9. *Kichik Mirzo* – Husayn Boyqaroning egachisi Oqobeginning o‘g‘li. Boburning yozishicha «Burunlari tag‘oyisiga mulozamat qilur edi. So‘ngra sipohiylikni (hukumat xizmati, amaldorlik) tark qilib, mutolaag‘a mashg‘ul bo‘ldi. Derlarki, donishmand bo‘lub ekandur». Navoiy «Majolis un-nafois»da yozadi: «xo‘btab’lik, tez idrokliq, sho‘x zehnlik, qaviy hofizalik yigit erdi. Oz fursatda yaxshi tolibi ilm bo‘ldi va ko‘proq ulum va funundin o‘z mutolaasibila vuquf hosil qildi. She‘r va muammoni xo‘b anglar erdi, balki ko‘ngli tilasa ayta ham olur erdi. Bovujudi bu fazoil darveshliqlarga moyil bo‘lib, Makka ziyorati sharafiga musharraf bo‘ldi». Bu hikoyat Kichik Mirzoning ana shu darveshlikka moyiligidan dalolat beradi.

10. Tarj. ar.: unga Allohning rahmati bo‘lsin.
11. *Tavakkul* – Parvardigorga dilbastalik va komil e’timod – ishonchdir. Bu ma’rifatning kamoliga bog‘liq maqom bo‘lib, valiylargacha nasib qiladi.
12. Tarj. ar.: Allohma tavakkal qilsin.
13. *Shayx Ibrohim Sitnabah* – Ibrohim Adhamning mu-sohibi. Kunyasi Abu Is’hoq. Asli Kirmondan bo‘lib, Hirotda yashagan, shu bois uni Hirotiy ham deyishgan. Qabri Qazvinda.
14. *Qanoat* – qismatdan rozi bo‘lish, nafsdan voqiflikdir. Ozga qone’lik qanoatdir.
15. *Muxbiri sodiq* – sadoqatli xabar yetkazuvchi. Muhammad (a. s.)ga nisbatan qo‘llaniladigan ibora.
16. *Shayx Shoh Ziyoratgohiy* – XV asr Xuroson mashoyixlaridan bo‘lsa kerak.
17. Tarj. ar.: qanoat qilgan aziz bo‘ladi.
18. Tarj. ar.: tez davolanmaydigan demakdir.
19. *Ayyub* – payg‘ambar. Is’hoq payg‘ambarning nabi-rasi. Rivoyatlarga ko‘ra, Ayyubning mol-dunyosi, Rahima ismli xotini, bir uy farzandlari bor ekan. U dunyo lazzatlaridan bahramand ekan. Alloh uni imtihondan o‘tkazmoqchi bo‘ladi. Mol-u mulki qo‘lidan ketadi. Ayyub sabr qiladi. Bir-bir bolalari vafot etadi, u sabr qiladi. Kasal bo‘ladi, a’zoyi badaniga yara toshadi, hatto bu yaralar qurtlab ketib, azob beradi, u sabr qiladi. Rahima unga mehribonlik bilan xizmat qiladi. Nihoyat Alloh Ayyubga shifo baxsh etadi, Havran eliga payg‘ambar qilib jo‘natadi. Unga yangidan mol-dunyo va farzandlar ato qiladi. Adabiyotda Ayyub sabr-qanoat timsoli sifatida tilga olinadi. «Ayyub sabrini bersin» degan duo xalqlar orasida keng tarqalgan.
20. Tarj. ar.: ta’zim faqat Alloh amri uchundir.
21. Tarj.ar.: Shafqat Allohning yaratganigadur.

22. Tarj. ar.: Allohning yaratgani.
23. Tarj. ar.: Alloh tomonidan yaratilgan.
24. *Xoja Abdullo Ansoriy* – Abu Ismoil Abdulloh bin Abu Mansur Muhammad al-Ansoriy – laqabi Shayx ul-islom (396/1005–06–481/1088–89), Orif, yozuvchi, shoir va donishmand. Jomiy «Nafahot ul-uns»da yozishicha, qalami ostidan chiqqan narsalari yodida naqshlanib qolar ekan. 1000 bayt arab shoirlari she’rlarini yod bilgan. Xoja Abdullo Ansoriy Qur’on tazkiri va tafsirida o‘zini Xoja Imom Yah’yo Ammorning shogirdi hisoblangan. U sof sunniy bo‘lgan 300 ming hadisni, ming-ming isnodi (dalillar) bilan yoddan bilgan. Asarlari «Naqli tabaqoti sufiya», «Koshiful-asror», «Munojotnama», «Muhabbatnama», «Zod ul-orifin», «Qand ul-solikin», «Qalandarnoma», «Haft hisor», «Ilohiyatnomma» va b. Navoiy «Nasoyim ul-muhabbat»idagi Ansoriyga bag‘ishlangan maqola Jomiy asaridagi maqola-ning qariyb aynan tarjimasidir.
25. *Mansur* – Husayn bin Mansur Halloj Bayzaviy. Kuniyati – Abulg‘ays (857–922). Attor «Tazkirat ul-avliyo»da uning maqlasidan ko‘plab naqllar, karomatlar, qatlining tafsilotlarini keltiradi. Uning «Analhaq»ini tushungan tarafdozlari va rad etgan muxoliflarini nomma-nom sanab o‘tadi. Jumladan, Shibliy aytgan ekan: «men va Halloj bir mashrab (fe'l-atvor, tariqat, din)danmiz. Lekin meni devonalikka nisbat berdilar, omon qoldim. Husaynni esa uning aqli halok qildi». Mansur hallojdan «ishq nima?» deb so‘raganlarida: «O‘ldirilgan, sovrulgan kun – ishqdir», – deb javob bergen ekan. Attor Mansurning qay tarzda qatl etilishini yozadi: avval toshbo‘ron qilinadi, keyin qo‘llarini, so‘ng oyoqlarini, chopib, burun, quloqlarini kesib, ko‘zlarini o‘yib oladilar. Har bir a’zosidan judo qilisharkan, Mansur javoblar berib turgan, jumladan tilini qirqishdan avval: «Biroz sabr qiling so‘zim bor, deb yuzini osmonga qaratib:

Ilohi, sening uchun shu ranjni tortayotganlarni (ya’ni, unga azob berayotganlarni) marhamatingdan mahrum qilma, ularni shu davlatdan benasib etma!» deb iltijo qilgan ekan. Attor ta’kidlaydiki, namozshom paytida Hallojning boshini tanidan judo qilar ekanlar, u tabassum bilan boqardi... Har andomidan «Anal-haq» eshitilar, oqqan har tomchi qonidan «Alloh» naqshi zohir bo‘lar edi», – deb yozadi.

Jomiyning «Nafahot ul-uns», Navoiyning «Nasoyim ul-muhabbat» asarlarida Mansur Halloj haqida maqola mavjud. Oxirida (har ikki maqola aynan) Mansur Hallojning ustodi Abu Amr binni Usmon Makkiy tayhid haqida bir risola yozganligi aytildi. Uni pinhon tutar ekan. Mansur uni yashirinch olib, oshkor qiladi. Bu asar nozikliklarini tushunmay, el uni rad etadi. Ustod Hallojni «Ilohi, birovni anga gumonlakim, ilik-ayog‘in kesgay va ko‘zin o‘yg‘ay va dorg‘a tortqay», deb qarg‘agan ekan.

«Nimaiki Mansur Halloj boshiga tushgan bo‘lsa, ustodi duosi bilan bo‘ldi», deyiladi.

26. *Tavajjuh* – zohiran, qalban butun borlig‘ing bilan Haqqa yuz tutmoqlikdir.

27. *Rizo* – tasavvufda tavakkuldan keyingi maqom bo‘lib, solik o‘z nafsi rizosidan qutulib, Xudo iroda qilgan, taqdir etgan narsalarga rozi bo‘ladi (*Rizo* qazoning ach-chiqligiga nisbatan dilning shohligidir).

28. Tarj. ar.: Allohnинг axloqlarini qabul qilg‘uvchilar, demakdir.

29. *Xalilulloh* – Ibrohim payg‘ambarning laqabi.

30. *Namrud* – Ibrohim payg‘ambarni o‘tga tashlagan podshohning ismi.

31. Ishq tasavvufda ilohiy ne’mat, solikning jazbali holati hisoblangan va tariqatning eng muhim maqomlari dan biridir. Unga faqat sodiq va pok insonlar yetishadi. Bu maqomda oshiqda shunday holat yuz beradiki, u o‘zidan

begona, noogoh, zamon-u makondan ozod, mahbub firoqida kuyadi, yonadi, unga yetishishga intiladi.

32. Tarj. ar.: Haqiqatda Alloh go‘zaldur va go‘zallikni sevadi (Hadis).

33. *Shayx Iroqiy* – Shayx Faxriddin Ibrohim Iroqiy (1213, Hamadon –1289, Damashq). Yoshligida Qur’oni majidni yod olgan va g‘oyat go‘zal qiroat bilan o‘qishni o‘rgangan. 17 yoshida tasavvufga mayl qilgan. Darveshlariga qo‘silib, Hindistonda Zakariyoyi Multoniya shogird bo‘lgan va uning qiziga uylangan. Makka va Madinaga safar qilib, Bag‘dodda Shihobiddin Suhravardiy suhbatida bo‘lgan. Kuniya hokimi Mu’iniddin Parvona Tavqon shahrida unga xonaqoh qurib bergan. Shom va Misrda ham bo‘lgan. Qasida va g‘azallardan iborat devonida 4800 bayt va Sanoiyning «Hadiqa»si payravida «Ushshoq-noma» nomli manzumasi bor. Asarlari ishqiy va irfoniy mazmunda. «Lamaot» nomli nasriy risolasi g‘oyat mash-hur bo‘lib, unga Jomiy sharh yozgan. Shayx Iroqiyning qabri Damashqning Solihiya degan yerida Shayx Muh-yiddin al-Arabi qabri oyog‘idadir. Uning yonida o‘g‘li Kabiriddin ham dafn qilingan.

35. Siddiq tasavvufda so‘zları va ishlari, bilim-u ahvoli, ravish-u niyatları, tabiatı va axloqi to‘g‘ri bo‘lgan kishilardır. Siddiqlar valoyatning a‘lo (yuqori) va nubuvvatning adno (quyi) darajasida turadilar.

35. Tarj. ar.: qudratli podshoh huzurida, demakdir.

36. *Shayx Abu Said Xarroz* – Ahmad bin Iso Bag‘dodiy (vaf. 277/890–891). Uni «Lison ut-tasavvuf» («Tasavvuf tili») deb ulug‘laganlar. Asli Bag‘doddan, Ikkinchı tabaqça mashoyixlaridan. Laqabi Xarroz (poyabzal yamoqchisi). Muhammad bin Mansur Tusiyning shogirdi: Zunnun Misriy suhbatida bo‘lgan. Tasavvufda 400 asari borligi Attorning «Tazkirat ul-avliyo»sida qayd etilgan.

Uchinchi qism

1. *Ja'far* – Kamoliddin Ja'far binni Ali Tabriziy (vaf. 1456–1458, Buxoro). Shohrux zamonida kamol topib, Boysunqur mirzo (1399 – 1434) davrida kotib va musavvirlarning boshlig'i bo'lgan. Shu bois «Za'fari Boysunquriy» deb imzo chekkan. «Suls», «nasx», «riqo'», «rayhon», «tavqe'» va «shikasta» xatlarida mumtoz bo'lgan. Firdavsiy «Shohnoma»si, Nizomiy «Xusrav va Shirin»i, Sa'diyning «Guliston»i, Hasan Dehlaviy va Hofiz devonlarini ko'chirgan va bu mo'tabar qo'lyozmalar Tehron, Parij, Istambul, London, Sankt Peterburg shaharlarining nufuzli kutubxonasi va muzeylarida saqlanadi.

2. *Azhar* – Azhar Tabriziy (1422, Tabrez – 1502/03, Bayt ul-muqaddas). Ja'far Tabriziyning shogirdi, xattot Mirali va Ja'fardan so'ng «Nasta'liq» xatinining uchinchi ustodi hisoblanadi. «Suls»ni oliv darajaga olib chiqqani sababli – «usuli shashgona» (sitta) ustodi ham sanaladi. Jaloliddin «Masnaviy»si, ibni Yaminning «Muqatta'ot» («Qit'alar»)i, Nizomiy va Xusrav Dehlaviyning «Xamsa»larini kitobat qilgan. Bu nodir qo'lyozmalar Tehron, Istambul, Lohur, Manchester, Nyu-York shaharlari kutubxonalari va muzeylarida saqlanadi.

3. *Abdulhay* (1360, Bag'dod – 1420, Samarqand) – xattot va musavvir. Sulton Uvaysiy Jaloiri yaroyida, Bag'dodda yashagan. 1393-y. Temur Iroqni istilo qilganda Abdulhayni Samarcandga olib kelib, o'zining tasvir ustaxonasiga boshliq qilib tayinlagan. Uning «Bat» («O'rdak), «Jang manzarasi» va «Guliston» hikoyatlari chizgan rasmlari davrimizgacha yetib kelgan. Umri oxirida irtijo'chi doiralar ta'sirida o'z san'atidan voz kechgan va ko'p rasmlarini kuydirib tashlagan. «Nasx», «suls» va «riqo'» xatlarini go'zal bitgan. Bu yerda mohir xattot sifatida nomi keltiriladi.

4. *Moniy* – Qadimiy afsonalarga ko'ra Rumda yashagan naqqosh. Nubuvvat da'vo qilib, naqqoshlikni o'zining

mo‘jizasi deb xaloyiqni ishontirishga intilgan. «Arjang» («Arsang» nomi bilan ham uchraydi) nomli asar yozgan deyiladi. Bu asarning bir nusxasi G‘aznada mavjud degan ma'lumotlar bor. Deydilarki, Moniy «Arjang»ni bir g‘orda saqlagan ekan. G‘orning devorlariga turli-tuman go‘zallarning rasmlarini va manzaralarini chizgan ekan. Bu g‘orni «Nigoriston Moniy» deb atashar ekan. Mumtoz adabiyot vakillari (Rudakiy, Firdavsiy, Nizomiy, Navoiy va b.) Moniyni buyuk rassom timsoli sifatida talqin qiladilar.

5. Atorid – Utorid – Merkuriy sayyorasi. Mifologiyada bu yulduz yozuvchilarning homiysi hisoblanadi. «Dabir» deb ham yuritiladi. Utorid hokim bo‘lgan burjlarda tug‘ilganlar zehnli, hiylagar bo‘lar emish. Do‘s’t yulduzlari – Qamar, dushmanlari Shams va Zuhra emish.

6. *Yusuf Kan’oni* – Ya’qub payg‘ambarning o‘g‘li, hayoti va qissasi Qur’oni karimda «Yusuf» surasida keltirilgan payg‘ambar. U sharq adabiyotida go‘zallik va ezgulik timsoli sifatida mashhur. U haqda ko‘p qissa va dostonlar yaratilgan. X asrda Abulmuayyad Balxiy Baxtiyoriy, Am‘aq Buxoriy dostonlari shular jumlasidandir. Firdavsiyga nisbat berilgan Yusuf haqidagi qissa muallifi Amoniy degan shoir ekanligi ma’lum bo‘ldi: XI asrda bu mavzu‘da Mas‘ud Hiraviy, Ozori Tusiy, Mas‘ud Qumiy, Mas‘ud Dehlaviy, XV – XIX asrlarda shoirlar o‘nlab dostonlar yaratdilar. Turkiyzabon adabiyotlarda Ali (XII), Hamidulloh Chalabi (XI) dostonlari yozildi. Nozim Hikmat «Yusuf Kan’oniy» nomli asar yozdi. Nemis yozuvchisi Tomas Mann 1926 – 1933-yillarda bu mavzuda qator romanlar ijod qildi. O‘zbek adabiyotida «Yusuf va Zulayxo» dostonini Durbek yozgan, deyiladi. Lekin afg‘onistonlik olim Muhammad Ya’qub Vohidiy Juzjoniy bu doston muallifi ning nomi Homid Balxiy ekanligi haqida ma’lumot e‘lon qildi.

7. Ankar al-asvot – a.: Eng yoqimsiz tovush, ovozni anglatadi.

8. *Yusuf Andigoni* – «Badiiy» taxallusi bilan yozgan shoir. Navoiy «Majolis un-nafoyis»da ta’kidlashicha, tahsil uchun Samarcandga borganida, u Andijondan kelgan va birga bo‘lishgan. Keyin Hirotda yashagan. Navoiy uning yaxshi she’rlari borligini, aruzni bilishligini, muammo risolasi borligini ta’riflaydi. «Birmuncha takabbur ham bor edi», deb qayd qilib o’tadi. Lekin Yusuf Andijoniyning ovozga aloqador jihatni haqida tazkirada so‘z yuritilmaydi. Binobarin, bu yerda Navoiy nimani ko‘zda tutayotganini aniqlash mumkin. Balki shoir chiroyli ovoz bilan she’r o‘qigan, balki xushovoz xonanda bo‘lgandir.

9. *Salmon* – mashhur fors-tojik shoiri.

10. *Jorulloh* – Mahmud Xorazmiy – Abulqosim Mahmud bin Umar Zamaxshariy (467/1074 – 538/1143 – 44) Asli Xorazmning Zamaxshar shahridan adabiyot va lug‘at ilmida katta ishlar qilgan olim, ma’lum muddat Ka’ba mujoviri bo‘lgani (Ka’ba yonida yashagani) uchun Jorulloh (Allohning qo‘slnisi) laqabi bilan mashhur bo‘lib ketgan. Bir oyog‘idan ayrilganligi haqida ma’lumotlar bor. «Kashshof», «Asos ul-balogs‘a», «Muqaddimat ul-adab» kabi asarlar yozgan.

11. Bu yerda Navoiy Zamaxshariyning «Kashshof» (kashf qiluvchi, ochuvchi, tushuntiruvchi, ma’nodor, puxta) asarini namuna sifatida keltirmoqda.

12. Tarj. ar.: U yagonadur va uning sherigi yo‘qdur. Allohdan o‘zga iloh yo‘qdir.

13. Jallat jalaluhu va ammat nuamouhu va la ilaha g‘ayruh – a.: Buyukligi yuksak va ne’matlari umumiy bo‘lgan bir Allohdan o‘zga iloh yo‘q.

15. Tarj. ar.: Alloh sanga qanday yaxshilik qilgan bo‘lsa, sen ham boshqalarga shunday yaxshilik qil (Hadis).

16. *Nuh* – islomiyatdan avval o‘tgan va uzoq umr ko‘rgan payg‘ambar. Qur’oni karimda «Nuh» surasi mavjud. Qur’onda Nuh ismi 33 marta zikr etilgan. Nuh

(a.s.) zamonida buyuk To‘fon voqeasi sodir bo‘lgan. Nuh (a.s.) kema yasab, har bir hayvondan bir juftdan, barcha o‘simgiliklardan namuna olib, Haqqa imon keltirganlar bilan birga kemaga chiqadi va to‘fondan najot topadi. Navoiyning «Muhokamat ul-lug‘atayn» asarida berilishicha, bugungi bashariyat asli Nuh (a.s.) ning uch o‘g‘li – Som, Hom va Yofasning avlodlaridir. Shu sababdan Nuh (a.s.)ni «Odami soniy» – Ikkinchı Odam ham deyishadi.

Adabiyotda Nuh umri, to‘fonlarga bardosh bergen oshiq, to‘fon esa oshiqning, ko‘z yoshi sifatida qalamga olingan. Bu yerda Navoiy Nuh umricha umrim bo‘lsa ham davr ahli bevafoliklari va zamon xayli behayoliklarini yozib tugatishim mahol, – demoqda.

17. *Lugmon* – Sharq xalqlari orasida Luqmoni hakim nomi bilan mashhur asli habash bo‘lib, Dovud payg‘ambar zamonida yashagan ekan. U kimningdir solih quli bo‘lgan, keyin ozod qilingan, degan rivoyatlar ham bor. Ko‘p bilimlarni ayniqlsa, tabobatni yaxshi bilgan Luqmon umri oxirida aqldan ozgan ekan. Jomiy «Nafahot ul-uns»da «Shayx Luqmon Saraxsiy» deb maqola beradi va uning dunyodan o‘tgan chog‘ida mashhur shayxlardan Abu Sayd Abul Xayr va Abul Fazl Hasanlar tepasida bo‘lganlarini yozadi.

Luqmonning «Illohi, podshohlarning qullari qarib qolganda, uni ozod qiladilar. Sen aziz podshohsan, men senga bandilikda qaridim, ozod qil», – deb iltijo qilganida, g‘oyibdan «Ey Luqmon», seni ozod qildim» degan nido kelgan. «Uning ozodligi shunday ediki, – deb yozadi. Jomiy, – uning aqli zoyil qilingan edi». Bu yerda Navoiy Luqmonning oddiy bir qul bo‘lgani barobarida Haq inoyati bilan hakim va nabiylikka noil qilinganiga diqqatni qaratadi.

18. Tarj. ar.: yaxshilik qanotlari yo‘q bo‘lmaydigan va yo‘q bo‘lmaydi.

19. Tarj. ar.: Toqat qilib bo‘lmas narsadan qochish.

20. Tarj. ar.: Bas, (Ey Muhammad), siz va siz bilan birga tavba qilgan zotlar o‘zingizga buyurilgani yanglig‘ to‘g‘ri yo‘lda bo‘lingiz! («Hud» surasi, 112-oyat)
21. Tarj. ar.: Qanoat qilgan azizdur (Hadisga ishora).
22. Tarj. ar.: Yaramasliklar (gunohlar) onasi.
23. Tarj. ar.: Ikki dunyo (bu va narigi dunyo)da muqaddas – sharif insondir.
24. Tarj. ar.: Iflos bo‘lmoq.
25. Tarj. ar.: Alloh taolo ularning ruhlarini muqaddas qilsin.
26. *Shayx Boyazid Bistomiy* – Tayfur bin Iso bin Odam bin Sarushon (vaf. 280/873–74) ulug‘ mashoyixlardan, buyuk avliyolardan. Jomiy bиринчи tabaqaga mansub, deb yozadi. Junayd Boyazid haqida: «Bizning oramizda Boyazid maloyikalar orasida Jabroil kabitidur», – degan ekan.
- Attor «Tazkirat ul-avliyo»da Boyazid Bistomiy haqidagi maqolatlarda 125 naql, karomat va hikmatlar. Shayx Boyazidning me’roji, «hamd», «Shayx Boyazid-ning munojoti» deb nomlangan alohida boblar beradi.
- Navoiy bu yerda pir irshodidan chetga chiqish solik uchun xatarli, degan tushunchaning isboti uchun Boyazid Bistomiy haqidagi bir naqlga e’tiborni tortadi.
27. *Horun ar-Rashid* (763 yoki 766, Bag‘dod – 809, Tus) abbosiylar sulolasining beshinchi xalifasi. Uning davrida dehqonchilik, hunarmandchilik, tijorat, ilm-fan va madaniyat ravnaq topgan. «Ming bir kecha»dagi naql-u rivoyatlarda u adolatli hukmdor sifatida tilga olinadi.
28. *Shayx Bahlul* – Horun ar-Rashid davrining mashoyixlaridan, zamona allomasi Umar Kufiyning o‘g‘li bo‘lgan. O‘zini devonavashlikka solib, jamiyat norasoliklari va a‘yon-u ashroflar riyokorligini fosh etib yurgan. Lekin Shayx Bahlulning jununi bor, deb uni jazolashmas ekanlar. Navoiy Horun ar-Rashid bilan Bahlul orasidagi bir suhbatni shukr va qanoat bobidagi o‘z o‘gitlariga misol tarzida keltiradi.
29. «Xush» so‘zining arabcha yozilishidagi harflar yig‘indisidan «abjad hisobi» bilan 906/1500 – 1501-y. chiqadi.

MUNDARIJA

Avvalg‘i qism. Xaloyiq ahvol va af’ol va aqvolining kayfiyati.....	10
Ikkinci qism. Hamida af’ol va zamima xisol xosiyati.....	51
Uchinchi qism. Mutafarriqa favoyid va amsol va surati.....	78
«Mahbub ul-qulub»ning izoh va tarjimalari.....	145

Adabiy-badiiy nashr

Alisher Navoiy

MAHBUB UL-QULUB

Muharrir	<i>Gulnoz Mo'minova</i>
Badiiy muharrir	<i>Oloviddin Sobir o'g'li</i>
Texnik muharrir	<i>Dilmurod Jalilov</i>
Sahifalovchi	<i>Bobur Tuxtarov</i>
Musahhih	<i>Rayxon Ibragimova</i>

Nashriyot litsenziyasi AI № 315. 24.11.2017.
2018-yil 15-martda bosishga ruxsat etildi.
Bichimi 84x108 $\frac{1}{32}$. Times New Roman garniturası.
Ofset bosma. 10,05 shartli bosma toboq. 9,15 nashr tobog'i.
Adadi 10000 nusxa. raqamli buyurtma.
Bahosi shartnomaga asosida

Yoshlar nashriyot uyi. Shayxontohur tumani,
Navoiy ko'chasi, 11-uy.

«QAQNUS SOFTWARE» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahar, Navoiy ko'chasi, 22-uy.